

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

XALILOV MUXIDDIN SHAKIROVICH

**TADBIRKORLIK IJTIMOIY FUNKSIYASINING NAZARIY
ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
(iqtisodiyot fanlari)**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun
DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar: iqtisodiyot fanlari doktori,
professor GAFUROV U.V.**

Toshkent – 2023 yil

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1-BOB. TADBIRKORLIK IJTIMOIY FUNKSIYASINING MAZMUNI VA SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY ASOSLARI.....	12
1.1. Tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasining mazmuni va mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi roli.....	12
1.2. Tadbirkorlik ijtimoiy funksiyasining xususiyatlari va asosiy tamoyillari.....	23
1.3. Tadbirkorlik ijtimoiy funksiyasining samaradorligini baholashning uslubiy asoslari.....	32
Birinchi bob bo‘yicha xulosa.....	41
2-BOB. O‘ZBEKİSTONDA TADBIRKORLIK IJTIMOIY FUNKSIYASINING SAMARADORLIGI HOLATI.....	43
2.1. Tadbirkorlik sub’ektlarining aholi bandligini ta’minlashdagi ishtiroki.....	43
2.2. Aholi daromadlari va turmush farovonligini oshirishda kichik tadbirkorlikning roli.....	54
2.3. O‘rta mulkdorlar qatlamini tarkib topishida kichik biznes va tadbirkorlik imkoniyatlaridan foydalanish darajasi.....	66
Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa.....	77
3-BOB. O‘ZBEKİSTONDA TADBIRKORLIKNING IJTIMOIY FUNKSIYASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI.....	78
3.1. Tadbirkorlik ijtimoiy funksiyasi samaradorlini oshirishda bozor dastaklari va iqtisodiy jihatlar ta’sirini muvofiqlashtirish.....	78
3.2. Davlat va xususiy sektor hamkorligi doirasida tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasini amalga oshirish mexanizlarini takomillashtirish.....	96
3.3. Tadbirkorlik faoliyatining ijtimoiy funksiyalari asosida iqtisodiy ko‘rsatkichlarni ekonometrik modellashtirish va prognozlash.....	106
Uchinchi bob bo‘yicha xulosa.....	126
XULOSA.....	128
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	132

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Jahon mamlakatlari tajribasi, ijtimoiy muammolarni ijobiy hal etishda, aholi turmush farovonligini oshirishda tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasidan foydalanish ijobiy natijalarga sabab bo‘lishini namoyon etmoqda. Xususan, ishsizlarni ish bilan bandligini ta’minlash, aholi daromadlarini oshirish, mehnat qilish sharoitlarini yaxshilash, kambag‘allik muammosini hal etish, hudud infratuzilmasini rivojlantirishda tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasidan foydalanishni amaliyatga joriy etilishi, jamiyat hayotidagi ijtimoiy muammolarni samarali hal etish imkoniyatini oshiradi. Bugungi kunda dunyo sahnida yangi iqtisodiy markazlarning vujudga kelishi, tadbirkorlik tuzilmalarini, jumladan, tadbirkorlikni ijtimoiy funksiyasini rivojlantirishga qaratilgan tizimni takomillashtirib borish masalalarini o‘rganishni dolzarb qilib qo‘ymoqda.

Rivojlangan davlatlarda tadbirkorlikni rivojlantirishni, ular tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy funksiyalarni tadqiq etuvchi ko‘plab ilmiy tadqiqot tuzilmalari faoliyat ko‘rsatmoqda. Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etish va tartibga solish bo‘yicha shakllangan amaliy ko‘nikma, to‘plangan tajribalar, tadbirkorlik sub’yektlari tomonidan ijtimoiy masalalarni hal etishdagi ishtirokini qo‘llab-quvvatlash, tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasini keng targ‘ib etish hamda amaliyatga joriy etish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni amalgaga oshirishni rag‘batlantiradi.

O‘zbekistonda dunyo mamlakatlari bilan hamohang holda o‘zgarishlar, rivojlanishlar davri ro‘y bermoqda, aholining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy ongi o‘zgardi, tadbirkorlikka nisbatan ijobiy munosabat shakllandi va keng e’tibor qaratilmoqda. Tadbirkorlik mamlakat iqtisodiyotida yuqori ahamiyat kasb etishi aksiomaga aylandi. Bu esa, o‘z navbatida, tadbirkorlikni turli funksiyalari jumladan, ijtimoiy funksiyasini takomillashtirish va rivojlantirishda yangicha yondashuvlarni joriy etishni talab qilmoqda. Jumladan, 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ijtimoiy muammolardan hisoblangan “mehnatga layoqatli aholining

mehnat va tadbirkorlik faolligini to‘liq amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish, ish kuchi sifatini yaxshilash, ishga muhtoj shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kengaytirish”¹, “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, “Davlat-inson uchun” tamoyili asosida “mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish”² kabi ijtimoiy vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni bajarishda tadbirkorlik, kichik biznes sub’yektlarining ijtimoiy funksiyasidan samarali foydalanish muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2022 yil 9 noyabrdagi PF-244-son “Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022 yil 22 iyuldaggi PQ-329-son “Xotin-qizlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitish tizimini takomillashtirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2022 yil 9 iyundagi PF-150-son “Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2022 yil 21 yanvardagi PF-54-son “Respublika hududlarida tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021 yil 24 dekabrdagi PQ-62-son “Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Mahallabay ishslash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”ni farmon va qarorlari, 2021 yil 21 dekabrdagi VMQ-765-son “Yoshlarni tadbirkorlikka jalb etish va ularning biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, VMQ-596-soni – “Kasanachilikni tashkil etgan tadbirkorlik sub’yektlarini yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022 yil 11 maydaggi VMQ-252-soni “O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Mahallabay ishslash va

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.02.2017 yildagi PF-4947-soni “O‘zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” <https://lex.uz/docs/-3107036>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-soni “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”. <https://lex.uz/docs/5841063>.

tadbirkorlikni rivojlantirish agentligining Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiyalar ajratish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darjasи. O‘zbekiston Respublikasining sohaga oid qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari mamlakatimizda kichik biznesni rivojlantirish, uni davlat tomonidan tartibga solish va iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari bo‘lib xizmat qildi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning nazariy jihatlari xorij olimlaridan A.Smit, J.B.Sey, R.Kantilon, Y.Shumpeter, R.Xizrich, M.Piters, M.G.Lapusta, Yu.L.Starostin, K.R.Makkonnell, S.L.Bryu, M.M.Xait³ va boshqalarning ilmiy ishlarida atroflicha tahlil qilingan. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning umumiyligi jihatlari S.S.G‘ulomov, Yo.Abdullayev, M.R.Boltabayev, Sh.J.Ergashxodjayeva, Sh.Yuldashev, M.S.Qosimova, B.K.G‘oyibnazarov, E.G.Nabiiev, M.I.Saidkarimova⁴ va boshqa oimlarning ishlarida bayon etilgan. Kichik

³ Сэй Ж.Б. Трактаты политической экономии. – М.: Экономика. 1985. – 55 с.; Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. Т.1.– М.: Ось, 1977. – 480 с.; Шумпетер Й. Теория экономического развития. – М.: Прогресс, 1985. – 159 с.; Хизрич Р., Питерс М. Предпринимательство или как завести собственное дело и добиться успеха. – М.: Прогресс, 1991. – 223 с.; Лапуста М.Г, Старостин Ю.Л. Малое предпринимательство. М.: Инфра-М, 1997. – С.87.; Макконнелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс. В 2-х т. Т-1. – М., 2003. – 399 с.; Хамидуллин Ф.Ф. Развитие методологии исследования малого бизнеса // Проблемы современной экономики, №3(19), 2007.; Хайт М.М. Развитие малого бизнеса на основе реструктуризации крупных предприятий // Вестник Московского университета, сер. 6. Экономика, №4, 2006. – С.32-43.

⁴ Абдуллаев Ё. Кичик бизнес ва тадбиркорлик асослари. – Т.: Мехнат, 2010. - 349 б.; Болтабаев М.Р., Қосимова М.С., Эргашходжаева Ш.Ж., Гойбназаров Б.К., Самадов А.Н., Ходжаев Р. Кичик бизнес ва тадбиркорлик: Ўкув кўлланма. – Т.: Иқтисодиёт, 2010. – 275 б.; Ходжаев Р., Эгамбердиев А. Кичик бизнес ва тадбиркорлик. – Т.: Иқтисод-молия, 2008. – 105 б.

tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiyot tarmoqlaridagi samaradorligini oshirish yo‘llari va uni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari H.P.Abulqosimov, I.A.Bakiyeva, N.K.Murodova, A.A.Qulmatov⁵ va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida ko‘rib chiqilgan. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlanish tendensiyalini modellashtirish va bashoratlash masalalari B.Yu.Xodiyev⁶ va boshqa olimlarning tadqiqotlarida ko‘rib chiqilgan. Shuningdek M.M.Abduraxmonova, U.V.Gafurov⁷ o‘z tadqiqotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlari faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni takomillashtirish masalalariga e’tibor qaratgan.

Biroq tadbirkorlikni ijtimoiy funksiyalari mustaqil mavzu sifatida chuqr tadqiq etilmagan. Tadbirkorlikni ijtimoiy funksiyalarini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishning zarurligi ushbu mavzuni tanlashga asos bo‘ldi. Ushbu holat mazkur tadqiqot ishi mavzusining dolzarbligini ko‘rsatadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq FM-1 «O‘zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minalash va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozlashning ilmiy-metodik asoslari va usullarini takomillashtirish» yo‘nalishidagi ilmiy tadqiqot loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi iqtisodiyotni isloh qilish jarayonida tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasi ko‘lamini oshirish, qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirishga qaratilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

⁵ Абулқосимов Ҳ.П. Ўзбекистонда кичик бизнес соҳасида оиласи тадбиркорликнинг ўрни ва уни ривожлантириш йўллари. Монография. – Т.: Университет, 2015. – 126 б.; Бакиева И.А. Ўзбекистон енгил саноатида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантириш. Дис. ... икт. фан. номз. - Т., 2012.; Муродова Н.К. Кичик бизнес субъектларининг тадбиркорлик фаолиятини ошириш йўналишлари. Дис. ... икт. фан. номз. – Т., 2008.; Қулматов А.А. Ўзбекистонда кичик тадбиркорлик фаолиятини ривожлантиришнинг ижтимоий-иктисодий муаммолари. Дис. ... икт. фан. номз. – Т., 2004.

⁶ Ходиев Б.Ю. Ўзбекистон иктисодиётидаги тадбиркорлик ривожланишини эконометрик моделлаштириш. Дис. ... икт. фан. д-ри. - Т., ТДИУ. 2000. - 338 б.

⁷ Абдурахмонова М.М. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектлари фаолиятини давлат томонидан кўллаб-кувватлашни такомillashtiriш. Дис. ... икт. фан. номз. - Ф., 2012.; Гафуров У.В. Кичик бизнесни давлат томонидан тартибга солишнинг иктисодий механизmlарини такомillashtiriш. Дис. ... икт. фан. докт. - Т., 2017.

Tadqiqotning vazifalari:

tadbirkorlikning funksiyalari mazmuni va asosiy turlari borasidagi nazariy qarashlarni tizimlashtirish asosida tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasini aniqlash;

tadbirkorlik faoliyati ijtimoiy funksiyasining asosiy yo‘nalishlarini tadqiq etish;

tadbirkorlik ijtimoiy funksiyasining baholashning uslubiy asoslarini tadqiq etish va takomillashtirish;

O‘zbekistonda kichik tadbirkorlik faoliyatida ijtimoiy funksiyani amal qilishini rivojlanganlik darajasini baholash;

tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasini amal qilish tendensiyalarini ohib berish;

tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasini bandlikni ta’minlashdagi ahamiyatini ohib berish va ta’sir etuvchi omillarni aniqlash;

O‘zbekistonda tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasi samaradorligini oshirishda bozor mexanizmini tadqiq etish;

O‘zbekistonda tadbirkorlik ijtimoiy funksiyalarini amal qilish mexanizmini takomillashtirish borasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti O‘zbekiston Respublikasida tadbirkorlikni rivojlantirish faoliyati bilan bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va ularni tavsifovchi hodisa va jarayonlar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini tadbirkorlikni ijtimoiy funksiyasi amal qilishi va mexanizmlarini rag‘batlantirish jarayonida vujudga keluvchi iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada ilmiy abstraksiyalash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, monografik bayon usuli, iqtisodiy-statistik tahlil, statistik ma’lumotlarni taqqoslash va guruhlash, ekspert baholash va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasi” kategoriysi mazmuni jamiyat a’zolarining yetarli darajada turmush faoliyati hamda shaxsiy kamol topishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta’minlashning muntazam ravishda takror hosil qilish tafsifini kiritish asosida takomillashtirilgan;

hududda yangi ish o‘rinlarini yaratishda mavjud ijtimoiy muammolarni hal etish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kooperatsion jarayonlarni ilgari surish bo‘yicha biznes rejaga ega yetakchi tadbirkorlarga davlat jamg‘armalari tomonidan 75 foizgacha kafillik berish taklif etilgan;

kasanachilik tadbirkorligini rag‘batlantirish maqsadida ijtimoiy daftarlarga kiritilgan fuqarolarni kasanachilik tadbirkorligini amalga oshirishlari uchun asbob- uskuna, jihozlar sotib olishda ularga sarflanadigan xarajatlarning 50 foizgacha bo‘lgan qismini subsidiya ko‘rinishida qoplash taklif etilgan;

O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikni muvofiqlashtirish orqali 2030 yilgacha prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasi tushunchasining iqtisodiy mazmuni, uning turlari va xususiyatlari, yondashuvlarni tizimlashtirish asosida mazkur tushunchaning mualliflik ta’rifi shakllantirilgan;

tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasi uning faoliyati rivojlanishiga ta’siri tadqiq etilgan;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasi darajasini baholash borasidagi mavjud uslubiy yondashuvlar tizimli ravishda tahlil etilib, ilmiy yo‘nalishlar aniqlangan;

kichik tadbirkorlik faoliyatini ijtimoiy funksiyalarini amal qilishini bandlik darajasiga ta’siri tadqiq etilgan;

tadbirkorlik ijtimoiy funksiyalari aholi daromadlari va turmush farovonligini ortishidagi ahamiyati ochib berilgan;

tadbirkorlik ijtimoiy funksiyalarini samarali amal qilishida o‘rta qatlamni tutgan o‘rni va bozor dastaklari ahamiyati aniqlashtirilgan.

Tadqiqot natijalarning ishonchliligi unda qo‘llanilgan yondashuv va usullarning xorijiy va milliy olim va mutaxassislarning mazkur muammoga nisbatan nazariy-uslubiy yondashuv va qarashlariga muvofiqligi, ma’lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika

agentligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Savdo-sanoat palatasining statistik ma’lumotlari va davriy hisobotlaridan olingani, tegishli xulosa va takliflarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan asosiy taklif va tavsiyalardan kichik biznes va tadbirkorlik sub’yektlari ijtimoiy funksiyalarini takomillashtirishga oid tadqiqotlarning ilmiy-uslubiy apparatini ishlab chiqish, mavzuga oid ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirishning uslubiy asoslarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarning amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan takliflar va amaliy tavsiyalardan kichik biznes va tadbirkorlik sub’yektlari ijtimoiy funksiyalarini me’yoriy-tashkiliy jihatdan tartibga solish, tarmoq va hududiy dasturlarni takomillashtirish, sohani yanada rivojlantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar majmuuni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlari ijtimoiy funksiyalarini kengaytirish va takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy-uslubiy taklif va tavsiyalar asosida:

“tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasi” kategoriyasining mazmun-mohiyati ochib berilgan, jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy jarayonlarni samarali amal qilishida tadbirkorlik sub’yektlari tomonidan ijobiy hal etishdagi ustunliklari aniqlangan va yondashuvga ko‘ra takomillashtirilgan, “tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasi” tushunchasining ta’rifi oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun mo‘ljallangan “Davlat iqtisodiyoti va siyosati” nomli o‘quv qo‘llanmasiga kiritilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021 yil 18 avgustdagи 356-sonli buyrug‘i; ro‘yxatga olingan raqami №356/7-3314). Buning natijasida talabalarda tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasi, zamonaviy tadbirkorga qo‘yilgan talablar va funksiyalarni aniqlash bo‘yicha ko‘nikmalar hosil qilish imkoniy yaratilgan;

yetakchi tadbirkor sifatida namoyon bo‘lgan, ijtimoiy muammolarga e’tibor qaratib yangi ish o‘rinlarini yaratayotgan, tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida kooperatsion jarayonlarni ilgari surish bo‘yicha biznes rejaga ega tadbirkorlarga davlat jamg‘armalari tomonidan kafillik berish tartibi bo‘yicha taklifidan Savdo-sanoat palatasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 9 avgustdagи 504-son “Hududlarda “mahallabay” ishslash asosida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining doimiy daromad manbalarini ko‘paytirish orqali kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorini shakllantirishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasining 2023 yil 13 fevraldagи 11/02-12-1335-son ma’lumotnomasi). Taklifni amaliyatga joriy qilinishi natijasida yetakchi tadbirkorlik sub’yektlariga Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi tomonidan kafillik berilishi belgilangan;

tadbirkorlikni rag‘batlantirish maqsadida ijtimoiy daftarlarga kiritilgan fuqarolarni kasanachilik tadbirkorligini amalga oshirishlari uchun asbob-uskuna, jihozlar sotib olishda subsidiya ko‘rinishidagi moddiy yordam ko‘rsatish taklifi Savdo-sanoat palatasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 14 oktabrdagi 596-son “Kasanachilikni tashkil etgan tadbirkorlik sub’yektlarini yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorini shakllantirishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasining 2023 yil 13 fevraldagи 11/02-12-1335-son ma’lumotnomasi). Taklifni amaliyatga joriy qilinishi natijasida tadbirkorlik sub’yektlariga “Temir daftар”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoki “Ijtimoiy himoya yagona reyestri”da bo‘lgan va kasanachilik bilan shug‘ullanayotgan fuqarolarga asbob-uskunalar xarid qilib berish xarajatlari uchun subsidiya ajratish tartibi to‘g‘risidagi nizom ishlab chiqilgan;

tadbirkorlikni ijtimoiy funksiyalarini nazariy asoslarini takomillashtirish sharoitida unga ta’sir etuvchi omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikni muvofiqlashtirish orqali 2030 yilgacha prognoz ishlab chiqilgan. Mazkur prognoz Savdo-sanoat palatasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 21 fevraldagи 83-son “2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar

to‘g‘risida”gi qarori milliy maqsad va vazifalarga erishilishini ta’minlash maqsadida amalga oshiriladigan yo‘l haritasiga kiritilgan. (O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasining 2023 yil 13 fevraldagи 11/02-12-1335-son ma’lumotnomasi). Ushbu ilmiy prognoz tadbirkorlikni kengaytirish orqali ishsizlik darajasini 2% atrofida pasaytirish imkonini ko‘rsatib bergen.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 137 betni tashkil etgan.

1-BOB. TADBIRKORLIK IJTIMOIY FUNKSIYASINING MAZMUNI VA SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY ASOSLARI

1.1. Tadbirkorlik ijtimoiy funksiyasining mazmuni va mamlakat ijtimoiy- iqtisodiy taraqqiyotidagi roli

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik jamiyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan. Demokratik jamiyat xalq hokimiyatiga tayanadi, xalq manfaati ustunligi, ularning tinch va farovon hayot kechirishlari uchun barcha shart-sharoitlarni ta’minlash mazkur jamiyatning asosiy maqsadi sifatida namoyon bo‘ladi.

Aholi farovon turmush kechirishini ta’minlashda ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni: tovar va xizmatlarga bo‘lgan talab, ish haqi, daromad pastligi, ijtimoiy tengsizlik, ishsizlik, kambag‘allik kabilarni ijobiy hal etilishini taqazo qiladi. Ushbu masalarni ijobiy yechimini topishda turlicha yondashuvlar bo‘lishi mumkin, lekin, bozor iqtisodiyotiga asoslangan tizimda tadbirkorlik, kichik biznes ularni eng samarali yechimi hisoblanadi.

Tadbirkorlik faoliyati to‘g‘risidagi bilim, iqtisodiyot nazariyasini kabi, insoniyat taraqqiyoti asosi bo‘lgan iqtisodiy faoliyatga nisbatan kechroq shakllandi.

Tadbirkorlik qachon paydo bo‘lganini aytish qiyin, sababi bu borada yozma manbalar mavjud emas. Bu insonlar, olimlar tadbirkorlik haqida fikr yuritishlaridan avval bu faoliyat mavjud bo‘lmagan degan fikrni shakllantirmaydi.

Markaziy Osiyo hududida arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan yodgorliklar, buyumlar va tangalar, o‘sha davrlarda ham hunarmandchilik, savdo-sotiqni mavjud bo‘lganini ifodalaydi. Ya’ni qadimda ham tadbirkorlik faoliyatini amal qilganini anglatadi. Tadbirkorlikka tarixiy nuqtai-nazardan yondashsak juda katta davrni o‘z ichiga olishi mumkin. Dastlabki Antik va o‘rta asrlarda tadbirkorlikka nisbatan jamiyat elitasi tomonidan salbiy qarashlar shakllangan, chunki tadbirkorlik ana shu jamiyatlarning asosi bo‘lmagan. Insonlar faoliyati foyda olishga qaratilmagan, asosiy e’tibor extiyojlarni qondirishga yo‘naltirilgan. Shuningdek, u davrda savdo va nimanidir evaziga pul berish, sudxo‘rlik salbiy jihatni ifodalagan.

O‘z davrida Aristotel pulga bog‘langan tadbirkorlik munosabatlarini “Xrematistika” (pulni ko‘paytirish, asosan sudxo‘rlik orqali) deb atagan⁸.

Tadbirkorlik, iqtisodiyot nazariyasi fanini shakllanishi bilan ilmiy asosda o‘rganila boshlandi.

R.Kantilon o‘zining “Savdo tabiatи haqida ocherk” nomli asarida birinchilardan bo‘lib, tadbirkorni ijtimoiy-iqtisodiy tizimning mustaqil sub’ekti ekanligini ta’kidlaydi.

U tadbirkorlikka quyidagicha ta’rif beradi: “Tadbirkor – bu tavakkalchilik sharoitida faoliyat yurituvchi shaxs; kapitalning funksiyasi, tadbirkorlik funksiyasidan farq qiladi” (1725 yil).

Mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida ahamiyat darajasi yuqori bo‘lgan klassik yo‘nalish namoyondalari tadbirkorlikka e’tibor byermadi yoki past darajada qarashdi. Xususan, A.Smit tomonidan ilgari surilgan “ko‘rinmas qo‘l” nazariyasi tadbirkorlikni iqtisodiy jarayonlardagi ahamiyatini pasaytirdi. Uning fikriga ko‘ra tadbirkor qandaydir sababga ko‘ra “bozorning ko‘rinmas qo‘l”iga bo‘ysunmas ekan u iqtisodiy o‘ladi.

Tadbirkorlik termini fransuz iqtisodiyotida “o‘z zimmasiga olish”ni (“undertakes”) anglatgan. 19-asrda klassik maktab vakili, fransuz iqtisodchisi J.B.Sey ushbu terminga katta e’tibor qaratgan va u quyidagicha ta’rif bergan “Tadbirkor resurslarni unumdorligi past bo‘lgan sohadan, unumdorligi va daromadliligi yuqori bo‘lgan sohaga yo‘naltiradi”⁹. Tadbirkorlar qiymat yaratadi deydi.

J.B.Sey tadbirkorlikka nisbatan kengroq qaradi, uning fikriga ko‘ra tadbirkor barcha ishlab chiqarish omillari – yer, mehnat va kapitalni birlashtiruvchi iqtisodiy agentdir. Olingan daromadning barchasi ish haqi, renta, foizga taqsimlangandan so‘ng qolgani tadbirkorning foydasi bo‘ladi. U ishlab chiqarish resurslarini daromad

⁸ Чеберко Е.Ф. Основы предпринимательской деятельности. История предпринимательства: учебник и практикум / Люберцы: Юрайт, 2016. – 420. 16-бет.

⁹ Dees J.G. The meaning of social entrepreneurship [Электронный ресурс]: (original draft: 1998, revised 2001) // Duke University, the Fuqua School of Business. — 2001. — Режим доступа: http://www.caseatduke.org/documents/dees_sedef.pdf.

kam bo‘lgan soha va yo‘nalishlardan daromadi yuqoriroq bo‘lgan tomonga yo‘naltiradi.

Mazkur maktab namoyondasi bo‘lgan D.Rikardo tadbirkorlikni ishlab chiqarish jarayonida qatnashishi shart bo‘lgan va uning samaradorligini ta’minlovchi deb bildi. Lekin, tadbirkorlikni boshqa yer, mehnat va kapital bilan bir qatorga qo‘ymadi. Unga ko‘ra, tadbirkor faqatgina investor sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadbirkorlikka salbiy jarayon sifatida qaragan olimlar ham bo‘lgan, jumladan, K.Marks tadbirkorlik foydasi bu nomutanosib ravishda ishchilar mehnatini o‘zlashtirish, deb hisoblagan.

XX asrga kelib Y.Shumpeter tomonidan tadbirkorlikka nisbatan yangicha yondashuvga asos solindi, tadbirkorlik yangi g‘oyalarni topish va amalga oshirish ko‘rinishida namoyon bo‘ldi.

Y.Shumpeter tadbirkorlikni boshqa omillardan ko‘ra asosiy deb hisoblaydi va iqtisodiy rivojlanishni eng muhim omili sifatida qaraydi. Unga ko‘ra, tadbirkor bu innovatsiyalar, ishlab chiqarish omillarining yangi birikmasini amalga oshiruvchi shaxs. Y.Shumpeterning fikricha tadbirkor iqtisodiyotdagi o‘zgarishlarni amalga oshiruvchi agent. Ular yangi bozorlarga xizmat ko‘rsatish yoki yangicha ish yuritish orqali iqtisodiyotni oldinga, rivojlanish tomon xarakatkatga keltiruvchi kuch, deya hisoblagan.

Garvard biznes maktabining tadbirkorlik bo‘yicha yetakchi olimi Govard Stivenson mavjud ta’rifga, tadbirkorning kashfiyotchilik elementini qo‘shti. Bu tushunchani anglagan Elizabet Barrett Brauning ifodalashicha tadbirkor bu - “u erishgan natija, uning imkoniyatlaridan ortiqcha bo‘lgan shaxs”¹⁰.

Dastlabki yondashuvga ko‘ra tadbirkorlik bu foyda keltiruvchi har qanday faoliyat deb qaralgan.

¹⁰ Dees J.G. The meaning of social entrepreneurship [Электронный ресурс] : (original draft: 1998, revised 2001) // Duke University, the Fuqua School of Business. — 2001. — Режим доступа: http://www.caseatduke.org/documents/dees_sedef.pdf.

Rivojlanishning hozirgi davrida tadbirkorlik yuqori intensivlik, tovar va xizmat turlarini yangilanishi, zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanishni nazarda tutuvchi sub'ekt sifatida namoyon bo'ladi. Bunday holatda tadbirkorning asosiy maqsadi maksimal foyda olish emas balki, uzoq vaqt davomida korxona faoliyatini moliyaviy va iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga qaratiladi¹¹.

Tadbirkorlikka O'zbekiston Respublikasi Qonunlari to'plamida unga quyidagicha ta'rif berilgan. "Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari tomonidan qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir"¹². Tadbirkorlikning iqtisodiy mohiyati yanada kengroq mazmunga ega.

G'arb mamlakatlarida tadbirkorlik o'ziga hos novatorlik, antibyurokratik xo'jalik yuritish tizimi sifatida tavsiflanadi. Tadbirkorlikning asosi yangi bozor imkoniyatlarini topish, innovatsiyalarga asoslanish, turli resurs manbalarini topish va foydalanish kabilarda o'z ifodasini topadi. Shu jarayonda biznes va tadbirkorlik o'rtasidagi farqqa to'xtalsak, biznes bu tadbirkorlikka nisbatan keng tushuncha, u qonun doirasida foyda olishga qaratilgan bo'lib, hattoki bir marotabalik savdo kelishuvi ham bo'lishi mumkin. Tadbirkorlik esa bozor talablarini shakllantirish va qondirishda yangi g'oya va yondashuvlarni qo'llagan holda doimiylik asosida faoliyat olib borishni ifodalaydi.

Har bir iqtisodiy sub'ekt jamiyat oldida hisobdor, shuningdek ijtimoiy javobgardir ham, tadbirkorlik sub'ektida ham ijtimoiy javobgarlik mavjud.

Har bir tadbirkorlik sub'ekti ishlab chiqarish samaradorligiga erishib, foyda olishni maqsad qiladi. Unga erishish uchun ruxsat etilgan (ba'zida esa ruxsat etilmagan) omil va vositalardan foydalanadi. Tadbirkorlik jamiyatda amal qilayotgan tizimni ya'ni, iste'molchilar, ishchilar, aksionerlar, mulkdorlar va

¹¹ Бушуева Е.Н. О социальных и экономических функциях современного предпринимательства. Текст научной статьи по специальности «Экономика и бизнес». <https://cyberleninka.ru/article/n/o-sotsialnyh-ekonomicheskikh-funktsiyah-sovremenennogo-predprinimatelstva>

¹² O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni 2 may 2012 yil, O'RQ-328-son. O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida (lex.uz).

ommaviy axborot vositalari va boshqalarning bir bo‘lagi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu tadbirkorlar iqtisodiy maqsad hamda yo‘nalishlarini jamiyat manfaatlari (iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va boshqalar) bilan moslashtirishi zarur bo‘ladi. Tadbirkorlik sub’ekti o‘zi faoliyat olib borayotgan jamoa va jamiyat oldida mas’uliyatlidir. Bu esa tadbirkor o‘zining mahsulot va mablag‘laridan ma’lum bir qismini, bevosita o‘zi yoki ijtimoiy fondlar orqali jamiyat ravnaqi va farovonligi uchun sarf etishini taqazo qiladi. Buning asosida tadbirkorlarning ijtimoiy mas’uliyati, ijtimoiy muammolarni hal etishda bevosita amaliy yoki moliyaviy yordam ko‘rsatishlarini nazarda tutadi.

AQSH, G‘arb mamlakatlari biznesmen va tadbirkorlari ixtiyoriy ravishda jamiyat hayotida ishtirok etish bo‘yicha juda ham ilg‘or sanaladi. Taniqli tadbirkor Dj.Rokfeller 550 million dollar xayriya qilib, xayriya fondini tashkil qilgan, B.Geyts Amerika kutubxonalarini kompyuterlashtirish uchun 200 million dollar va yana 200 million dollar kompyuterlarni dasturlash uchun ajratdi.

Tadbirkor va jamiyat manfaatlari bir-birlariga muvofiqligini ta’minlash zarur.

Tadbirkorlar iste’molchilar manfaatlariga e’tibor bergen holda sifatlari, hamyonbop tovar va xizmatlar ishlab chiqarishi kerak. Katta foydaga ega bo‘lish maqsadida sifatsiz tovar ishlab chiqarish, savdo belgilarini soxtalashtirish, reklama, tovar qadog‘ida ishonchsiz yoki to‘liqsiz ma’lumotlar berish, tovar sifatiga mos bo‘lmagan narxlarni belgilash kabilalar – qat’iy qonun, jarima sanksiyalari va jinoiy javobgarliklarga sabab bo‘ladi.

Tadbirkorlar mavjud cheklangan imkoniyat va resurslaridan samarali foydalanishga intiladilar, lekin ba’zida boshqa umumjamiyat resurslari hisoblangan daryo, yer va shunga o‘xshashlardan samarasiz yoki zarar yetkazish kabilarga yo‘l qo‘yishi mumkin. Ekoliya, atrof-muhitni ifloslantirishni oldini olish masalalarini hal etishni, davlat va ijtimoiy tashkilotlar o‘z zimmasiga olishi kerak.

Tadbirkorlik faoliyati daromadlar tabaqalanishiga, jamiyat a’zolarini boy va kambag‘alga bo‘linishiga sabab bo‘lishi mumkin. Tadbirkorlar foydani maksimallashtirish maqsadida ishlab chiqarish va ish haqi harajatlaridan tejashga xarakat qiladi – bu yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan holat. Mazkur holatda davlat mehnat

qonunchiligi asosida eng kam ish haqi me'yorini belgilash orqali muammoni hal qiladi.

Eng yuqori darajadagi foydaga ega bo'lish maqsadi tadbirkorlar tomonidan raqobatchilarni siqib chiqarish, bozorni kattaroq ulushini qo'lga kiritishga undaydi. Bu esa salbiy holatlarni keltirib chiqaradi, tovarlar taklifini qisqarishi, narxni oshishi, iste'molchilar tanlovini cheklanishlariga olib keladi. Monopol mavqega erishgan iqtisodiy sub'ekt tomonidan mahsulot sifatini oshirishga bo'lgan manfaatdorlikni mavjud emasligi, tovar va xizmatlarning sifati pasayishi sabab bo'ladi. Bu holat yuz berganda davlat antimonopol qonunchiligi asosida kichik biznes sub'ektlarini qo'llab-quvvatlaydi.

Ba'zida tadbirkorlar o'z foydasini o'ylab mamlakat manfaatlariga e'tibor qilmaydi, masalan, strategik tovarlarni qarshi tomonga yetkazib berishi, qimmatbaho xomashyolarni pasaytirilgan narxlarda olib chiqib ketishi kabilar. Bundan tashqari horijiy kapital, har doim ham u jalb etilgan mamlakat manfaatlariga, uni gullab-yashnashiga xizmat qilamaydi. Transmilliy korporatsiyalar u yoki bu mamlakatda faoliyat olib borib ularning qimmatbaho resurslarini ekspluatatsiya qiladi. Shu bilan birga foyda davlatdan tashqariga olib chiqib ketiladi, davlat esa iqtisodiy o'sish manbalaridan mahrum bo'ladi. O'z davlati manfaatini himoya qilish maqsadida, hukumat tashqi savdo va kapital xarakati bo'yicha ma'lum qoidalarni o'rnatadi, xususan, import va eksportga cheklov qo'yadi.

Yuqorida ta'kidlangan tadbirkorlikning ijtimoiy ma'suliyati tahlili asosida uning ijtimoiy xulqini namoyon bo'lishi quyidagi jadvalda o'z ifodasini topadi (1.1-jadval).

Tadbirkorlik ijtimoiy hulqini namoyon bo‘lishi¹³

Jamiyat va iste'molchilar talablari	Tadbirkorlarning ijtimoiy hulqi
Bozorlarga iste'molchilar uchun zarur bo‘lgan tovarlar va hizmatlar ishlab chiqarish.	Barqaror talabga ega tovarlar (mahsulot, xizmat, ish) ishlab chiqarish hajmini oshirish.
Tovar ishlab chiqaruvchilar tovarlari assortimentini ko‘paytirish.	Tovar bo‘yicha iste'molchilar talablari hisobini yuritish. Ishlab chiqarilayotgan tovarlar assortimenti va samaradorligi tahlili. Iste'molchilar uchun zarur bo‘lgan eng foydali tovarni tanlash.
Tovar sifatini oshirish.	Fan-texnika yutuqlarini tezlashtirilgan holda joriy qilish.
Tovar narxlarini pasaytirish.	Resurslarni tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqish va foydalanish.
Homashyo manbalari va energiya resurslaridan samarali foydalanish, atrof-muhit himoyasi.	
Tovar dizaynni yaxshilash.	Yangi dizaynni ishlab chiqish
Tovar servis xizmatlarini yaxshilash.	Ilg‘or tadbirkorlar tomonidan foydalanilayotgan tovar va iste'molchilarga ko‘rsatilayotgan servis xizmatlarini joriy qilish.
Ijro hokimiyati turli bo‘g‘inlari tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy dasturlarda ishtiroti.	Ishchilar va ularning oila-azolari ijtimoiy ta’minoti kabilarga o‘z daromadidan mablag‘lar yo‘naltirish.
Mamlakatda ishsizlik darajasini pasaytirish.	Mamlakat bo‘ylab o‘z korxonasi filiallarini ochish. Doimiy ravishda ishchilar malakasini oshirish.
Davlat mustahkamligi va budjet daromadlarini to‘ldirish.	Doimiy soliq to‘lash
Umum e’tirof etilgan qoidalarga amal qilish.	Tovar to‘g‘risida ishonchli ma’lumotni berish, iste'molchilar, jamiyat va atrof-muhitga zarar yetkazmaslik va b.

Tadbirkorlik faoliyati mazmuni va mohiyati uning funksiyalarida o‘z ifodasini topadi. Tadbirkorlik funksiyasi xususida ham ko‘plab yondashuvlar mavjud, biz ularni quyidagicha tartiblanishi, guruhlanishini maqsadga muvofiq deb bilamiz:

1. Iqtisodiy funksiya – iste'molchilar uchun tovar va xizmatlar ishlab chiqarish.
2. Innovatsion funksiya – ijodiy yondashuv, yangi g‘oyalarni shakllantirish va maqsadga erishish yangi vosita, omillarini, texnologiyalarni shakllantirish.

¹³ Ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

3. Resurs funksiyasi – iqtisodiy resurslar, ishlab chiqarish omillarini samarali birlashtirish.

4. Tashkiliy funksiya – korxona taktik va strategik yo‘nalishini belgilaydi va uning muvoffaqitli faoliyati uchun javobgar.

5. Ijtimoiy funksiya – har bir shaxsni tadbirkor bo‘la olishi va ish joylarini tashkil etish, yollanma ishchilarning turmush darajasini, ijtimoiy holatini yaxshilash.

Tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasiga biz qo‘yidagicha ta’rifni shakllantirdik, “Tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasi – tadbirkorlikning faoliyat belgi va tamoyillariga asoslangan holda jamiyat a’zolarining yetarli darajada turmush faoliyati hamda shaxsiy kamol topishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta’minalashga yo‘naltirilgan muntazam ravishda takror hosil qilinuvchi jarayon¹⁴.

Tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasini o‘rganish jarayonida uni yuzaga kelishi va amal qilishida mamlakatda hukm surayotgan ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar bilan bog‘liqligi ham tadqiq etilgan.

XX-asrning oxirlari davlat hamda jamiyatda erkinlik masalariga yangicha yondashuv shakllandı, dunyoda neoliberal konsepsiya ustuvor mavqega ega bo‘lib bordi, bu avvalo iqtisodiy va ijtimoiy sohalar erkinligi sifatida namoyon bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasini Mustaqil Davlat sifatida shakllanishi va rivojlanishiga ham ushbu konsepsiyaga asoslangan hozirgi zamon rivojlangan bozor iqtisodiyoti turtki berdi. Mamlakatimizda iqtisodiy ustivorlik, mulk erkinligi, tanlov erkinligi, faoliyat erkinligi kabilar ta’minlandi, lekin ba’zi kamchiliklarga ham yo‘l qo‘yildi. Ya’ni, hukumat tomonidan iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni hal etishda muvozanatlik va mutanosiblik masalalariga samarali yechimini topmaganligi “kambag‘allar sinfi”ni paydo bo‘lishiga olib keldi.

“Bir haqiqatni aniq tushunib olishimiz kerak: kambag‘allikni qisqartirish uchun birinchi navbatda ishsizlikni kamaytirish kerak. Avvalo, aholini zamonaviy kasb-hunarlargacha o‘qitish, ularning iqtisodiy va moliyaviy savodxonligini oshirish, odamlarda, ayniqsa ayollarimizda tadbirkorlikka ishtiyoqni uyg‘otish zarur”.¹⁵

¹⁴ Muallif ta’rifi.

¹⁵ Sh.Mirziyoev. Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagি nutqi- <https://xs.uz/uzkr/25973>

Har bir davrda davlatning ijtimoiy-iqtisodiy vazifalari muhim ahamiyat kasb etib kelgan va bu xususda ko‘plab qarashlar mavjud. Davlatning ijtimoiy vazifalarini o‘rganish, jamiyat duch kelayotgan muammolarni hal etishga imkon beradi, ya’ni ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy takliflar ilgari suriladi.

Hozirgi davrda tadbirkorlikni rivojlantirishda uning ijtimoiy funksiyalariga e’tibor qaratish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyalari ijtimoiy ahamiyatga molik masalalarni hal etishga yo‘naltirilganligi mamlakat iqtisodiyoti uchun yangicha yondashuv ekanligini ifodalaydi.

Tarixiy nuqtai-nazardan qaralganda insonlarni bir-birlariga doimo yordam bergenliklarini ko‘rishimiz mumkin, masalan, nochorlarga oziq-ovqat, kiyim-kechak, xalq uchun quduq qazitib suv chiqarish, yo‘llarni sozlash, ko‘priklar, ilm ahli uchun madrasalar qurish, nafaqlar ajratish kabilar. Bu ko‘rinishdagi ishlarni amalga oshirish daromad keltiruvchi faoliyat bilan shug‘ullanayotgan xunarmandlar, dehqonlar va boy qatlam o‘zlarining vazifasi va burchi sifatida qaragan.

Ko‘plab olimlar tadbirkorlikning ijtimoiy jihatlariga to‘xtalib o‘tganlar. Jumladan, A.Smitning fikriga ko‘ra, erkin bozor qonunlari tadbirkor manfatini jamiyat manfaatlariga moslashtirishga majbur qiladi. Ya’ni, tadbirkor zarur tovar va xizmatlarni kerakli miqdorda, kerakli sifatda, kerakli vaqtda va kerakli joyda ishlab chiqaradi.

D.Rikardo birinchilardan bo‘lib biznesning ijtimoiy javobgarlik masalasini shakllantirdi. Tadbirkorlik faoliyati natijasidan nafaqat alohida shaxs balki, jamiyat ham ma’lum darajada naf ko‘rishi zarurligini ta’kidlagan. Uning fikriga ko‘ra tadbirkorning maqsadi faqatgina foydani maksimallashtirish bo‘lmasligi kerak.

Tadbirkorlikning ijtimoiy vazifalari xususidagi ilmiy-nazariy fikrlarni tizimlashtirish **XIX** asrning boshlarida amalga oshirila boshlandi. Ushbu bosqich rivojlangan mamlakatlarda jamiyat ijtimoiy tarkibining murakkablashuvi, shuningdek, tadbirkorlik davlatni ichki siyosiy faoliyat yo‘nalishi sifatida namoyon

bo‘lishi bilan tavsiflanadi¹⁶. Tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasi masalasi ko‘pchilik tomonidan tan olinishi, uni rivojlanish jarayoni masalalarini o‘rganish esa, ular tomonidan o‘z faoliyati doirasida hal etayotgan ijtimoiy muammolar yalpi hajmini ortishi bilan, XX-asrning 80-90-yillariga kelib boshlandi¹⁷.

Bu davrda davlatning imkoniyatlarini cheklanganligi birinchi sabab sifatida ko‘rsatilsa, yana biri ijtimoiy muammolarning ortib borishi va keskinlashishi bilan ifodalanadi, bozor mexanizmi jamiyatning barcha ijtimoiy muammolarini samarali hal eta olmasligini ko‘rsatadi.

Devid Bornshteyn “Dunyoni qanday o‘zgartirish mumkin: Ijtimoiy tadbirkorlik va yangi g‘oyalar kuchi” nomli asarida tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasi tushunchasini paydo bo‘lishi xususida bir nechta omillarni olib beradi¹⁸:

- jamiyatda turmush farovonlikni ortishi, o‘rta mulkdorlarni shakllanishi va milliy boylikni ko‘payishi natijasida, tadbirkorlikni ijtimoiy funksiyasini qo‘llab-quvvatlashda foydalanilishi mumkin;

- demokratik g‘oyalar asosida shakllanayotgan davlatda ta’sir doirasidan tashqarida bo‘lgan ijtimoiy va ekologik muammolarni, fuqarolarga tartiblashga imkon beradi;

- informatsion tizimni rivojlanishi global ijtimoiy muammolar va ularning oqibatlari bo‘yicha jamiyatning habardorlik darajasini ortishiga imkon berdi;

- savodxonlik darajasini ortishi, kolledj darajasidagi insonlarni ko‘payishi turmush farovonligini o‘sishiga imkon berdi, shuningdek jamiyat yangiliklaridan tanishishlik darajasiga ham;

- ayollar va boshqa manfaatlari kamsitiladigan guruhlarni jamiyat hayotidagi faoliyatiga to‘sinqlik qiluvchi omillarni bartaraf bo‘lishi.

¹⁶ Плюхина, А. А. Условия развития социального предпринимательства в России / А. А. Плюхина // Вестник РГГУ. – 2014. – № 21 (143). – С. 114-119.

¹⁷ Плюхина, А. А. Развитие системы государственного регулирования и поддержки проектов в сфере социального предпринимательства. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва – 2018

¹⁸ Борнштейн, Д. Как изменить мир: Социальное предпринимательство и сила новых идей / пер. с англ. – М.: Альпина Паблишер, 2012. – 499 с.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashni, ijtimoiy muammolarni, tengsizlikni bartaraf etishning asosiy shartlaridan hisoblanadi.

O.N. Rudneva “tadbirkorlikni bir qancha funksiyalarini ajratib ko'rsatadi: novatorlik, tashkiliy, xujalik yuritish, ijtimoiy va shaxsiy. Tadbirkorlikni ijtimoiy funksiyasiga to'xtalarkan, jamiyat uchun zarur bo'lgan tovar va xizmatlar ishlab chiqarish, aholi bandligini ta'minlash, ishsizlik darajasini pasaytirish ekanligini ko'rsatib o'tgan. Shuningdek, tadbirkorlikni ijtimoiy funksiyalari yangi ijtimoiy guruhni (tadbirkorlar va biznesmenlar); o'rta mulkdorlar sinfini (iqtisodiy ta'minlangan insonlar); jamiyatni biznesga bo'lgan salbiy munosabatini ijobjiy tomonga o'zgartirish (ishchi va xizmatchilarga maqbul maosh to'lash, qulay mehnat sharoitini ta'minlash orqali)”¹⁹ kabi masalalarga to'xtalgan.

Iqtisodiy funksiyadan

- tovar va xizmatlar ishlab chiqarish va sotish orqali iqtisodiy imkoniyatlarni yaxshilash va foyda ko'rish.

Innovatsion funksiyadan

- yangi g'oyalar, texnologiyalar asosida tovar va xizmatlar ishlab chiqarish orqalo yanada ko'proq foyda ko'rish.

Ijtimoiy funksiyadan

- tadbirkorlikni rag'batlantirish, yangi ish o'rinlarini tashkil qilish, ishchi va xizmatchilarga maqbul maosh to'lash, qulay mehnat sharoitlarini ta'minlash orqali mehnat unumdorligini oshirish.

1.1-rasm. Tadbirkorlik funksiyalaridan ko'zlagan maqsadlar²⁰.

Biznesni ijtimoiy mas'uliyati, tadbirkorlikni ijtimoiy funksiyasini tadqiq etish va amaliyotda joriy etish asoschilaridan biri Nobel mukofoti sovrindori Muhammad Yunus hisoblanadi. U 1976 yilda Bangladeshda, kambag'al insonlarga o'zini-o'zi band qilish orqali iqtisodiy erkinlikni beruvchi mikrokreditni joriy qilgan Grameen

¹⁹ О.Н. Руднева. Организация предпринимательской деятельности в АПК: Краткий курс лекций / Сост.. – Саратов. – 2017. – 118 с.

²⁰ Ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

Bankga asos soldi. Keyinchalik ushbu tajriba dunyoning 58 ta mamlakatida joriy etildi.

Davlatning ijtimoiy holati, unda amal qilayotgan iqtisodiy jarayonlar hosilasi hisoblanadi va iqtisodiy rivojlanishga katta ta'sir qiladi. Shu bilan birga, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalar birgalikda tizimni shakllantirgan holda, birga samarali amal qilishi mamlakatni barqarorligini ta'minlaydi.

Davlat islohotlarni amalga oshirishda, avvalo jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiya va holatini yaxshi bilishiga asoslanishi kerak, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashabbus va mustaqilligi qo'llab-quvvatlashi muhim, aks holda davlatning islohotchilik mavqeい pasayadi.

1.2-§. Tadbirkorlik ijtimoiy funksiyasining xususiyatlari va asosiy tamoyillari

Biz ijtimoiy funksiya xususida to'htalanimizda birinchi navbatda davlatning ijtimoiy funksiyalarini ko'z oldimizga keltirib olishimiz, tadbirkorlikni ijtimoiy funksiyalari yo'nalishlariga aniqlik kiritishimizda yengillikni paydo qiladi. Davlatning ijtimoiy vazifalari o'zining mazmuniga ko'ra ko'p qirralidir. Uning eng muhimi mehnatga layoqatli insonlarni ish bilan band qilish, davlatni qo'llab-quvvatlashiga muhtoj bo'lganlarni ijtimoiy himoyalash, barcha insonlarga farovon hayot uchun teng imkoniyatlarni yaratib berishdan iborat.

Shuningdek, davlatning ijtimoiy funksiyalari ta'lim, fan, madaniyat, fuqarolar sog'ligini saqlash kabilarni qamrab oladi. Mazkur funksiya davlatning ichki funksiyalari tizimida muhim o'rinnegallaydi. Davlatning ijtimoiy huquqiy jamiyat qurishga bo'lgan intilishi ijtimoiy funksiya qismini yangi mazmun bilan boyishiga olib kelmoqda²¹.

Tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri, u tomonidan jamiyat uchun keltirilayotgan nafni o'lchab bo'lmaslidadir. Masalan, ishchilarga ko'rsatayotgan ijtimoiy yordam, sog'lom mehnat qilish muhiti, faoliyat

²¹ А.В.Толстиков. Социальная функция современного государства (cyberleninka.ru).

yuritayotgan hududda atrof-muhitni tozaligi, o‘g‘irlik va boshqa turdagи jinoyatlarni kamayishi va boshqalar. Bularni hisobga olish nafaqat murakkab balqi baxslidir.

Huquqiy davlat o‘z ijtimoiy siyosatini amalga oshirar ekan, u sog‘liqni saqlash, madaniy hordiq, ta’lim, qurilish, transport va aloqaga zaruriy mablag‘larni ajratishi kerak va ulardan har bir fuqaro foydalana olishlari muhimdir.

Mamlakatimiz ijtimoiy yo‘naltirilgan davlat sifatida namoyon bo‘lmoqda. Davlat tomonidan turli ijtimoiy dasturlar ishlab chiqilmoqda va ularni amalga oshirishga ustuvorlik berilmoqda. Yana shuni ta’kidlash kerakki, ushbu jarayonda davlat hokimiyati asosiy o‘ringa chiqib olgan, bu esa fuqarolik jamiyatni institutlarining jamiyat hayotida ijtimoiy ahamiyatini kuchayishiga to‘sinqinlikni yuzaga keltiradi.

Inqirozlarning davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatiga salbiy ta’siri natijasida iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik dastur hamda loyihalarni moliyalashtirish muammoga aylanadi. Bunday vaziyatlarda tadbirkorlarning xususiy investitsiya va tashabbuslari iqtisodiy-ijtimoiy muammolarni hal etishda asosiy yechim sifatida qaralishi mumkin.

Jumladan, 2008 yilda ro‘y bergen jahon moliyaviy inqirozidan so‘ng “impakt-investitsiya” nomi bilan qayta shakllantirish investitsiyasi paydo bo‘ldi. Uning asosiy maqsadlaridan biri bu foydadan tashqari, ijtimoiy sohaga, ekologiyaga ijobiy ta’sirga yo‘naltirilgan.

“Impakt-investitsiya” bozori 2009 yilda 50 milliard AQSH dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2019 yilga kelib uning hajmi 502 milliard AQSH dollarini tashkil etdi²². Bunday o‘sish biznesning ijtimoiy va ekologik masalalarga bo‘lgan e’tibori va xayrihohligi ortayotganligini ifodalaydi.

Bugungi kunda barcha ijtimoiy masalalar, jumladan, aholi salomatligi, jismoniy madaniyat va sport, ekologik va sanitар-epidemiologik dasturlar, asosan davlat tomonidan moliyalashtirilmoqda, bu albatta tahsinga loyiq. Lekin, 2020 yilda yuz bergen epidemiologik inqiroz “Kovid 2020” bu masalaga yangicha yondashuv


²² <https://plus-one.ru/sustainability/impakt-investirovanie>

zarurligini dolzARB masalaga aylantirdi. Ya’ni davlat ma’lum bir ijtimoiy funksiyalarini boshqa iqtisodiy sub’ektlarga o’tkazishi maqsadga muvofiq ekanligini ko’rsatdi.

Davlat tomonidan ijtimoiy sohaga yo‘naltirilayotgan mablag‘lar 2022 yil davlat budgeti mablag‘larining taxminan 95 trillion so‘mini tashkil qilmoqda²³.

Tadbirkorlik subyektlari tomonidan davlatning ijtimoiy funksiyalarini ma’lum bir qismini o‘z zimmalariga olishi, davlat tomonidan moliyaviy resurslarni yanada samarali sarflash bilan birga boshqa ijtimoiy yo‘nalish hamda dasturlarni moliyalashtirishga imkon beradi.

Tadbirkorlikni chuqur tadqiq etish asosida, davlatning ijtimoiy fuksiyalarini bir qismini boshqa sub’ektlar jumladan tadbirkorlik zimmasiga berish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz (1.2-rasm).



1.2-rasm. Davlatning ijtimoiy funksiyalarini tadbirkorlik sub’ektlariga qisman o’tkazilishi²⁴.

²³ 2022 yilgi Davlat budgetining dastlabki parametrlari ma’lum bo‘ldi (kun.uz).

²⁴ Muallif tomonidan tayyorlandi.

Mamlakatimizda ijtimoiy soha, tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasi muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bu xalqning turmush tarzi asosiy mezonidir. Avvallari kambag‘allik tushunchalari bizlarga yot bo‘lgan bo‘lsa, bugunga kelib, bu davlat tomonidan hal qilinishi zarur bo‘lgan asosiy muammolardan biriga aylangan.

Biz asosiy e’tibori foydaga qaratilgan an’anaviy tadbirkorlik bilan ijtimoiylikka ko‘proq e’tiborini yo‘naltirgan tadbirkorni bir-birlaridan keskin farqlamaymiz sababi har ikkalasi ham yangi ish joylarni tashkil etish, ishchilarga maqbul maosh to‘lash bilan ijtimoiy fuknsiyalarni amalga oshiradilar. Tadbirkorlar tomonidan ijtimoiy masalalarga, xususan, ijtimoiy funksiyaga ko‘proq e’tibor yo‘naltirgan tadbirkorlarning o‘ziga xos xususiyatlari, iqtisodiy (tovar va xizmatlar ishlab chiqarish orqali foyda olish), ijtimoiy (yangi ish joylarni tashkil etish, maqbul maosh to‘lash va b.) va ekologik (resurslardan samarali foydalanish, ekologik tartib-qoidalarga rioya etish) kabilarni o‘zida jam qilishidir. Bundan quyidagicha xulosa qilish mumkin, tadbirkor bir vaqtning o‘zida ham iqtisodiy ham ijtimoiy qiymat yaratadi.

Tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyalari mavjud masalalarga yangicha yondashuvni o‘zida mujassam etadi. Har bir mamlakatda ko‘plab ijtimoiy muammolar mavjud, ular: ishsizlik, qashshoqlik, bepul xizmatlar sonini qisqarishi, turmush darajasini pasayishi kabilar. Davlat tomonidan tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyalarini hisobga olgan holda ularni qo‘llab-quvvatlashlari, mazkur ijtimoiy muammolarni ijobiy tomonga o‘zgartirishga imkon beradi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ushbu yo‘nalishda yetarli tajribalari bo‘lmasada katta imkoniyatlari bor.

Doimiy ravishda mamlakat rivoji uchun tadbirkorlik, xususan ijtimoiy masalalarni ijobiy tomonga o‘zgartirish, hal etishga moyil tadbirkorlik zarur hisoblanadi, chunki u innovatsion yondashuvlar asosida iqtisodiy rivojlanishga hissa ko‘shish bilan birga avval foydalanilmagan resurslarni samarali ishga tushirishi mumkin. Bu kabi tadbirkorlar o‘z g‘oyalarini amalga oshirish, faoliyatini kengaytirish maqsadida investitsion riskni o‘z zimmasiga olishga tayyor bo‘lgan shaxs sifatida namoyon bo‘ladi.

Bizning mamlakatimizda tadbirkorlikning ijtimoiy yo‘naltirilganligi uzoq tariximizga borib taqaladi. Xalqni dehqonchilik qilishlari uchun suv inshootlarini qurish, savdoni rivoji uchun yo‘llar, karvon saroy, bozorlar bunyod etish, ilm olish uchun madrasa va maktablar barpo qilishlarni aytib o‘tishimiz mumkin. Bularning barchasi asosan boy dehqon, hunarmand, savdogarlar, bir so‘z bilan aytganda mahalliy tadbirkorlar tomonidan amalga oshirilgan. O‘lkani chor Rossiyasi tomonidan zabit etilishi, boy va ziyoli qatlamni surgun yoki qatl etilishlari nafaqat tadbirkorlikni ijtimoiy vazifalarini balki tadbirkorlikni yo‘q bo‘lishiga sabab bo‘ldi.

Kabanova Ye.E. fikriga ko‘ra, sobiq ittifoq davrida ijtimoiy masalalarni hal etishda noto‘g‘ri yo‘l bilan borildi, mavjud aholini ijtimoiy muammolari asosida emas balki, sinfiy bo‘lishlar orqali amalga oshirildi²⁵.

Mustaqillikka erishilgach mamlakatimizda tadbirkorlik yangicha ko‘rinishda shakllandi va rivojlanmoqda. Mulkchilik tizimidagi islohotlar tadbirkorlik va kichik biznes tashkil topishiga, xususiy sektorni shakllanishiga imkon berdi. Xususiy sektorni mavjudligi va rivojlanishi jamiyat uchun doimo manfaatlidir, chunki u ijtimoiy muammolarni hal etishda ishtirok etadi. Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashlar va arzon resurslar esa ularni yanada rivojlanish hamda kengayishlariga imkoniyat yaratadi. Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi tadbirkorlikni rivojlanishiga, mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi. Natijada barcha unsurlar bevosita yoki bilvosita tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasini rivojlanishiga shart-sharoitlar yaratadi.

A.A.Moskovskaning fikriga ko‘ra, MDH davlatlarida, g‘arb mamlakatlaridan farqli holda ijtimoiy tadbirkorlik “an’ana” tusiga kirmagan, bundan tashqari aholi ham bu haqda yetarli ma’lumotga ega emas²⁶. Shuningdek, mamlakatimizda ham tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasi yoki ijtimoiy tadbirkorlik bo‘yicha nafaqat aholi, balki tadbirkorlar ham yetarlicha ma’lumotga ega emas deb o‘ylaymiz.

²⁵ Кабанова Е.Е. Проблемы развития социальной инфраструктуры средних городов в современной России (на примере города Гусь - Хрустальный). Материалы Ивановских чтений. 2015. № 5. С. 29-34.

²⁶ Московская А.А. (ред.) Социальное предпринимательство в России и в мире: практика и исследования. М.: Изд. дом НИУ ВШЭ, 2011.

O‘zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlik bo‘yicha qonun xujjalalarini shakllantirish bo‘yicha ish olib borilmoqda. “Ijtimoiy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi QL-707-soni O‘zbekiston Respublikasi Qonuni loyihasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan 13 yanvar 2021 yilda muhokamaga qo‘yilgan²⁷ va shu yil 24 avgust 1306-IV-son qarori²⁸ bilan Senatga yuborilgan. 2021 yil 21 oktabr kuni Senatning 20-yalpi majlisida senatorlar «Ijtimoiy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi qonunni qayta ko‘rib chiqish kerak degan xulosaga keldi²⁹, ya’ni qayta ishslash taklif etildi.

Rossiya Fyederatsiyasida faoliyat yurituvchi barcha tadbirkor va korxonalarining faqatgina 1% ijtimoiy tadbirkorlik bilan shug‘ullanadi, ularning, ya’ni ijtimoiy yo‘naltirilgan loyihalarning 70% foyda keltiradi, 20% o‘z xarajatlarini o‘zi qoplash imkoniga ega, qolgan 10% esa zarar bilan ishlaydi.³⁰ Shuni ham ta’kidlash kerakki, horijiy mamlakatlarda ijtimoiy yo‘nalishda faoliyat yurituvchi tadbirkorlikning ulushi to‘rtadan-birni yoki umumiyligi tadbirkorlikning 25% tashkil qiladi³¹.

Dunyo mamlakatlari miqyosida ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda quyidagi modellar asosiy deb qaraladi: sotsial-demokratik, konservativ, liberal va lotin (katolik).

Sotsial-demokratik modelda asosiy e’tibor, fiskal siyosat orqali daromadlarni ijtimoiy qayta taqsimlanishi va bandlikka qaratiladi.

Konservativ modelda ham asosiy e’tibor bandlikka qaratiladi, lekin ijtimoiy qayta taqsimlashga ahamiyat berilmaydi.

Liberal modelda bandlikni ta’minalash darajasi past, lekin ijtimoiy qayta taqsimlash nisbatan yuqori.

²⁷ <https://lex.uz/docs/5288924>

²⁸ <https://lex.uz/docs/5626493>

²⁹ <https://www.gazeta.uz/uz/2021/10/21/debate/>

³⁰ Фонд региональных социальных программ «Наше будущее». [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://www.nb-fund.ru/about-us/media-about-us/utochnite-pozhaluysta.html>

³¹ Харченко А. А. Социальное предпринимательство в России. Бизнес-образование в экономике знаний: межд.науч.эл.журнал. Иркутск, № 3[11] 2018.

Lotin modelida bandlikka ham, ijtimoiy qayta taqsimlashga ham e'tibor past darajada.

Ko'rib o'tilgan modellar asosida, sotsial-demokratik va liberal modellarda qashshoqlik me'yor darajasida, konservativ va lotin modellarida uning darjasи ancha yuqori ekanligini aniqlash mumkin.

Davlatlarda amal qilayotgan ijtimoiy modellar asosida tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasi shakllanadi.

Shvetsiya, Finlyandiya, Daniya va Norvegiyada sotsial-demokratik model amal qiladi, ularda tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasi yangi ish joylarni shakllantirishdan iborat, qashshoqlik masalasi esa davlat tomonidan ajratiladigan ijtimoiy yordam hisobiga bartaraf etiladi.

Konservativ model, kontinental yevropacha va institutsional deb ham yuritiladi, Germaniya, Fransiya, Avstriya, Belgiya davlatlarida mazkur modelga amal qilinadi. Bu modelda qayta taqsimlash ahamiyatsiz, ishsiz aholi ijtimoiy himoya yoki ijtimoiy huquqga ega emas, ular asosan hayriyalarga bog'lanib qolgan, tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasi aholini ish bilan band qilish orqali ularni ijtimoiy sug'urta qilish masalasini ijobiy hal qiladi.

Amerika-Britan yo'nalishi hisoblangan, liberal modelda asosiy e'tiborni bozorga qaratadi, chunki unda insonlarning o'zaro munosabatlari shakllanadi. Bu jamiyat fuqarolari ijtimoiy himoyasiz yashab qolish qobiliyatiga ega bo'lishlari kerak, davlat aholi oldida cheklangan ijtimoiy ta'minotga mas'ul. Ushbu model asosan AQSH va Angliyada amal qiladi, ular ko'plab beg'araz va noodatiy yordamga tobedir. Shular sabab, bu davlatlar yuqorida ta'kidlab o'tkanimizdek, tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyalariga emas aksincha, ijtimoiy tadbirkorlikka asoslanadi.


Lotin (katolik) modelda inson o'ziga o'zi yordam berishi kerak, agar imkon bo'lmasa oilasidan yoki qarindoshlariga murojat qiladi. Keyingi instansiya bo'lib mahalliy jamiyat, qo'shnilariga murojaat qiladi, cherkov va tashkilotlardan yordam

so‘raydi. Bu ham bo‘lmasa sug‘urta xizmatlaridan foydalanadi, davlat sektori oxirgi instansiya bo‘lib hisoblanadi³².

Biz yuqorida tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasi xususiyatlari va turli ijtimoiy modellar sharoitida amal qilishi xususidagi fikr-mulohazalar asosida tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasi quyidagi tamoyillarga asoslanishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. Inson yoshi, mehnatining unumdoorligidan qat’iy nazar bir hilda qadrlanishi kerak, ya’ni ijtimoiy yordam barchaga tamoyili;
2. Ijtimoiy yordam doimiylik tamoyiliga ega bo‘lishi;
3. Ijtimoiy yordam barcha sharoitlarga moslashuvchan bo‘lishi, ishchilar ijtimoiy sharoitlarini tenglashtirishga yo‘naltirilishi.

Tadbirkor tomonidan ijtimoiy tamoyillarga amal qilinishi, ijtimoiy funksiyalarni bajarilishi ikkita muhim omillarga bog‘liq bo‘ladi. Bu omillar birinchidan, tadbirkor tomonidan foyda ko‘rishi, ikkinchi jihat, ijtimoiy maqsadni mavjudligi va amalga oshirilishi ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Ularning o‘zaro muvozanati tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasi mazmun-mohiyatini belgilaydi, uning asosida tadbirkorlikning ijtimoiy faoliyati belgilari shakllanadi (1.3-rasm).



1-rasm. Tadbirkorlik faoliyatida ijtimoiy funksiya belgilarini namoyon bo‘lishi³³

³² Калов З.А., Куршаева Ф.М., Хациева Л.У. Особенности реализации моделей социальной политики. – Современные проблемы науки и образования (сетевое издание) (science-education.ru)

³³ Muallif ishlanmasi

Tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasi barcha tadbirkor, biznes sub'ektlarining hayotiy g'oyasiga sifatida namoyon bo'lishi kerak. Sababi, tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasi o'zbek tadbirkori tomonidan o'zini anglash, imidjni shakllantirish, innovatsiya va maqsad sari intilishni o'zida ifodalaydi. Huddi shu yo'nalishdagi tadbirkorlar "Yangi O'zbekiston"da rivojlanishning yangicha modellarini ilgari sura oladilar.

Olib borilgan tahlillar tadbirkorlikni ijtimoiy funksiyalari bo'yicha o'ziga hos yondashuvni ilgari surishga imkon berdi.

Mazkur yo'nalish, tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasi bizning o'lkalarimizda avvaldan bo'lgan, ular boshqacha nomlar bilan ifodalangan bo'lishi mumkin, lekin ularni bunday yangi nom bilan yuritilishi ularni eski qobig'dan chiqib qamrov doirasini kengaytirish, yangi imkoniyatlarni vujudga keltirish orqali yangi yo'nalishlarni kashf etishga chorlaydi. Tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasiga e'tibor qilayotgan, o'z faoliyatining muhim yo'nalishi sifatida qarayotgan tadbirkorning o'ziga xos xususiyati shundaki, u faqat o'zini shaxsiy manfaati emas, balki ishchilari, faoliyat yuritayotgan hudud aholisi, butun jamiyatga foydasi tegayotganidan olayotgan mammunlik hissi, tadbirkorligini yanada rivojlantirishga chorlaydi.

Tadbirkorga u tomonidan amalga oshirayotgan ijtimoiy funksiya kuch beradi, unda yangidan-yangi shijoat, g'ayrat paydo bo'laveradi. Muammo oldida boshqa tadbirkorlar yengilayotgan vaqtda u yangi ruhiyat bilan muammoni yechishga xarakat qiladi.

Davlat va tadbirkorlik o'zaro samarali faoliyat yuritganda, aholi turmush sharoitlarini yaxshilash va muhtoj ijtimoiy guruhlarga yordam ko'rsatish imkoni paydo bo'ladi. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashlar tijorat tadbirkorligi sub'ektlarini, biznesni ijtimoiy funksiyalarni amalga oshirishga, ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatishga undovchi asosiy resurs hisoblanadi. O'z navbatida hal etiladigan ijtimoiy muammolar umumiy holda aholini, turli ijtimoiy guruhlarning turmush farovonligini ortishiga, mamlakatda umum iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga imkon beradi.

Hozirgi kunda tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan malakali ishchi va xodimlarni jalg qilish, ularni samarali mehnatini ta'minlash hamda mazkur korxonada ushlab qolish, ma'lum darajada muammo sifatida shakllanib ulgurdi. Ya'ni ba'zi ishchi – xodimlar oylik maoshi ko'proq bo'lgan korxonalarga ketib qolishlari yoki chet mamlakatlarga ko'proq maosh olish maqsadidagi ishchi migratsiyasi ko'paygan.

Tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan ishchilami mehnatga va ish joyiga bo'lgan munosabatlarini yaxshilash maqsadida "Ijtimoiy savat"ni joriy qilinishi ishchi-xodimlar qo'nimsizligini kamayishiga imkon beradi. Tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyalaridan yana biri bu ijtimoiy qadriyatlarni qayta shakllantirish, ishlab chiqarishni unutilgan usullarini qayta yo'lga qo'yish, insoniy munosabatlarni ustun qo'yish.

1.3-§. Tadbirkorlik ijtimoiy funksiyasining samaradorligini baholashning uslubiy asoslari

Tadbirkorlik faoliyatining samaradorligi oldiga qo'yilgan maqsadlariga erishganlik darjasini bilan baholanadi. Tadbirkor maqsadga erishish uchun insonlarni birlashtiradi, resurslarni jalg qiladi va ishlab chiqarish jarayonini amalga oshiradi.

Texnika taraqqiyoti davrida tadbirkorlar imkon darajasida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatlarini avtomatlashtirishga xarakat qiladi. Barcha korxonada ham avtomatlashtirish jarayonlarini amalga oshirib bo'limganligi sababli, korxonalar uchun ishchi va xizmatchilar dolzarb bo'lib qolaveradi. Bu jarayonda G.Emirsonning samaradorlikning 12 tamoyili o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Ya'na shuni ta'kidlash kerakki, ekspertlar fikrlariga ko'ra avtomatlashtirish korxona xarajatlarini tahminan 15% gacha kamaytirishi mumkin, lekin inson resurslari o'rnini to'liq egallay olmaydi.

Samaradorlik turli soha va yo'nalishlarda keng qo'llaniluvchi kategoriya hisoblanadi. Samaradorlik mehnat va boshqa unumdarlik ko'rsatkichlarini ishlab chiqarish bilan bog'langanligini, miqdoriy ko'rsatkich va omillar natijasida qabul

qilingan qarorlar natijalarini baholashga imkon beradi. Samaradorlik faqatgina baholovchi ko'rsatkich sifatida emas, balki turli omillar natijasida faoliyatni kengaytiruvchi hamdir. Samaradorlik ko'rsatkichidan inson faoliyatining barcha sohalarida foydalaniladi. Shu sabab bu terminga turlicha ta'riflar mavjud, ularning asosiy mazmuni faoliyat natijasida olingan daromadni harajatga nisbatini ifodalaydi.

Tadbirkorlik faoliyati samaradorligi quyidagi mezon asosida shakllanadi. U mazkur elementlardan tarkib topgan:

- innovatsiyalarni joriy qilish;
- mehnat sharoitlari sifati;
- mahsulot sifati;
- tejamkorlik;
- natija.

Tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini aniqlash analistik baholash va boshqaruv qarorlarini to'g'ri yoki noto'g'ri qabul qilinganligini ifodalab beradi. Tadbirkorlik faoliyati samaradorligini turlari bo'yicha iqtisodiy, ijtimoiy va moliyaviy larga ajratishimiz mumkin.

Tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy samaradorligi faoliyat natijasini xarajatga taqsimlash yo'li orqali amalga oshiriladi.

Odatda tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini aniqlashda quyidagi formuladan foydalanamiz.

$$S=F/X \cdot 100\%$$

Bu yerda, S – samaradorlik; F – foyda; X – xarajat.

Lekin ijtimoiy funksiya samaradorligini aniqlashda boshqacha yondashuv talab etiladi, sababi ijtimoiy naf bu iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida baholanmaydi. Masalan, yangi bir ishchi o'rnini yaratilishi tadbirkor uchun qancha samara olib keldi (qo'shimcha bir birlik resursni jalb etilishi samaradorligi), ikkinchi tomondan jamiyatda bir ishchi kuchini ish bilan bandligi davlatga qanchalik naf keltiradi.

Tadbirkorlikni ijtimoiy funksiyasining samaradorligini aniqlash murakkab jarayon hisoblanadi va unga turlicha yondashuvlar mavjud.

Tadbirkorlik faoliyatining ijtimoiy samaradorligi ishchi, mehnat jamoasi va jamiyatning ijtimoiy maqsadlari va ishlab chiqarish natijalarining mosligi bilan ifodalanadi. Ba]zi iqtisodchilar tadbirkorlik faoliyatining ijtimoiy samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlardan biri mehnat faoliyati samaradorligi sifatida qaraydi³⁴.

Sm.f. = Ich.m.q./ Ih o‘rt.

Bu erda: *Sm.f.* – mehnat faoliyati samaradorligi;

Ich.m.q. – ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati;

Ih o‘rt. – o‘rtacha yillik ish haqi.

Tadbirkorlik faoliyatining moliyaviy samaradorligi moliyaviy natijalarni umumiy xarajat va foydalanilgan resurslarga nisbati orqali aniqlanadi.

Samaradorlik turli mazmunda foydalilanadi, lekin G.Emirson yondashuviga ko‘ra albatta funksionallik sharti bajarilishi kerak. Bu o‘z navbatida, natijani xarajatga taqsimlash kabi samaradorlikni aniqlashdagi cheklangan munosabatni o‘zgarishiga imkon berdi.

1.3-jadval

G.Emirson samaradorlikning 12 tamoyili³⁵


1-tamoyil	Aniq ko‘ylgan maqsad yoki kompaniya maqsadlari
2-tamoyil	Sog‘lom muhit, fikr
3-tamoyil	Vakolatli maslahat (Kompenent konsultatsiya)
4-tamoyil	Tartib-intizom
5-tamoyil	Personalga nisbatan haqqoniy munosabat
6-tamoyil	Tez, ishonchli, to‘liq, aniq va doimiy hisob
7-tamoyil	Logistika (faoliyatni koordinatsiyalash, dispecherlik)
8-tamoyil	Me’yor va jadval (mehnat faoliyati bo‘yicha)
9-tamoyil	Mehnat sharoitlarni me’yorlashtirish (mehnat qilish, xavfsizlik qoidalari)
10-tamoyil	Jarayonlarni me’yorlashtirish (vaqt, xarajat)
11-tamoyil	Standart yozma instruksiyani mavjudligi
12-tamoyil	Mehnat unumdarligini rag‘batlantirish

³⁴ Кан Ен Да. Подходы и методы оценки эффективности деятельности предприятия. Economy and Business. - cyberleninka.ru.

³⁵ Harrington Emerson - The Twelve Principles of Efficiency - маълумотлар асосида муаллиф томонидан тайёрланди.

G.Emirson tamoyillariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, tadbirkorlik faoliyatining samaradorligi bevosita ijtimoiy omillarga bog'liqligini ko'rishimiz mumkin.

Mazkur baholash ijtimoiy funksiya samarasini monetar ko'rinishda to'liq ko'rsatib bera olmaydi, lekin foydalanish mumkin bo'lgan qiymat ko'rsatkichlarida hisobga olish imkonini beradi (1.4-rasm).



1.4-rasm. Ijtimoiy natijalar va samaradorlik turlari zanjiri³⁶.

Qiymat birliklarida o'lchash va aks etishi mumkin bo'lgan ijtimoiy natijalar (outcomes) va faoliyatning ijtimoiy samaralari (impacts), quyidagicha ijtimoiy o'zgarishlar shaklida ifodalanishi mumkin:

- Faoliyat natijasida kelajakda ishchi va uning oilasining daromadlarini ortishi yoki xarajatlar tejalishi;
- Tadbirkorlik korxonasida faoliyat olib borayotgan ishchilar ijtimoiy hayotidagi o'zgarishlar natijasida jamiyatning boshqa vakillari daromad va harajatlaridagi o'zgarishlar;

³⁶ Е.И. Андреева, И.Д. Горшкова, А.С. Ковалевская Рекомендации по оценке социально-экономической эффективности социальных программ. Определения, подходы, практический опыт /— М.: Издательство «Проспект», 2014. - 72 с.

- Fuqarolarning ma'lum guruhlari davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga bo'lgan extiyojlarini qisqarishi natijasida ijtimoiy resurslarni tejalishi;

- Tadbirkorlik korxonalarida bandlik va mehnat unumdorligini ortishi natijasida ijtimoiy daromadni ko'payishi.

Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni baholashda, samaradorlikni mazkur turlarini boshqa turlardan ajratgan holda tadqiq etish maqsadga muvofiq³⁷.

P.Druker o'z asarida samaradorlikka bo'lgan yondashuv o'zgarganini ta'kidlab o'tadi. Bunda u samaradorlik transformatsiyaga uchrab hozirgi davrga hamohang tarzda ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya ekanligini ifodalaydi³⁸.

Hozirgi kunda korxonani barqaror rivojlanishini birgina iqtisodiy samaradorlikka bog'lab bo'lmaydi, chunki uning barqarorligiga ko'plab omillar ta'sir ko'rsatishi namoyon bo'lmoqda. Ular, faoliyati jarayonida biznes hamkorlar bilan o'zaro munosabatlar, atrof-muhit va ekologiyani musaffoligi, ijtimoiy yo'nalishda olib borayotgan ishlari samaradorligi kabilar.

Ijtimoiy samaradorlikni aniqlash murakkab jarayon. Faoliyat natijasidagi ijtimoiy samaradorlikni hisobga olishda, baholashda mazkur faoliyatning o'ziga hos jihatlarini qabul qilish, tushunishga bog'liq. Tadbirkorni ijtimoiy javobgarligi sifatida, uning o'z ishchi-xodimlari bilan munosabatni yaxshilashi, kengroq ko'lamda qaralganda mahalliy, hududiy aholi bilan munosabatlarning o'ziga hos jihatlari va hayriyalariga e'tibor qaratish mumkin.

Biz ijtimoiy mas'ul bo'lgan barcha sub'ektlar nuqtai-nazaridan o'rganib chiqamiz³⁹.

³⁷ Е.И. Андреева, И.Д. Горшкова, А.С. Ковалевская Рекомендации по оценке социально-экономической эффективности социальных программ. Определения, подходы, практический опыт /— М.: Издательство «Проспект», 2014. — 72 с.

³⁸ Н.А.Голубева Оценка эффективности социально ответственной деятельности предприятия – (cyberleninka.ru)

³⁹ Н.А.Голубева Оценка эффективности социально ответственной деятельности предприятия – [Оценка эффективности социально ответственной деятельности предприятия \(cyberleninka.ru\)](#)

$S_{ijt.samara} = K_{ishchilar oldidagi ma'suliyat} + K_{xudud rivoj. qo'shgan hissasi}$

Bu yerda,

$S_{ijt.samara}$ – tadbirkorlik ijtimoiy funksiyasining samaradorligi;

$K_{ishchilar oldidagi ma'suliyat}$ – tadbirkorning o'z ishchilari oldidagi ma'suliyati ko'rsatkichi;

$K_{xudud rivoj. qo'shgan hissasi}$ – tadbirkorlik faoliyati natijasida mahalliy jamiyatning rivojlanishiga ko'shgan hissasini tavsiflovchi ko'rsatkich.

Tadbirkorlik ijtimoiy samaradorlik ko'rsatkichini aniqlashda birinchi navbatda tadbirkor tomonidan ishchi-xodimlarni samarali mehnat faoliyatini amalga oshirishlari uchun mehnat qilish, hordiq chiqarish kabi sharoitlarni tashkil qilganligi ahamiyatlidir. Shu bilan birga tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilayotgan mahalla, hududda yashovchi fuqarolarga keltirilayotgan naf, mahalla infratuzilmasini rivojlanishiga qo'shayotgan hissasi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadbirkorni ishchilar oldidagi ma'suliyati ko'p omillarga bog'liq, lekin biz ularning ichida bevosita mehnat faoliylari va uning turmush sharoitiga tegishlilarini aniqlab oldik. Tadbirkor raqobatbardosh tovar va xizmatlar ishlab chiqarishi uchun malakali ishchi – xodimlarni ishga yollashi darkor. Bundan tashqari zamon bilan hamohang tarzda ularni malakasini oshirish maqsadida o'qitishni tashkil etishi, mehnat unumdorligini, tadbirkorlik faoliyati samaradorligini o'sishini ta'minlashiga imkon beradi.

Mehnat unumdorligi, ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlash uchun bevosita malakali ishchilarga ehtiyoj katta, ehtiyojni qondirish uchun esa, birinchi navbatda albatta malakali ishchilarni ishga jalb etish zarur. Ikkinci yo'li esa faoliyat yuritayotgan ishchilar malakasini oshirish hisoblanadi. Ichki o'qitish deganda tadbirkorlik sub'ekti tomonidan, o'z korxonasida ustoz-shogird tizimini joriy qilishi, mutaxassisni jalb qilib korxonaning o'zida o'quv jarayonlarni tashkil qilishi ifodalaydi. Tashqi o'qitishni kurslarda, maktablarda, kollejlarda va OTMda o'qiganlarga ajratish mumkin.

Ishchilarni ijtimoiy himoyalash muhim ahamiyat kasb etadi, ularda kasb kasalligini paydo bo'lishi, bevosita mehnat unumdorligi, tovar va xizmatlar sifatiga, umumiyl holatda samaradorlikka salbiy ta'sir qiladi. Ushbu holatni oldini olish

maqsadida kasb kasalligi koefitsiyentini bilish, kasallikni oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonni amalga oshirish tadbirkorning ijtimoiy funksiyasidagi asosiy jarayonlardan hisoblanadi.

Ishchilarning asosiy maqsadi mehnat qilib ma'lum bir miqdorda ish haqiga ega bo'lishni nazarda tutadi. Olayotgan ish haqlari ishchilar ehtiyojlarini qondirishga, hayotiy vositalarni haridini qoplashga yetarli bo'lishi, ishchilar hayot sifatini ortishiga imkon beradi.

Tadbirkor faoliyatining samaradorligiga yollangan ishchilar tomonidan olinayotgan ish haqlari miqdori, tadbirkor tomonidan ko'rsatilayotgan ijtimoiy yordam muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ishchining olayotgan ish haqi va moddiy, ma'naviy ko'mak bevosita mehnat unumdorligiga ta'sir qiladi.

Tadbirkor o'z ishchi hodimlariga nisbatan ma'suliyatlilik jihatidan munosabatni baholashda quyidacha yondashuvni amalga oshirishi mumkin:

- Mehnatdan qoniqish, buni davr boshiga ishdan bo'shashlar nisbati orqali baholash mumkin;
- Ijtimoiy savatcha bilan ta'minlanganlik;
- Sog'liqni tiklash maskanlarida davolanish va dam olishni yengilligi;
- Hodimlar karerasini o'sishi darajasini kafolatlanganligi;
- Ishchilar farzandlariga bog'chalarni tashkil etilishi;
- Nafaqadagilarga moddiy yordam ko'rsatilishi va hokazo.

Ijtimoiy samaradorlik iqtisodiy va statistik hisobot ma'lumotlari hamda so'rvnomalar natijalariga asoslanadi.

Ijtimoiy samaradorlikni aniqlashda an'anaviy metodikaga asoslangan holda (K_s) aniqlanadi, u esa ko'plab ijtimoiy omillar, ijtimoiy loyihani amalga oshirish, ijtimoiy korxona samardorligi, ijtimoiy rentabellik kabi omillarga bog'liq, ya'ni (K_{1-n}) ko'rinishida.

$$K_s = K_1 * i_1 + K_2 * i_2 + K_3 * i_3 + K_4 * i_4 + \dots + K_n * i_n,$$

Bu yerda, $i_{1-4, n}$ – koeffitsiyent mazmuni.

Ijtimoiy samaradorlikni aniqlashning ko‘rib chiqilgan yondashuvidan tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan ijtimoiy yo‘nalishda amalga oshiriladigan loyiha va faoliyati davomida foydalanilishi mumkin.

Umumiy holda ijtimoiy samaradorlikni o‘lchash yoki baholashda ushbu jarayonning bevosita ishtirokchisi, aloqador sub’ekt va jamiyatda aholining turmush darajasini ko‘tarilishi, sifat jihatidan yaxshilanishi kabi natija va samaralar hisobga olinadi.

Tadbirkorlikning ijtimoiy samaradorligini ob’yektiv hisoblash murakkab jarayon bo‘lib, u miqdoran (pulda) ifodalanishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy natija hamda tadbirkor oladigan nomoddiy tavsifdagi naf yig‘indisining mazkur ijtimoiy maqsadlarga yo‘naltiriligan sarflar (pul mablag‘lari) nisbati sifatida namoyon bo‘lishi mumkin⁴⁰:

$$I_s = \frac{I_n + N_n \times k}{I_m}$$

bu yerda:

I_s – tadbirkorlik faoliyatining ijtimoiy samaradorligi;

I_n – faoliyat ta’sirida oilingan ijtimoiy natijaning puldagi ifodasi;

N_n – nomoddiy tavsifdagi naf;

k – nomoddiy tavsifdagi nafni miqdoran (pulda) ifodalash koeffisienti;

I_m – ijtimoiy maqsadlarga yo‘naltirilgan mablag‘.

Tadbirkor tamonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy funksiyalar natijalarini raqamlar orqali bilib turishi, hisobotlar jarayonida ishchi – xodimlar va mahalliy hokimiyat vakillarining xabardorligi tadbirkorlik sub’ektiga nisbatan ijobiy munosabat, uning mehnatini qadrlash, imidjini shakllanishiga xizmat qiladi.

Tadbirkorlik sub’ektlarining ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki va ularning samaradorligi avvalo ular tomonidan YAIM, tarmoqlar hamda bandlikni ta’minlashdagi ulushi bilan baholanadi (1.4-jadval).

⁴⁰ Muallif ishlanmalari asosida Ijtimoiy samaradorlikni aniqlash formulasasi.

1.4-jadval.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi ulushi⁴¹, (% foizda).

Ko‘rsatkichlar	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
YAIM	60,8	61,9	60,8	60,9	61,9	64,6	66,8	65,3	62,4	56,0	55,7	54,9
Sanoat	26,6	28,6	29,7	33,0	36,8	40,6	45,3	41,2	37,4	25,8	27,9	27,0
Qurilish	52,5	67,6	70,0	70,6	69,5	66,7	66,9	64,8	73,2	75,8	72,5	72,4
Bandlik	74,3	75,1	75,6	76,7	77,6	77,9	78,2	78,0	76,3	76,2	74,5	74,4

Jadval ma'lumotlariga e'tibor qaratasak kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni YaIMdagi ulushi barqaror 50% dan yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin, sanoatdagi ulushi esa 2021 yilga kelib 27% ni tashkil qildi bu avvalgi yillarga nisbatan sanoat tarmog‘ida ulushini pasayganini namoyon etmoqda. Qurilishdagi ulushi 72,4%ni tashkil qilgan, bandlikni ta'minlashda esa ahamiyatli salmog‘ni ya’ni 74,4%ni tashkil etmoqda. Mazkur jadval ma'lumotlari davomi sifatida keyingi (1.5-jadvalimizda) kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ijtimoiy funksiyalarini samarali amal qilishini tarmoqlar va bandlikni ta'minlashdagi miqdoriy ko‘rsatkichlari bilan tanishib chiqamiz.

1.5-jadval.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi asosiy ko‘rsatkichlari⁴²

Ko‘rsatkichlar	Sanoat (mlrd.so‘m)	Qurilish (mlrd.so‘m)	Savdo (mlrd.so‘m)	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi (mlrd.so‘m)	Xizmatlar (mlrd.so‘m)	Bandlik (ming kishi)
2010	10132,9	4163,2	18616,1	31900,4	15214,1	8643,9
2011	13586,8	6188,3	24741,9	46704,5	19556,5	8950,7
2012	17114,6	7925,5	32242,9	56926,6	24841,8	9239,7
2013	23312,0	10377,7	40564,5	67510,7	31409,1	9604,0
2014	30907,0	13944,9	50197,8	82957,2	40187,9	9950,8
2015	39643,5	16954,0	61972,3	101197,5	47269,6	10170,4
2016	50654,5	19671,0	78935,6	118011,4	61346,2	10397,5
2017	61367,8	22469,4	92973,0	152010,5	69212,7	10541,5
2018	87962,0	37451,7	114896,4	191759,2	84433,4	10128,8
2019	83344,2	53960,9	138920,7	219466,9	103106,6	10318,9
2020	103020,8	63866,6	164106,1	253238,2	114052,7	9865,7
2021	121719,2	77762,0	204787,4	307280,2	144812,7	10070,7

⁴¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Statistika agentligi (stat.uz) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

⁴² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Statistika agentligi (stat.uz) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Jadval ma'lumotlaridan 2010-2021 yillar davomida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barcha tarmoqlardagi ulushi miqdoran ortib borayotganligini ko'rishimiz mumkin. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ishtirokida eng yuqori daromad yaratilayotgan tarmoq, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'i bo'lib, 2021 yilda uning hajmi 307280,2 milliard so'mni tashkil qilgan, shuningdek, savdo va xizmatlar tarmog'lari kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari faoliyati uchun qulay hisoblanadi va mos holda 24787,4 va 144812,7 milliard so'mni tashkil qildi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ishtirokidagi tarmoqlardan eng past ko'rsatkich qurilishda bo'lib, 77762,0 milliard so'mni tashkil etdi. Umumiy jihatga e'tibor qaratsak kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni iqtisodiyot tarmoqlaridagi hajmi barchasida o'sish tendensiyasini ifodalamoqda, ya'ni o'rtacha 20% o'sganligini ko'rishimiz mumkin. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikdagi bandlik darajasi ham pandemiya davridan avvalgi ko'rsatkichni egallash tomon intilmoda, ya'ni 2021 yilda 10070,7 ming kishini tashkil etib 2020 yilga nisbatan 2% o'sgan.

Birinchi bob bo'yicha xulosa

- tadbirkorlik sub'ekti o'zi faoliyat olib borayotgan jamoa va jamiyat oldida mas'uliyatlidir. Bu esa tadbirkorga o'zi ishlab chiqarayotgan mahsulot yoki faoliyati natijasida erishgan daromad va foydadan ma'lum bir mablag'larni ish haqi, soliq hamda hayriyalar ko'rinishida bevosita tadbirkorning o'zi yoki aholiga ijtimoiy yordam fondlar orqali jamiyat ravnaqi va farovonligi uchun sarf etishini taqazo qiladi;

- tadbirkorlik funksiyasi quyidagi ko'rinishda guruhlarinishi mumkin, avvalo iqtisodiy funksiya, u iste'molchilar uchun tovar va xizmatlar ishlab chiqarishni amalga oshiradi; keyingisi innovatsion funksiya, u yangi g'oyalarni shakllantirishga, shu bilan birga maqsadga erishishning yangi vosita, omil hamda texnologiyalarni shakllantiradi; uchinchisi resurs funksiyasi, iqtisodiy resurslar hamda ishlab chiqarish omillarini samarali birlashtirishni amalga oshirish; to'rtinchisi, tashkiliy funksiya, tadbirkorlik korxonani joriy va strategik yo'nalishini belgilaydi va uning muvoffaqiyatli faoliyati uchun javobgar hisoblanadi;

beshinchisi, ijtimoiy funksiya, har bir shaxsni tadbirkor bo‘la olishi va ish joylarini tashkil etish, yollanma ishchilarning turmush darajasini, ijtimoiy holatini yaxshilash;

- tadbirkorlikni ijtimoiy funksiyasini amaliy natijasi sifatida yangi tadbirkorlar ijtimoiy guruhini shakllantiradi, o‘rta mulkdorlar ya’ni, jamiyatda iqtisodiy ta’minlangan insonlar paydo bo‘ladi, ishchi va xizmatchilarga maqbul maosh to‘lash hamda qulay mehnat sharoitini ta’minlashi natijasida insonlarda, biznesga, tadbirkorlarga nisbatan salbiy munosabatini ijobiy tomonga o‘zgartirishga erishadi;

- tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasi o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bu u jamiyat uchun keltirayotgan nafni o‘lchab bo‘lmasligidadir. Masalan, ishchilariga ko‘rsatayotgan ijtimoiy yordam, sog‘lom mehnat qilish muhiti, faoliyat yuritayotgan hududda o‘g‘irlik va boshqa turdagi jinoyatlarni kamayishi, atrof-muhitni tozaligi kabilar.

2-BOB. O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK IJTIMOIY FUNKSIYASINING SAMARADORLIGI HOLATI

2.1-§. Tadbirkorlik sub'ektlarining aholi bandligini ta'minlashdagi ishtiroki

O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy farovonlikni ta'minlash, iqtisodiy o'sishga erishish, aholish turmush darajasi sifatini yaxshilash hukumatning asosiy vazifasi sifatida qaraladi. Mazkur vazifani bajarishda aholi bandligini ta'minlash dolzarb masala hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi bandligini ta'minlashni o'ziga xos ustunligi, bu iqtisodiy tanlov erkinligi va tadbirkorlikni mavjudligidir.

Tadbirkorlik faoliyatiga keng imkoniyatlarni berilishi, ko'pchilik insonlarni ushbu faoliyat turlari bilan band bo'lishi, shuningdek, tashkil qilingan tadbirkorlikka yollanib ishslash orqali ishsizlarni mehnat faoliyati bilan bandligini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasining "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Prezident Farmonining 29-maqсадида "Hududlarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha mavjud tuzilmalar faoliyatini takomillashtirish"⁴³ nazarda tutiladi.

Yuqorida ko'rib o'tilganidek, tadbirkorlikni ijtimoiy funksiyasining dastlabkisi, tadbirkorlik faoliyatiga layoqati bor insonlarni yakka tartibdagi tadbirkorlik, kichik biznes, oilaviy tadbirkorlik va tadbirkorlikni boshqa shakllarini tashkil etgan holda biznes bilan shug'ullanishlari nazarda tutiladi.

Tadbirkorlik ijtimoiy funksiyasining bosh maqsadi mamlakatda farovon ijtimoiy-iqtisodiy hayotni ta'minlashga qaratilgan. Bu maqsadga erishish ishsiz aholini bandligini, maqbul ish haqi va turmush tarzini ta'minlash bilan erishiladi.

Aholi bandligi mamlakatda mehnatga layoqatli insonlarni ish bilan band bo'lishini ifodalaydi. Farovonlikni asosiy tamoyillaridan biri aholi bandligini ta'minlashdan iborat ekan, ish bilan band bo'lмаган aholi tarkibiga kimlar kiradi - haq to'lanadigan ishga yoki ish haqi (mehnat daromadi) keltiradigan mashg'ulotga

⁴³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida". <https://lex.uz/docs/5841063>.

ega bo‘lmagan shaxslar⁴⁴. O‘zbekistonda mehnat resurslari sifatida, mehnat yoshidagi mehnatga layoqatli aholi va mehnat yoshidan kichik va katta bo‘lgan ish bilan band shaxslar hisoblanadi.

$$\mathbf{MR} = \mathbf{MLA} - \mathbf{O'N},$$

bunda:

MR - mehnat resurslari;

MLA - mehnat yoshidagi mehnatga layoqatli aholi;

O‘N - ishlayotgan o‘smirlar va nafaqadagilar.

Mamlakatimizda demografik o‘sish natijasida, mehnat resurslari soni ham ortib bormoqda. 2021 yil ma’lumotlariga ko‘ra O‘zbekistonda mehnat resurslari soni jami 19334,9 ming kishini tashkil etgan. Davlat statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, bu raqam 2010 yilga nisbatan 13,5 foizga, 2020 yilga nisbatan esa 0,9 foizga oshganligini ifodalaydi (2.1-jadval).

2.1-jadval.

O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha mehnat resurslari ko‘rsatkichi (ming kishi)⁴⁵


Hududlar	2010	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
O‘zbekiston Respublikasi	16726,0	18276,1	18488,9	18666,3	18829,6	18949,0	19158,2	19334,9
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	945,5	1026,6	1042,2	1054,6	1064,8	1063,0	1074,7	1066,1
Andijon	1561,2	1691,2	1709,1	1722,2	1733,3	1741,7	1754,8	1745,3
Buxoro	987,6	1055,8	1065,4	1073,1	1077,8	1081,0	1067,1	1072,3
Jizzax	652,1	734,7	746,1	756,2	765,7	764,1	773,8	782,6
Qashqadaryo	1493,4	1725,7	1758,1	1784,6	1806,8	1813,8	1809,8	1811,0
Navoiy	531,6	540,3	543,5	547,2	552,0	555,8	555,2	564,5
Namangan	1350,6	1515,0	1534,0	1549,5	1564,2	1573,9	1580,4	1586,1
Samarqand	1815,7	2033,6	2058,2	2079,6	2103,4	2117,1	2125,2	2122,0
Surxondaryo	1174,1	1379,2	1403,1	1423,9	1442,7	1456,9	1452,2	1464,6
Sirdaryo	420,7	464,0	470,2	475,2	480,5	484,5	485,0	489,4
Toshkent	1549,7	1609,6	1617,7	1623,9	1627,2	1607,3	1615,4	1622,5
Farg‘ona	1824,2	1996,5	2016,4	2031,1	2043,1	2052,1	2069,3	2083,9
Xorazm	900,4	969,8	986,7	1000,6	1013,4	1029,6	1044,8	1047,1
Toshkent.sh	1519,2	1534,1	1538,2	1544,6	1554,7	1608,2	1750,5	1877,5

⁴⁴ O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonuni, 20 oktyabr 2020 yil, O‘RQ-642-son.

⁴⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Statistika agentligi (stat.uz) ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

2.1-jadval ma'lumotlaridan 2021 yilda 2020 yilga nisbatan hududlar nuqtai-nazaridan tadqiq etilganda mehnat resurslariga umumiyl holda ko'paygan, eng yuqori o'sish Toshkent shahrida bo'lib 7% ni tashkil qilgan, lekin, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon va Samarqand viloyatlarida 0,2% - 0,8% gacha kamaygan.

Mamlakatimizda bandlik masalasini ijobiy hal etishda tadbirkorlik asosiy yechim ekanligini inobatga olib aholini, tashabbuskor insonlarni, yoshlarni tadbirkorlikka jalb etish mexanizmini ilgari surish maqsadga muvofiq (2.1-rasm).



2.1-rasm. Aholini tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish mexanizmi⁴⁶.

Mamlakatimiz aholsini tadbirkorlikka bo'lgan qiziqishlarini oshirish va ularni jalb qilish hamda daromad manbalarini kengaytirishga yo'naltirilgan "Har bir oila – tadbirkor", "Yoshlar – kelajagimiz" va boshqa ijtimoiy dasturlar bo'yicha jami 13 trillion so'mdan ko'p bo'lgan imtiyozli kreditlar ajratilib, 600 mingdan ortiq oilalar qamrab olindi"⁴⁷.

⁴⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori, 13 oktyabr 2020 yil, PQ-4862-son.

⁴⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori, 13 oktyabr 2020 yil, PQ-4862-son.

2022 yilda aholini tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish, o‘zini o‘zi band qilish va ish bilan ta’minlash bo‘yicha jami 2,2 trillion so‘mga (2,7 million AQSH dollar) yaqin summa subsidiya ajratilishi rejalashtirilgan⁴⁸.

O‘zbekistonda tadbirkorlikni kengaytirish, biznesni yo‘lga qo‘yish va amalga oshirishga qulay muhit tashkil qilish, ko‘plab to‘sıqlar va tartiblarni olib tashlash, pul mablag‘lari, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish sharoitlarini kengaytirish, shu bilan birga biznes uchun infratuzilmani takomillashtirish yuzasidan ko‘p ishlar amalga oshirilayapti.

Tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida hukumatimiz tomonidan 1500 ga yaqin farmon va qarorlar bilan imtiyoz va preferensiyalar berildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 13 oktabrdagi “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida”⁴⁹gi PQ-4862 sonli qarori aholini tadbirkorlikka yo‘naltirishni amalga oshiruvchi huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbekistonni rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida iqtisodiyotni liberallashtirish, davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk ustivorligini va huquqiy himoyasini ta’minlash, istiqbolli ahamiyatini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faolyatini rivojlantirishni rag‘batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirilishi o‘z ifodasini topgan.

Mamlakatimizda barcha hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirishning “mahallabay” ishlash tizimini joriy etish orqali har bir mahallalarning “o‘sish nuqtalari”ni aniqlash asosida anashu yo‘nalishda aholini kasb-hunarga o‘qitish, bandligini ta’minlash va tadbirkorlikka jalb etish orqali mavjud muammolarni hal etilmoqda, “drayver” loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha yangicha yondashuv shakllandi.

⁴⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 3 dekabr 2021 yil, PQ-31сон.

⁴⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori, 13 oktyabr 2020 yil, PQ-4862-son (lex.uz).

Shu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 5 avgustdagи “Mahallalarda tadbirkorlikni yanada qo‘llab-quvvatlash va tadbirkorlik sub’ektlari bilan aholi o‘rtasida kooperatsiyani rivojlantirishning qo‘srimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”⁵⁰gi PQ-5214-sonli qaroriga asosida, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi past, qo‘sni hududlardan ortda qolayotgan va ishsizlik darajasi baland bo‘lgan mahallalarda tadbirkorlikni yanada qo‘llab-quvvatlash hamda tadbirkorlik sub’ektlari va xonadonlar o‘rtasida iqtisodiy kooperatsion faoliyatni kengaytirish bo‘yicha aniq maqsadlar belgilab olingan. Bu borada “Mahallabay”, “xonadonbay” ishslash asosida iqtisodiy, ijtimoiy jihatdan ortda qolayotgan mahallalarda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash yuzasidan “Andijon tajribasi”ni respublikaning boshqa hududlariga ham tatbiq etish ilgari surildi. Tajribani amaliyotga joriy qilish uchun Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi iablag‘larini davlat ulushi mavjud bo‘lgan tijorat banklariga tasdiqlangan taqsimot asosida 100 million AQSH dollari ekvivalentidagi mablag‘lar 3 yillik imtiyozli davr bilan 7 yil muddatga 7 foiz stavkada ajratilishi belgilangan⁵¹.

Kichik biznes va tadbirkorlikni faoliyatlarini miqdorini ko‘paytirish, sifatini oshirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan tadbirlar, tadbirkorlik sub’ektlari sonini ortishiga imkon bermoqda (2.2-jadval). Bu o‘z navbatida mamlakatda ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish sohalarini yangi biznes ishtirokchilari, biznes turlari va yo‘nalishlarini shakllanishiga, shu bilan birga ijtimoiy muammo sanalgan ishsizlik va kambag‘allik masalalarini hal etishga imkon beradi.

⁵⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallalarda tadbirkorlikni yanada qo‘llab-quvvatlash va tadbirkorlik sub’ektlari bilan aholi o‘rtasida kooperatsiyani rivojlantirishning qo‘srimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 5 avgust 2021 yil, PQ-5214-son. (lex.uz)

⁵¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallalarda tadbirkorlikni yanada qo‘llab-quvvatlash va tadbirkorlik sub’ektlari bilan aholi o‘rtasida kooperatsiyani rivojlantirishning qo‘srimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 5 avgust 2021 yil, PQ-5214-son. (lex.uz)

2.2-jadval

Ro'yxatdan o'tgan kichik biznes va tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ma'lumot⁵²

Xududlar	2010	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
O'zbekiston Respublikasi	179693	221140	225998	225560	242379	276237	353921	436981
Qoraqalpog'iston Respublikasi	8282	10609	10617	10331	11076	12364	15050	18923
Andijon	16012	22802	23848	23063	21631	23978	28880	35795
Buxoro	12381	12420	12571	12594	13495	15700	20982	26097
Jizzax	5752	8625	9200	9065	10069	11845	14769	18661
Qashqadaryo	16998	17492	15890	14614	14969	16752	20921	26088
Navoiy	5738	6798	7089	6992	7788	9143	15511	19058
Namangan	11872	15122	15731	16055	16928	17944	22034	27314
Samarqand	13698	15096	15375	15389	17261	20669	27322	35022
Surxondaryo	11371	11344	10292	10159	10897	11670	15783	22670
Sirdaryo	5152	7072	7281	7668	8064	8947	11697	14256
Toshkent	14098	21741	23102	23088	25128	29390	38006	45935
Farg'ona	14295	18036	18775	18192	20502	23542	29599	37199
Xorazm	10368	10762	10737	10726	11345	12576	16282	20177
Toshkent.sh	33676	43221	45490	47624	53226	61717	77085	89786

Jadval ma'lumotlarida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan tadbirkorlik sub'ektlari ma'lumoti o'z ifodasini topgan. Respublika darajasida avvalgi davrga ya'ni 2010 yilga nisbatan 2021 yilda kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlari 143% ortgan, 2020 yilga nisbatan esa 23,4% ko'payib 436981 tani tashkil qilmoqda. Hududlar bo'yicha Toshkent shahri mutloq ustunlikka ega 89786 ta sub'ekt ro'yhatdan o'tgan, Toshkent, Farg'ona va Andijon viloyatlari 36-46 ming ko'rsatkichi bilan yuqorida o'rinn olgan. Sirdaryo, Jizzax, Navoiy viloyatlari 14-19 ming ko'rsatkichi bilan pastki pog'onani egallagan bo'lsada, 2020 yilga nisbatan o'rtacha 25% o'sganligini ko'rishimiz mumkin. Berilgan ma'lumotlar tahlilida hudud aholisi sonining salmog'ini hisobga olish zarur, shuningdek, pastki pog'onadagi viloyatlarda foydalanilmayotgan potensial yuqori ekanligini hisobga olish kerak.

⁵² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Statistika agentligi (stat.uz) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Jahon miqyosida intensiv rivojlanish kuzatilmoqda, bu esa malakali ishchilarga bo‘lgan ehtiyojni oshiradi. Mamlakatimizda ham aholini ish bilan ta’minlash, zamonaviy kasblarga o‘qitishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Doimiy daromad manbaiga ega bo‘lmaqan va ishsiz aholi, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarning ishtiyoqini o‘rganish orqali ularni mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan, zamonaviy kasb-hunar va tadbirkorlik ko‘nikmalariga tayyorlash kurslariga jalb etiladi.

“2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Prezident Farmonining 37-maqсадида “Har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o‘qish imkoniyatini yaratish. Kasbga o‘qitish ko‘lamini 2 baravar oshirib, jami 1 million nafar ishsiz fuqaroni kasb-hunarlarga o‘qitish va bu jarayonda nodavlat ta’lim muassasalarining ishtirokini 30 foizga yetkazish”⁵³ kerakligi nazarda tutilgan.

Kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslariga quyidagi toifadagi ish izlovchi fuqarolar yo‘naltiriladi:

- kasbi (mutaxassisligi) mavjud bo‘lmaqanlar;
- mavjud kasbiy ko‘nikmalariga mos maqbul ish yo‘qligi sababli kasbini (mutaxassislikni) o‘zgartirish istagida bo‘lganlar;
- kasbiy ko‘nikmalari mavjud bo‘lmaqanligi yoki yetarli bo‘lmaqanligi sababli, kasbiga (mutaxassisligiga) doir talablar o‘zgartirilganligi bois malaka oshirishi zarur bo‘lganlar;
- avvalgi kasbi (mutaxassisligi) bo‘yicha ish bajarish qobiliyatini yo‘qotgan fuqarolar.


Ihsiz fuqarolarni kasb-hunarga tayyorlash, zaruriy ko‘nikmalarni shakllantirish uchun talab etiladigan muddatga ko‘ra uzoq, o‘rta va qisqa muddatli shakllarda tashkil etilishi samarali natija beradi.

Kasb-hunarga o‘qitish quyidagi o‘quv muassasalarida amalga oshiriladi:

- mahalla kasb-hunarga o‘qitish maskanlarida;

⁵³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”. <https://lex.uz/docs/5841063>

- “Ishga marhamat” monomarkazlari va kasb-hunarga o‘qitish markazlarida;
- professional ta’lim tashkilotlarda;
- xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar tomonidan tashkil etilgan o‘quv markazi va bo‘linmalarida;
- davlat boshqaruvi organlari, xo‘jalik birlashmalarining malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimi tashkilotlari hamda ularning huzuridagi o‘quv markazlarida;
- ta’lim faoliyatini amalga oshirish bo‘yicha tegishli tartibda litsenziyaga ega bo‘lgan tashkilotlarda;
- shogirdlarga kasb o‘rgatish imkoniyatlari va “Hunarmand” uyushmasiga a’zo bo‘lgan hunarmandlarning “Usta-shogird” mакtablarida amalga oshiriladi.



2.2-rasm. 2018-2020 yillarda kasbga o‘qitish, qayta o‘qitish va malakasini oshirishga yuborilgan fuqarolar⁵⁴.

Ihsiz hamda ish izlovchi fuqarolarni kasb-hunarga o‘qitish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- kasb-hunarga ega bo‘lмаган ish bilan band bo‘lмаган aholini aniqlaydi;
- mavjud o‘quv maskanlari va kasblar bilan tanishtiradi;
- ishsizlarni mehnat organlariga yo‘llanma olish uchun yo‘naltiradi;

⁵⁴ “Mahallabay” ishslash tizimini tashkil etish bo‘yicha Hokim yordamchilari o‘quvi ma’lumotlaridan.

- ishsizlarni kasb hunarga va o‘qishga jalg etilishini nazorat qiladi;
- o‘qishni tamomlagan ishsizlar ishga joylashishini monitoring qiladi.

Bunda mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasblar aniqlanib, ishsiz, ehtiyojmand (*3 ta daftarga kiritilgan*) fuqarolarning kasb o‘rganishga ehtiyoji va istaklari aniqlanadi.

Hududdagi kasbga o‘qitishga mo‘ljallangan davlat yoki nodavlat kasb-hunar muassasasi bilan tanlov asosida shartnoma tuzadi.

Mehnat organi kasbga o‘qitish uchun ishsiz va ish qidirayotgan shaxslarga yo‘llanma beradi, o‘quv muassasasi o‘qishga qabul qilinganligi to‘g‘risida buyruq chiqaradi va kasb-hunarga o‘qitadi.

Kasb-hunarga o‘qitish kurs tashkil etish uchun o‘quv guruhlaridagi tinglovchilar soni 5 nafardan 20 nafargacha bo‘ladi.

Yakka (individual) tartibda ham amalga oshirilishi mumkin. Yakka tartibda o‘qitish turlariga milliy hunarmandchilik kasblariga “Usta-shogird” usulida o‘rgatish kiradi.

Kasbga tayyorlash muddati, odatda, 40 (qirq) haftadan oshmasligi kerak. Kasbga tayyorlash jarayoni malaka imtihoni topshirish bilan yakunlanadi. Kasbga o‘qitilgan shaxslarga ta’lim muassasasi va korxonalarning o‘quv bo‘linmalari tomonidan tegishli hujjat (guvohnoma, sertifikat yoki diplom) beriladi.

Mehnat organi tomonidan ishsiz deb e’tirof etilib kasbga o‘qitilgan shaxslarga mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 75 foizidan (*616 ming*) O‘zbekiston Respublikasida tarkib topgan o‘rtacha ish haqidan ortiq bo‘lmagan miqdorida stipendiya to‘lanadi.

Tadbirkorlik faoliyatini barqaror rivojlanishini ta’minlash, xususiy mulkni huquqiy himoyasini amalga oshirish hamda uning daxlsizligi kafolatlash mexanizmini takomillashtirish, tadbirkorlikni rivojlantirishdagi turli to‘siqlarni bartaraf olib tashlash, mamlakatimizda investitsiya va ishbilarmonlik muhitini barqarorligini yanada ko‘tarish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 5 oktabrdagi “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat

jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"⁵⁵gi PF-4848-sonli Farmonida O'zbekiston Respublikasi manfaatdor vazirliklar va idoralar mamlakatning eksport salohiyati o'sishini, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb etishni hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilarning tashqi bozorda raqobatbardoshligini oshirishni rag'batlantirish maqsadida valyuta kursi siyosatining ilg'or bozor mexanizmlaridan foydalanish hamda joriy etish belgilangan.

Keng ko'lamli imkoniyatlardan foydalangan holda respublika darajasida kichik biznes, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash, xotin-qizlar va yosh avlod tashabbuslari bo'yicha dasturlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimi samaradorligini oshirish, shuningdek, davlat ishtirokidagi tijorat banklarining ish uslublarini tubdan yaxshilash va bank xizmatlarining ommabopligini oshirish orqali aholining keng qatlamlari, kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik sub'ektlari bilan to'laqonli sherikchilik munosabatlarini o'rnatish talab etiladi.

Aholi uchun doimiy daromad manbaiga ega bo'lish, o'zini o'zi band qilib ishslash faoliyatini kengaytirish chora-tadbirlarini amalga oshirishda tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish istagi bo'lgan tashabbuskorlarni biznes asoslariga mahallalarda o'qitish samarali hisoblanadi. Mamlakatimiz aholisining ko'p qismining xonadonlarida tomorqa yerlari mavjud. Ulardan samarali foydalanish, daromadlilik darajasini ko'tarish, ishlab chiqarish jarayoni uchun zaruriy asbob-uskuna, xom ashyo bilan imtiyozli kreditlar asosida ta'minlash, ishlab chiqarilgan tovarlarni sotishga yordamlashish, sotuv jarayonlarini amalga oshirish uchun "yetakchi" tadbirkorlik sub'ektlarini biriktirish ham asosiy maqsadga eltuvchi samarali yondoshuvdir.

⁵⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni, 5 oktyabr 2016 yil, PF-4848-son (lex.uz).

Mazkur jarayonda yetakchi tadbirkorni ham rag‘batlantirish, unga biriktirilgan yangi tadbirkorlarga muntazam yordamni amalga oshirishi uchun moliyaviy, iqtisodiy institutlarni rag‘batlantirish metodini rivojlantirish darkor.

Har bir oilani tadbirkorlik bilan shug‘ullanishi va barqaror daromad manbaiga ega bo‘lishi uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida tijorat banklari tomonidan kreditlar ajratib kelingan. Bugungi kunga kelib oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida 884 mingta loyihalarga 20,5 trln. so‘m kreditlar ajratilgan.

2.3-jadval

Kichik biznes va xusususiy tadbirkorlikda band bo‘lganlar soni⁵⁶

(ming kishi)

№	Hududlar	2017	2018	2019	2020	2021
1.	O‘zbekiston Respublikasi	10541,5	10128,8	10318,9	9865,7	10080,6
2.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	486,0	532,8	532,9	524,9	521,6
3.	Andijon	1110,4	1035,3	1054,6	989,9	1020,0
4.	Buxoro	648,7	619,8	606,9	590,5	576,8
5.	Jizzax	378,7	384,5	427,2	418,7	434,1
6.	Qashqadaryo	973,9	965,8	958,1	914,1	943,7
7.	Navoiy	250,6	229,3	227,0	207,4	214,5
8.	Namangan	863,9	872,3	914,7	888,4	907,7
9.	Samarqand	1286,9	1216,1	1205,5	1158,4	1174,7
10.	Surxondaryo	802,6	781,0	814,9	770,3	785,5
11.	Sirdaryo	278,4	274,2	267,4	247,5	248,7
12.	Toshkent	968,5	898,8	897,8	833,3	853,3
13.	Farg‘ona	1229,3	1144,5	1185,0	1136,3	1164,7
14.	Xorazm	599,2	573,4	591,9	567,9	574,3
15.	Toshkent sh.	664,4	601,0	635,0	618,2	661,0

Jadval ma’lumotlariga e’tibor qaratsak, 2021 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sektorida bandlar soni jami 10080,6 ming kishini tashkil qilgan bu 2020 yilga nisbatan 214,9 ming kishiga ortganini ortganini, 2020 yilda esa 2019 yilga nisbatan 453,2 ming kishiga kamayganini ifodalaydi. Buni biz 2020 yilda o‘zining eng yuqori nuqtasiga chiqgan Kovid-2020 jahon pandemiyasi oqibati sifatida qarasak, 2021 yilda pandemiya oqibatlari sekin-asta ijobjiy yechimlarini topayotganini anglatadi. 2021 yilda hududlar kesimida ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sektorida bandlik darajasi avvalgi darajaga qarab intilayotganini

⁵⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Statistika agentligi (stat.uz) ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

ko‘rishimiz mumkin. Bu esa kichik biznes sub’ektlari tomonidan pandemiya davrida to‘planib qolgan ijtimoiy muammolarni hal etishga qo‘shayotgan hissasini ko‘rsatib beradi.

Hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida, yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslari, startap loyihalari va g‘oyalarini yanada qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan kredit resurlarini ajratilishida yordamlashish, mavjud imkoniyatlarni, bo‘sh turgan binolar, foydalanilmayotgan yer maydonlaridan samarali foydalanish orqali joylarda tadbirkorlik, investitsiyaviy va raqobat muhitini yaxshilash choralarini ko‘rish, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun to‘sinq bo‘layotgan (qurilish uchun ruxsat berish, turli xil faoliyatlar uchun litsenziya olish, bo‘sh bino va yer maydonlarini tadbirkorlik uchun ajratish, kommunikatsiya tizimlariga ulanish) muammolarni tezkorlik bilan hal etish, mahallalarda tadbirkorlik, investitsiyaviy va raqobat muhitini yaxshilash hamda “drayver” loyihalarni amalga oshirishlar ijobiy natijalarga olib kelib tadbirkoklik sektorini kengayishiga, shuningdek, ularda bandlar sonini ortishiga imkon yaratmoqda.

2.2-§. Aholi daromadlari va turmush farovonligini oshirishda kichik tadbirkorlikning roli

O‘zbekistonda iqtisodiy, ijtimoiy sohalarda olib borilayotgan islohotlarning barchasi inson manfaatlariga, aholini farovon hayot kechirishiga yo‘naltirilgan.

Aholi daromadlarini o‘sishi, ularning iqtisodiy imkoniyatini ortishi, ehtiyojlarni qondirilishiga imkon beradi. Aholi daromadlarining asosiy manbani bo‘lib ish haqi, mol-mulkdan keladigan ijara haqlari, divident, tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan foyda va boshqalar hisoblanadi.

Mamlakatimizda aholi daromadlarini oshirish bo‘yicha bo‘yicha chora-tadbirlar izchil amalga oshirilib bormoqda. Aholining minimal iste’mol xarajatlari qiymati e’lon qilish tizimi joriy etildi.

Minimal iste’mol xarajatlari miqdori 2021 yil narxlarida 440 ming so‘mni, 2022 yilda 498 ming so‘mni tashkil qildi.

Aholi daromadlari darajasini ko‘tarish har bir davlat uchun muhim jarayon hisoblanadi, unga erishish, maqsadni amalga oshirish yo‘llaridan biri insonlarni tadbirkorlikka bo‘lgan qiziqishlarini shakllantirish va ro‘yobga chiqarish hisoblanadi. Tadbirkorlikka bo‘lgan qiziqishni paydo bo‘lishi uchun insonlarni ruhlantirish, tadbirkorlik shijoatini shakllantirish muhim, ularni tadbirkorlikka jalb etgan holda qo‘nikma hosil qilish kerak, keyingi bosqich esa ular o‘z tadbirkorliklarini tashkil etishlari uchun moliyaviy, iqtisodiy vositalarni qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Mamlakatimizda tadbirkorlikka jalb etishni yangi “motivatsiya, ko‘nikma va moliyaviy ko‘mak” mexanizmi shakllandi. Mazkur mexanizm daromadni oshirishda asosiy omil hisoblangan insonning intilishini, o‘z kuchiga, mehnatiga tayanib, aniq maqsad sari ya’ni tadbirkorlikka bo‘lgan harakatni rag‘batlantirdi. 2021 yilda mahallalarda aholini kasb-hunarga o‘qitish bo‘yicha mingdan ziyod markazlar tashkil etildi. Bunda kasb-hunarga o‘qitilgan har bir shaxs uchun o‘quv markazlariga 1 million so‘mgacha subsidiya berilib, buning uchun budgetdan 100 milliard so‘m ajratiladi. Kasb-hunarga o‘qitish markazlarida o‘quv kurslarini tamomlab, o‘z biznesini boshlamoqchi bo‘lgan fuqarolarga asbob-uskuna xarid qilish uchun 7 million so‘mgacha subsidiyalar berildi.


Hududlarning imkoniyati va rivojlanish yo‘nalishidan kelib chiqib, dehqonchilik bilan shug‘ullanadigan oilalarga 10 sotixdan 1 gektargacha yer maydonlari ajratildi.

Daromadlarni oshirishda hududlar ijtimoiy infratuzilma ob’ektlari ichki yo‘llarini ta’mirlash, qayta ta’mirlash va saqlash, aholini, tadbirkorlik sub’ektlarini energiya bilan uzliksiz ta’minalash tizimini yaxshilashga alohida e’tibor qaratilishi turmush farovonligini ortishiga xizmat qiladi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari, tuman (shahar) hokimligi vakillari o‘z hududida daromadlarni oshirish bo‘yicha manzilli dastur ishlab chiqib, uning ijrosini ta’minalashlari xududlarda tadbirkorlikni kengayishiga asos bo‘ladi.

Kasanachilik tadbirkorligini rivojlantirish muhim o‘rin tutadi. Aholi daromadlarini oshirishda kasanachilikni subsidiyalash tamoyili asosida aholi

bandligini ta'minlash va daromadlarni oshirish mexanizmi joriy etildi (2.3-rasm).



2.3-rasm. Kasanachilikni subsidiyalash orqali aholi daromadlarini oshirish mexanizmi⁵⁷

Aholi daromadlarini oshirishda o'ziga xos mexanizm mavjud, u ham bo'lsa mahallarda, hududlarda tadbirkorlik sektori bilan bog'langan holda mahalla vakillari bo'sh ish o'rinalarini aniqlash va bandlikka yo'naltirishni yo'lga qo'yishidir. Bu jarayonda tadbirkorlar, mehnat organi bilan bog'lanib yoki internet saytlari orqali mavjud bo'sh ish o'rinalarini aniqlash, mahalladagi ishsiz fuqarolarga bo'sh ish o'rinalarini taklif etish, ishsizlarga maqbul kelgan ish o'rinalari bo'yicha mehnat organlaridan yo'llanma olish, bo'sh ish o'rinalariga band bo'limgan aholining ishga joylashishini nazorat qilish, ishsizlarning ishga joylashganligini monitoringini yurgizish.

Hozirgi kunda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining milliy vakansiyalar bazasi shakllangan bo'lib, mahalla hududidagi korxona, tashkilotlarda

⁵⁷ <https://lex.uz/docs/6389635> asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

bo'sh (vakant) ish o'rnlari va boshqa HR kompaniyalari veb saytlari mavjud. Ular: rabota.uz; hh.uz; ishko'p.uz; olx.uz; my.job.uz. kabi ish taklif qiluvchi saytlar shaklida faoliyat yuritadi.

Mamlakatimizda yangi tashkil etilgan hokim yordamchisi instituti ham tadbirkorlikni kengayishi, aholi turmush farovonligini ortishiga bo'vosita hizmat qiladi. Hokim yordamchisi avvalo mahallada tadbirkorlikni ko'paytirish, kengaytirishga xizmat qilish orqali ijtimoiy muammolardan hisoblangan ishsizlikni qisqartirish masalassini hal etish, aholi daromadlarini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, mahalladagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning mavsumiy ishchilarga bo'lgan talabini aniqlash orqali ishsizlarni, yoshlar va xotin-qizlarni ish haqi to'lanadigan jamoat ishlariga yo'naltiradi. Jamoat ishlarini tashkil etish muddati 1 oydan 6 oygacha davom etadi. Jamoat ishlari jamg'armasidan budjet tashkilotlariga 822 ming so'mdan 1,6 million so'mgacha to'liq to'lab berilishi hukumat tomonidan belgilangan.

Tadbirkorlik sub'ektlariga esa, ish haqining 50 foizini ya'ni 1,6 million so'mgacha qoplاب berilish orqali, doimiy daromad manbaiga ega bo'limgan va ishsiz aholining, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarning ishtiyoqini o'rgangan holda, ularni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'rgatuvchi o'quv markazlariga yo'naltiradi va o'qishni tamomlagan bitiruvchilarining bandligiga ko'maklashishga yordam beradi.

Aholi turmush sharoitlari, hayot darajasi va sifatini oshirish O'zbekiston Respublikasi hukumati oldida turgan ustivor vazifa sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu vazifani amalga oshirishda jamiyatda kambag'allik, ishsizlik, yuqori darajada tabaqalanish kabi muammolarni hal etish kerak. Mamlakatimizda 2020 yil ma'lumotlariga ko'ra aholining 10-15% yoki 5 millionga yaqini kambag'allikda turmush kechirmoqda.

Aholi daromadlarini oshirish yo'nalishlaridan biri bu kichik biznes, tadbirkorlik hisoblanadi. Xususan, kichik tadbirkorlik aholi daromadlarini oshishiga imkon beruvchi faoliyat hisoblanadi.

Mamlakatimizda aholi daromadlari tarkibida tadbirkorlik faoliyatidan keladigan daromad 2021 yilda 59,4% ni tashkil qildi. Hududlar bo'yicha mazkur ko'rsatkich 2.4 - jadvalda o'z ifodasini topgan.

Kichik biznes faoliyati bilan shug'ullanish aholi daromadlarini ko'paytirishga erishishda, turmush sharoitlari, darajasini yaxshilanishida ijtimoiy zina bo'lib xizmat qiladi. Tadbirkorlikni boshlash bo'yicha rag'bat va motivatsiya olgan inson, o'zi mustaqil ravishda ijtimoiy holatini, turmush sharoitini, sifatini yaxshilashga erishishi mumkin. Hukumatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash siyosati ishsizlik darajasini pasayishiga va aholi daromadlarini ortishiga imkon beradi.

2.4-jadval

Aholi umumiy daromadlari hajmida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarning ulushi⁵⁸ (% da)

№	Hududlar	2019 yil		2020 yil		2021 yil	
		Aholi real umum daromadi, mlrd.so'm	Kichik tadbirkor lik ulushi, %	Aholi real umum daromadi, mlrd.so'm	Kichik tadbirkor lik ulushi, %	Aholi real umum daromadi, mlrd.so'm	Kichik tadbirkor lik ulushi, %
1.	O'zbekiston Respublikasi	301 005,8	59,5	69 348,1	58	465 271,8	59,4
2.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	12 894,1	50,9	3 023,6	50,7	20 046,6	53,2
	<i>viloyatlar:</i>						
3.	Andijon	26 307,5	62,6	5 220,0	61,2	37 488,7	61,1
4.	Buxoro	21 239,2	65,6	4 403,9	65,4	31 775,0	65,4
5.	Jizzax	11 166,1	70,6	2 445,1	68,8	16 957,8	70,9
6.	Qashqadaryo	25 074,8	62,3	5 084,5	62,7	37 461,7	63,3
7.	Navoiy	14 170,1	53,1	3 302,8	51,9	22 446,0	56,5
8.	Namangan	19 432,1	63	4 158,7	62,2	29 725,4	62,9
9.	Samargand	30 156,3	63,9	6 987,5	62	46 156,0	62,1
10.	Surxondaryo	19 838,6	63,7	4 129,3	61,5	29 357,1	61,1
11.	Sirdaryo	6 756,2	61,6	1 540,8	60,3	10 016,3	61,6
12.	Toshkent	26 380,0	57,6	6 566,1	58,2	42 846,1	60,7
13.	Farg'ona	25 689,4	58,4	5 790,5	57	38 217,6	58,4
14.	Xorazm	17 486,1	63,2	3 704,1	63,1	26 701,0	62,7
15.	Toshkent sh.	44 524,1	48,3	12 973,5	44	75 517,0	48,6

Jadval ma'lumotlarida 2019-2021 yillarda aholining real umumiy daromadlari va unda kichik tadbirkorlikni ulushi foizlarda o'z ifodasini topgan. Mazkur ko'rsatkich Jizzax viloyatida 70,6-70,9 % lar bilan eng yuqori natijani ifodalaydi, Buxoro viloyati 65,6-65,4 % bilan keyingi pog'onada. Eng past ko'rsatkich

⁵⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Statistika agentligi (stat.uz) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Toshkent shahriga tegishli 48,3-48,6% ulushga ega. Kichik tadbirkorlikni aholining real umumiylaridagi ulushida umumiylaridagi ulushida umumiylaridagi holda Toshkent shahrida 2020 yilda 4% kamayishidan tashqari keskin o‘zgarishlarni ko‘rmaymiz. Lekin aholining real umumiylaridagi ulushida umumiylaridagi 2020 yilda 2019 yilga nisbatan keskin pasayish tendensiyasiga duch keldi ya’ni 434% ortiq pasaydi, albatta bunga jahonda yuz bergan, 2020 yilda eng cho‘qqisiga chiqqan pandemiya sabab bo‘ldi. 2021 yilga kelib mazkur ko‘rsatkich, pandemiya cheklarini olib tashlanishi va iqtisodiy faoliyat natijasida dastlabki holatdan ham o‘sdi. Boshqa yo‘nalish va sohalarni aholi real umumiylaridagi ulushi pasayib transfer to‘lovlar ortgan bo‘lsada tadbirkorlik sektori ulushi kamaymadidi.

2020 yil davlat tomonidan aholining salmoqli qismini qishloq joylarda istiqomat qilishini hisobga olib, ishsiz fuqarolarni bo‘sh yerlar, tomorqalardan samarali foydalanish asosida tadbirkorlikka yo‘naltirish uchun issiqxonalar o‘rnatish, urug‘lik, ko‘chat hamda sug‘orish vositalari sotib olishlari uchun subsidiyalar ajratilgan (2.5-jadval).

2.5-jadval Davlat tomonidan aholi tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash tadbirlari⁵⁹

№	Hudu d nomi	2020 yil yanvar-dekabr		shundan:					
				Issiqxona o‘rnatish uchun		Urug‘lik va ko‘chatsotib olish uchun		Sug‘orish vositasi sotib olish uchun	
		soni	summa (mln.so ‘m)	soni	summasi (mln.so ‘m)	soni	summasi (mln.so ‘m)	soni	summasi (mln.so ‘m)
	JAMI	35 557	109 516,7	27 535	98 968,3	3 854	3 240,5	4 168	7 307,9
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	3 320	9 251	2 701	8 389,5	197	14,0	422	847,8
2	Andijon	4 925	12 191	4 925	12 191,3	0	0,0	0	0,0
3	Buxoro	2 075	9 668	1 168	8 308,3	585	717,0	322	642,3
4	Jizzax	2 362	4 220	1 132	2 638,4	536	655,2	694	926,0
5	Qashqadaryo	1 929	5 722	872	4 406,0	558	441,7	499	874,3
6	Navoiy	2 128	4 758	1 068	4 025,5	725	173,0	335	559,1
7	Namangan	5 181	20 430	5 062	20 185,4	23	31,0	96	214,1
8	Samarqand	3 615	10 683	2 559	9 376,3	575	453,8	481	852,5
9	Surxondaryo	2 004	8 038	1 367	6 909,2	323	490,5	314	638,4
10	Sirdaryo	2 001	6 170	1 477	5 579,3	189	116,7	335	474,4
11	Toshkent	1 135	3 535	850	3 101,2	106	125,5	179	307,9
12	Farg‘ona	3 198	10 503	2 953	10 002,2	9	17,3	236	483,3
13	Xorazm	1 684	4 348	1 401	3 856,0	28	4,7	255	487,8

⁵⁹ Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ma’lumotlari.

Yuqoridagi jadvalda, 2020 yilda 35557 ta issiqxona qurish va uni faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun 109516,7 million so‘m mablag‘ yo‘naltirildi. Yo‘naltirilgan mablag‘ni eng katta qismi Namangan, Andijon va Samarqand viloyatlariga to‘g‘ri keldi 10683 – 20430 million so‘mgacha, eng kam mablag‘ Toshkent, Jizzax va Xorazm viloyatlariga ajratilgan 3535 – 4348 million so‘mgacha. Issiqxona qurish jarayonida hududlarning iqlimi, tuproq unumдорлиги va suv ta’minoti kabi omillar hisobga olingan.

Aholi daromadlari, turmush farovonligini ortishida tadbirkorlikning hissasi dunyo mamlakatlarida juda katta ko‘lamni qamrab oladi. Bu esa o‘z navbatida har bir davlatni, hukumatlarni tadbirkorlikni rivojlantirishga undaydi, ular tomonidan mazkur yo‘nalishni qo‘llab-quvvatlashlarni kuyidagi jadvalda ko‘rshimiz mumkin.

2.6-jadval.

Dunyo mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tadbirkorlikni salmog‘i⁶⁰

№	Davlatlar	Ko‘rsatkichlar		
		Kichik va o‘rta tadbirkorlik umumiyyaga nisbatan ulushi	Bandlar soni	Bandlikni umumiyyaga nisbatan ulushi
1.	Yaponiya ⁶¹	99,7%	32 mln	68,8%
2.	Xitoy ⁶²	140 mln	592 mln	78%
3.	Yevropa Ittifoqi ⁶³	99%	140 mln	64,4%
4.	AQSH ⁶⁴	99,9%	61,7 mln	46,4%
5.	Rossiya ⁶⁵	6,2 mln	19,3 mln	26,3%
6.	Kozog‘iston ⁶⁶	96,4%	3,6 mln	38,6%
7.	O‘zbekiston	436211	10,8 mln	74,5%

Jadvalda jahon mamlakatlari iqtisodiyotida tadbirkorlikni ulushi 95% dan ortiq ekanligini ko‘rshimiz mumkin, bu jarayonda yana shuni ham ta’kidlash kerak, mazkur davlatlarda kichik va o‘rta tadbirkorlik mezonlari turlicha bo‘lishi mumkin.

⁶⁰ Маълумотлар асосида муаллиф томонидан тайёрланди.

⁶¹ Японии Финансирование МСП и предпринимателей 2022: табло ОЭСР | Библиотека ОЭСР (oe.cd-ilibrary.org) маълумот 2016 йил учун берилган.

⁶² <https://www.oecd-ilibrary.org/sites/a3891ad8-en/index.html?itemId=/content/component/a3891ad8-en>, маълумот 2020 йил учун берилган.

⁶³ <https://ec.europa.eu/eurostat/web/products-eurostat-news/-/edn-20220627>, маълумот 2019 йил учун берилган.

⁶⁴ <https://www.oberlo.com/statistics/number-of-small-business-in-the-us>, маълумот 2022 йил учун берилган.

⁶⁵ www.oecd-ilibrary.org/sites/4034a9a8-en/index.html?itemId=/content/component/4034a9a8-en

⁶⁶ <https://www.oecd-ilibrary.org/sites/10a940b8-en/index.html?itemId=/content/component/10a940b8-en#section-d1e166260>, маълумот 2020 йил учун берилган.

Bandlikni ta'minlashda ham ahamiyatli salmoqni egallaydi. Bu ko'rsatkich Xitoyda 78%, O'zbekistonda 74,5%, Yaponiyada 68,8% ni tashkil qiladi, Qozog'istonda 38,6%, Rossiyada esa 26,3% lik ko'rsatkichga ega.

Jahon Banki ma'lumotlarida rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi 40 % atrofida tashkil etadi. 2030 yilga borib dunyoda aholisi 8,6 milliard kishiga yetadi, ularni turmush farovonligini taminlash uchun 600 million ishchi o'rinnariga talab paydo bo'ladi, kichik biznes va tadbirkorlik mazkur muammoni ijobiy hal etishda asosiy sub'ekt sifatida namoyon bo'ladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi asosiy muammolardan biri moliyalashtirish masalasi hisoblanadi. Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) ma'lumotlariga ko'ra rivojlanayotgan mamlakatlar miqyosida qonuniy ro'yxatdan o'tgan 65 million yoki 40% mikro, kichik va o'rta tadbirkorlik sub'ektlari 5,2 trillion AQSH dollariga bo'lgan moliyaviy extiyojlari qondirilmagan.

Bozor iqtisodiyotida tadbirkorlik ustivorlikni kasb etishi, mamlakatimizda uni rivojlantirish bo'yicha ko'p ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, samarali ijtimoiy-iqtisodiy siyosat natijasida iqtisodiyotning mazkur sektorini rivojlanishiga asos bo'luvchi keng ko'lami iqtisodiy yordam tizimi shakllantirish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashlarga erishildi. Tadbirkorlik va kichik biznesni tashkil qilish va rivojlantirishga imkon beruvchi institutlar, infratuzilma shakllanib ulgurdi. Ular tadbirkorlikni rivojlantirish uchun turli xizmatlar ko'rsatmoqda va yangi turdag'i xizmatlarni taklif etmoqda. Mazkur xizmatlarni ko'rsatish va tadbirlarni amalga oshirayotgan institutlar hukumatimiz tomonidan doimiy ravishda moliyaviy qo'llab-quvvatlanmoqda.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini, ularga doir Davlat dasturlarini moliyalashtirish bo'yicha "Xalq bank"i, "Mikrokredit bank"i va "Agrobank"lar hukumat qaroriga asosan donor banklar qilib belgilangan. Ya'ni, davlat tomonidan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, kengaytirishga

yo‘naltirilgan dasturlarni moliyalashtirish maqsadida ajratilgan mablag‘larni Markaziy bank mazkur banklarga yo‘naltiradi.

Xotin-qizlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash uchun “Mikrokreditbank”, “Agrobank” va “Xalq bank”lari orqali BXMning 150 baravarigacha kredit berish va uning foiz stavkasi istisno tariqasida 2022 yil 1 yanvargacha Markaziy bank asosiy stavkasida belgilangan. Kreditlar 6 oygacha imtiyozli davr bilan 3 yildan ko‘p bo‘lмаган muddatga ajratildi.

Nodavlat kasb-hunarga o‘qitish markazlari sertifikatiga ega yoshlarga biznesni tashkil etish uchun “Mikrokreditbank” banki tomonidan quyidagicha mikrokredit ajratiladi:

- yoshlarga o‘z biznesini tashkil etishlariga 33 million so‘mgacha bo‘lgan mikrokreditlar ta’minotsiz ajratiladi;
- mikrofirma va kichik korxona ochganda ta’minot turlari asosida 225 million so‘mgacha miqdorda.

Kreditlarning foiz stavkasi Markaziy bankning asosiy stavkasida belgilandi, ular 6 oygacha imtiyozli davr bilan 3 yildan ko‘p bo‘lмаган muddatga ajratildi.

Yuqorida ta’kidlangan kreditlarni olishga talabgor bo‘lgan yoshlar, o‘quv kurslarni muvaffaqiyatli tamomlab, maxsus sertifikat olgan 94 ming nafar yoshlardan 46 foizi (43 ming nafari)ga tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlar ajratildi (2.7-jadval).

2.7-jadval

Yoshlarni biznes va tadbirkorlik asoslariga o‘qitish va sertifikat berish dasturi⁶⁷ (01.11.2021y.)

T/r	Hudud nomi	Yillik o‘qitish rejasi	shundan:		
			haqiqatda o‘qitilgan yoshlar	sertifikat olgan yoshlar	sertifikat olganlar ulushi
	JAMI:	140709	109953	93899	85%
1.	Qoraqalpog‘iston	10199	7969	7547	95%
2.	Andijon	25776	20196	15248	76%
3.	Buxoro	6383	4929	4423	90%
4.	Jizzax	6646	5193	4785	92%
5.	Qashqadaryo	12341	9644	9574	99%
6.	Navoiy	7271	5681	4535	80%
7.	Namangan	7261	5676	4520	80%
8.	Samarqand	12216	9546	8240	86%
9.	Surxondaryo	15447	12070	10721	89%
10.	Sirdaryo	5776	4514	2988	66%
11.	Toshkent v.	8324	6506	4991	77%
12.	Farg‘ona	9647	7540	6638	88%
13.	Xorazm	8436	6593	5981	91%
14.	Toshkent sh.	4986	3896	3708	95%

“Xalq bank”i tomonidan Davlatimiz rahbarining 2018 yil 2 fevraldagagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”⁶⁸gi Farmoni ijrosi doirasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Bank tomonidan mazkur hujjat asosida bugungi kunga qadar 1531 ta loyiha ijrosiga 44,1 milliard so‘mlik kreditlar ajratilgani hamda 1531 ta yangi ish o‘rinlari yaratilganligi fikrimiz tasdig‘idir. Shu bilan birga, bank tomonidan “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha 53082 ta loyihaga 720,3 milliard so‘m miqdorida kreditlar ajratildi.

2000 yildan hozirgi davrgacha tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan ishga jalg qilinayotgan ishchilar soni ortib bormoqda.

⁶⁷ “Mahallabay” ishslash tizimini tashkil etish bo‘yicha Hokim yordamchilari o‘quvi ma’lumotlaridan.

⁶⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2 fevral 2018 yil PF-5325-son (lex.uz)

2.8-jadval

Hududlar bo‘yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ro‘yxatdagি xodimlari yillik o‘rtacha soni⁶⁹ (ming kishi)

№	Hududlar	2017 y	2018 y	2019 y	2020 y	2021 y
1.	O‘zbekiston Respublikasi	908,0	1075,1	1375,2	1350,7	1403,3
2.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	37,1	43,0	55,4	59,0	58,4
3.	Andijon	67,4	79,9	97,8	94,9	91,8
4.	Buxoro	48,0	56,4	74,0	73,5	83,9
5.	Jizzax	27,5	36,1	45,0	46,9	45,7
6.	Qashqadaryo	49,9	59,1	70,5	69,9	78,4
7.	Navoiy	28,5	36,0	49,7	49,1	51,1
8.	Namangan	54,3	69,7	87,0	87,7	90,1
9.	Samarqand	70,1	85,6	115,3	108,5	115,7
10.	Surxondaryo	39,1	46,1	58,0	61,0	66,7
11.	Sirdaryo	21,5	27,5	33,9	38,1	36,7
12.	Toshkent	88,4	104,0	141,9	146,8	143,9
13.	Farg‘ona	79,7	95,6	108,3	116,0	120,1
14.	Xorazm	41,7	48,6	58,7	66,5	67,8
15.	Toshkent sh.	254,8	287,5	379,7	332,8	352,6

2.8-jadval ma’lumotlariga e’tibor qaratsak, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sektorida faoliyat yuritayotgan ishchi va xizmatchilarning o‘rtacha soni o‘sish tendensiyasiga ega, respublika miqyosida 2020 yilda 1350,2 ming kishi bo‘lgan bo‘lsa, 2021 yilda 1403,3 ming kishini tashkil etdi.

Yana shuni ta’kidlash kerakki, tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan jalb etilib daromad manbaiga ega bo‘layotgan ishchilarni ma’lum qismi ruyxatdan o‘tmasdan, norasmiy tarzda faoliyat olib bormoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sektoridagi bandlik darajasini ortishiga nimalar hizmat qilayotganligiga qarasak, bu bevosita ular tomonidan asosiy kapitalga kiritilayotgan investitsiyalar hisobiga amalga oshirilayotgani evaziga ekanligini ko‘rishimiz mumkin (2.9-jadval).

⁶⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Statistika agentligi (stat.uz) ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

2.9-jadval

Kichik biznes va xusususiy tadbirkorlikning asosiy kapitaliga kiritilgan investitsiyalar⁷⁰(mlrd. so‘m)

№	Hududlar	2017	2018	2019	2020	2021
1.	O‘zbekiston Respublikasi	14076,7	33111,9	70650,2	77487,9	85221,1
2.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	421,2	1248,7	2259,9	1497,2	1360,8
3.	Andijon	593,1	1564,6	3335,2	4219,0	4536,1
4.	Buxoro	500,9	1398,7	3968,3	3050,7	5129,1
5.	Jizzax	484,0	1031,9	4439,8	9041,7	5480,5
6.	Qashqadaryo	413,9	709,0	6059,7	1929,5	2344,9
7.	Navoiy	476,9	747,5	2035,0	3789,4	4434,0
8.	Namangan	736,1	2017,9	4939,4	6555,4	6591,3
9.	Samarqand	984,8	2301,2	4381,4	7272,9	6249,4
10.	Surxondaryo	483,7	1886,8	7705,1	2958,7	4050,4
11.	Sirdaryo	577,9	1280,2	2972,5	2858,6	4175,2
12.	Toshkent	1597,6	3314,6	7021,4	6356,9	11105,8
13.	Farg‘ona	669,7	1963,6	4281,5	5308,7	5746,5
14.	Xorazm	515,6	716,2	2073,7	2173,1	2628,9
15.	Toshkent sh.	5621,3	12931,0	15177,3	20476,2	21388,2

Jadval ma’lumotlariga e’tibor qilsak, 2021 yilda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 85221,1 milliard so‘mdan bo‘lib, 2020 yilga nisbatan 10% ortganligini ko‘rishimiz mumkin. Hududlar bo‘yicha investitsiyalar hajmi turlicha bo‘lib, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Jizzax va Samarqand viloyatlarida pasaygan bo‘lsa, boshqalarida o‘sish tendensiyasini kuzatish mumkin.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tomonidan asosiy kapitalga kiritilayotgan investitsiyalar manbali ham muhim ahamiyat kasb etadi (2.10-jadval).

2.10-jadval

Kichik biznes va xusususiy tadbirkorlikning asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar manbalari⁷¹(mlrd. so‘m)

№	Hududlar	2017	2018	2019	2020	2021
1.	Asosiy kapitalga investitsiyalar	14076,7	33111,9	70650,2	77487,9	85221,1
2.	Korxona o‘z mablag‘lari	7358,5	14130,5	14080,4	28572,6	26130,8
3.	Chet el investorlari mablag‘lari va reinvestitsiyalari	886,3	3940,8	33641,8	19582,8	26888,0
4.	Chet el kreditlari	497,2	1657,8	10680,2	18427,3	19873,8
5.	Bank kreditlari	4699,2	12369,3	11144,1	10411,4	11700,3
6.	boshqalar	635,5	1013,5	1103,7	493,8	628,2

⁷⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Statistika agentligi (stat.uz) ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

⁷¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Statistika agentligi (stat.uz) ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Jadval ma'lumotlariga e'tibor qilsak, 2021 yilda o'z mablag'lari hisobidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 8,5%ga pasaygan, boshqa manbalar esa ortgan, bunda ustivorlik chet el investorlari mablag'lari va reinvestitsiyalari eng yuqori 37,3% ga ortgan.

Umumiyl holda tadbirkorlikni ijtimoiy funksiyasi hisoblangan bandlik darajasini oshirishda davlat va tadbirkorlik sektorida ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan.

2.3-§. O'rta mulkdorlar qatlamini tarkib topishida kichik biznes va tadbirkorlik imkoniyatlaridan foydalanish darajasi

Bozor iqtisodiyoti amal qilayotgan mamlakatlar tajribasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sektori mamlakakat iqtisodiyotini rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsata oldi. Mazkur tizimni biz tadbirkorlikka asoslangan iqtisodiy model sifatida qarashimiz ham mumkin. Tadbirkorlik sektori iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarini bir maromda barqaror rivojlanishini ta'minlash imkoniga ega.

Rivojlangan mamlakatlardagi kabi O'zbekistonda ham tadbirkorlik ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda muhim mavqeni (pozitsiyani) egallashga ulgurdi, bu avvalo hukumat tomonidan ko'rsatilayotgan yordam, qo'llab-quvvatlashlar natijasi sifatida namoyon bo'ladi. O'zbekistonda ko'p ukladli iqtisodiyot shakllanib ulgurdi, bunda xususiy mulk ustivorlik kasb etmoqda. Xususiy mulk asosida faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlari aholi talablarini inobatga olib, zarur tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish, yangi ish o'rinlarini tashkil etish, ishsizlikni kamaytirish qatorida, o'rta mulkdorlarni shakllanishiga turtki bo'ladi.

Mulk egalarining "o'rta sinf"i tushunchasi birinchilardan bo'lib, Buyuk Britaniyada 1785 yillarda qo'llanilgan bo'lib, u o'zida sanoat va savdo burjuaziyasini ifodalagan (23,51).

A.Smitning fikriga ko'ra kapital egasi bo'lgan tadbirkorlar sinfi foyda ko'rish maqsadida "umri davomida turli rejalar va loyihalar tuzishi, ular o'zlarining juda ziyrakligi bilan boshqalardan ajralib turadi..." (35,281).

O‘rta mulkdorlar sinfini tushunishda, uning mazmun va mohiyatini anglash darkor.

Kimlarni o‘rta mulkdorlar sinfiga kiritishda turlicha yondashuvlar mavjud, iqtisodchilar daromad nuqtai-nazardan yondashsa, sotsiologlar savodlilik va mutaxassislik tomonidan yondashadi yana kimlardir inson o‘zini qaysi guruhga qo‘shishi inobatga oladi. Ijtimoiy loyihibar va prognozlashtirish instituti direktori Tatyana Maleva bunday yondashuvni hato deb ta’kidlaydi, balki barcha mezonlardan birga foydalanishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

Daromadlar tahlili va turmush darajasi Markazi direktori Alina Pishnyaklar o‘rta mulkdorlar sinfini aniqlash faqatgina daromad darajasi orqali aniqlanishi mazmunan xato deb hisoblashadi. Bunday yondashuv jamiyatda o‘rta mulkdorlar sinfiga nisbatan, aholining yuqori daromadli guruhi sifati qarashni shakllantirib qo‘ydi. O‘rta mulkdorlar sinfini o‘rganishda ish haqi bo‘yicha yondashish noto‘g‘ri bo‘ladi, chunki uning real qiymatiga joy va vaqt omillari ta’sir ko‘rsatadi.

Ular tomonidan taklif etilayotgan yondashuvda quyidagi mezonlarga ustuvorlik beriladi:

- turmush farovonligi;
- ijtimoiy-kasbiy maqom;
- o‘zini-o‘zi anglash kabilalar asosida⁷².

Turmush farovonligi mezoni tarkibida nafaqat daromad, balki jamg‘arma, uzoq muddat foydalaniladigan qimmatbaho buyumlar (masalan avtomobil), ko‘chmas mulk kabilalar o‘rin olgan.

Ijtimoiy kasbiy maqom deyilganda, budget sohasida faoliyat olib borayotganlar, jumladan ta’lim, sog‘liqni saqlash, ichki ishlar va mudofaa hodimlari, savdo va xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat yurituvchilar kabilalar hisobga olingan.

Keyingi mezonda inson o‘zining jamiyatdagi holatini sub’ektiv baholashiga asoslanadi. O‘z yo‘nalishida mutaxassis bo‘lganlar o‘zlarini o‘rta qatlam tarkibiga kiritadi. Lekin, inqiroz, pandemiya holatlari ularning fikrlarini o‘zgarishiga, shubha

⁷² Алина Пишняк Средний класс. Кто это? Сколько зарабатывает? И на что тратит деньги? » Элиттрейдер (elitetrader.ru)

bilan qarashga majbur qildi. Bu ularning turmush darajalari pasayishi bilan emas balki, imkoniyatlarini qisqarishi va ijtimoiy kayfiyatni o‘zgarishi bilan bog‘lash mumkin.

O‘rta sinfni yana o‘ziga hos xususiyatlaridan biri, ular tomonidan turli tovar va xizmatlarga, ya’ni bilim olish, tibbiy xizmat, dam olish kabilarga mablag‘ sarflashlari hisoblanadi.

O‘rta sinf – moddiy va ijtimoiy extiyojlarni qondirish uchun, barqaror daromadga ega bo‘lgan aholining ijtimoiy guruhi⁷³.

O‘rta sinf ega bo‘lgan boylik ularni sifatli hayot kechirishlarini ta’minlay oladi.

Shvetsariya bankining «Global Wealth Report 2015» hisobotiga ko‘ra 2015 yilda Xitoy dunyo mamlakatlarida o‘rta sinf vakillari bo‘yicha AQShni ortda qoldirib 1-o‘rinni egalladi. Ularning soni Xitoyda 109 million kishiga yetdi, AQShda esa ular 92 million kishini tashkil etadi.

«Global Wealth Report 2015» hisobotiga ko‘ra 2015 yilda o‘rta sinf mezonlari ba’zi davlatlar uchun quyidagicha bo‘lgan 2.11-jadval.

2.11-jadval

O‘rta sinf mezoni dunyo mamlakatlari yillik daromad bo‘yicha⁷⁴.

AQSH dollar'i

Nº	Mamlakatlar	2015 yil
1	Shvetsariya	72900
2	AQSH	50000
3	Xitoy	28000
4	Rossiya	18000

XXI asr boshidan buyon Hitoyda o‘rta sinf vakillari soni ortib bormoqda. Jahon banki me’yorlariga ko‘ra o‘rta sinf deganda kuniga 10 AQSH dollaridan 50 AQSH dollarigacha pul sarflaydigan aholi tushuniladi. 2017 yil ma’lumotlariga ko‘ra Hitoyning 40% aholisi o‘rta sinfga tegishlidir.

⁷³ Средний класс — Википедия ([wikipedia.org](https://ru.wikipedia.org))

⁷⁴ «Global Wealth Report 2015» - ma’lumotlari asosida tuzildi.

Iqtisodiy rivojlanish Markazi direktori Yu.Yusupovning fikriga ko‘ra, kichik va o‘rta mulkdorlar va yaxshi haq oladigan malakali ishchilar o‘rta sinfni tashkil etadi⁷⁵.

O‘rta mulkdorlar sinfi davlatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosi bo‘lib hisoblanadi. Ular jamiyatda demokratik institatlarni amal qilishi, o‘zлari va jamiyat manfaatlarida qa’iy turuvchi yoki o‘z talablarini ilgari sura oladilar.

Iqtisodiy tadqiqotlar markazi ma’lumotlariga ko‘ra, 2019 yilda O‘zbekistonda o‘rta mulkdorlar 28-30% ni tashkil qilgan. Bugungi kunda aholining 45-48% o‘rta mulkdorlar sinfi zahirasini tashkil qiladi, ularga yordam ko‘rsatilishi, ularni o‘rta mulkdorlar qatorida bo‘lishiga imkon beradi aks holda kam ta’minlanganlar qatlamini ko‘payishiga sabab bo‘ladi. Ularni o‘rta mulkdorlar sinfiga o‘tishida ijtimoiy zina vazifasini bajaruvchi hisoblangan tadbirkorlik tizimida yangi imtiyoz va yengilliklarni yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bu borada hukumat tomonidan ko‘plab tadbirlar amalga oshirilmoqda, jumladan, tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida o‘quv kurslarini tashkil etish, hunarmand tadbirkorlar va yoshlar o‘rtasida ustoz-shogird tizimini joriy qilish, tadbirkorlik uyushmalarini qo’llab-quvvatlash hamda zamonaviy kasblarga o‘qitish kabilar shular jumlasidandir.

Rossiya Federatsiyasi statistik ma’lumotlarida, kichik tadbirkorlik sub’ektlari daromadlari o‘rtacha daromaddan 3,4 marotabaga ko‘p, o‘rtacha aholi jon boshiga hisoblaganda esa, yollanma ishchilar daromadlaridan 3,9 marotaba katta ekanligi ta’kidlanadi⁷⁶.

“Ahолида тадбиркорлик соҳасида зарурӣ ко‘никмаларни шакллантиришга қарарилган о‘қитиш тизимини ёрий этиш, мазкур яраронга ҳалқаро ташкilotlar, нодавлат нотижорат ташкilotlari va nodavlat ta’lim tashkilotlarini keng jalb qilish”⁷⁷ бо‘йича Вазирлар Махкамасining 388-sonli qarori qabul qilingan bo‘lib, aholini

⁷⁵ <https://kun.uz/ru/news/2019/05/09/kto-yavlyayetsya-predstavitelem-srednego-klassa-v-uzbekistane>

⁷⁶ Малый бизнес как фактор формирования среднего класса в России | Статья в журнале «Молодой ученый» (moluch.ru)

⁷⁷ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 22 iyundagi “Yoshlar va xotinqizlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitish dasturlarini samarali amalga oshirish hamda ularning tadbirkorlik faoliyati uchun mikrokreditlar ajratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 388-sonli qarori.

ta’lim olishida ta’lim to‘lovlari uchun kompensatsiya qilish orqali qoplanishi ko‘rsatib o‘tilgan. Ushbu qarorda nafaqat o‘qitish bilan cheklangan, keyinchalik nodavlat ta’lim muassasasini muvaffaqiyatli bitirgan aholi uchun sertifikatlar bilan ta’minlanishi va olingan sertifikati hamda o‘z biznesini boshlashi uchun loyihasini bankka taqdim qilgan holda kreditlarga ega bo‘lishi tartiblari keltirib o‘tilgan.

NTT keng jalb qilinib, tadbirkorlikni muhim va alohida soha, yo‘nalishlarida zaruriy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o‘qitish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Kasb-hunarga o‘qitish, tadbirkorlikka doir bilimlarni shakllantirish bo‘yicha nodavlat ta’lim tashkilotlariga sarflangan xarajatlarni davlat tomonidan kompensatsiya qilinishi ham amalga oshirilmoqda. O‘qishni muvaffaqiyatli tugatib, ularning maxsus sertifikatini olgan shaxslarga o‘z biznesini tashkil etish uchun garov talab qilinmaydigan hamda uchinchi shaxs kafilligi, sug‘urta polislari, jamg‘arma kafilligi va boshqa ta’minot turlari asosida mikrokreditlar ajratilmoqda.

Bunga Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasidan 100 mln. AQSH dollari ekvivalentida mablag‘ ajratilgan.

Tadbirkorlikni rivojlantirish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash borasida kelgusida bir qator amaliy ishlar amalga oshirilishi zarur.

Hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirish “drayverlari” aniqlanib, tadbirkorlik majmualari (kooperatsiya) tashkil etish va loyihalarini joylashtirish chora-tadbirlari amalga oshiriladi. Tanlangan hududlarda kooperatsiyalar tashkil etiladi va aholi ish bilan ta’minlanadi.

Tadbirkorlik faoliyatini boshlash istagida bo‘lgan aholiga, ayniqsa, yoshlar va ayollarga motivatsiya berish, o‘qitish va ularning loyihibalariga kredit ajratilishini tashkil etish ishlari amalga oshiriladi. Respublika bo‘yicha nodavlat ta’lim tashkilotlari bilan hamkorlikda o‘qitish tashkil etildi.

Mamlakatimizda biznesni yuritish uchun qulay muhit yaratish, tadbirkorlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida YETTB hamda “Berlin Economics” mustaqil iqtisodiy siyosiy konsalting tashkiloti bilan hamkorlikda “Tadbirkorlik Kodeksi” loyihasi ishlab chiqilmoqda. Tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq 5 mingga yaqin qonun va qonunosti hujjatlar

takomillashtiriladi, ayrim faoliyat turlariga ruxsat berish tartib-taomillari muvofiqlashtiriladi.

Xalqaro hamkorlikda tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha qo‘llab-quvvatlash loyihalari amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda kichik va o‘rta tadbirkorlik sub’ektlarini qo‘llab-quvvatlash uchun 10 dan ortiq xalqaro moliya institutlaridan davlat kafolati ostida qarz mablag‘lari jalb qilinishi bilan loyihalar amalga oshirilmoqda.

Jahon banki guruhidagi banklar, Yevropa investitsiya banki, Islom taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki va Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) ishtirokida mablag‘lar jalb qilinish orqali mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan loyihalar bo‘yicha kelishuvlarga erishilib, amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, Yevropa investitsiya bankining 100 mln. dollar mablag‘i mikro, kichik va o‘rta korxonalarni qo‘llab-quvvatlashga jalb qilinadi.

Osiyo taraqqiyot banki tomonidan “O‘zbekiston Respublikasida kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash” dasturi doirasida 200 mln. AQSH dollari ajratiladi.

Mamlakatimizda “Ijtimoiy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi Qonun ishlab chiqilishi dolzarb masalaga aylanmoqda, bu bilan aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ish o‘rinlari bilan ta’minalash, ijtimoiy tovarlar ishlab chiqarish va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish yoxud boshqa ijtimoiy maqsadlarni ko‘zlagan hamda belgilangan tartibda ijtimoiy korxonalar ryestriga kiritilgan tadbirkorlik sub’ektlari qo‘llab-quvvatlanadi.

O‘rta mulkdorlar barcha insonlar kabi ijtimoiy-iqtisodiy tizimning tovarlar ishlab chiqarish, taqsimot, ayrboshlash va iste’mol jarayonlarida ishtirok etadi. Ular mamlakat makroiqtisodiyotida ma’lum funksiyalarni amalga oshiradi.

O‘rta mulkdorlar quyidagi funksiyalarni amalga oshirish orqali iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantiradi⁷⁸:

- o‘rta sinf ichki iste’molni rag‘batlantiradi, barqaror ichki talab iqtisodiyotda investitsiya va bandlik darjasini o‘siradi;

⁷⁸ <https://7universum.com/ru/economy/archive/item/4553>

- o‘rta sinf inson kapitalini rivojlantirish va foydalanish darajasiga ta’sir qiladi, o‘rta sinf vakillarida ta’lim va sog‘liklariga investitsiya qilish imkoniyatlariga ega;

- o‘rta sinf mamlakatda tadbirkorlar miqdoriga ta’sir etish imkoniga ega, ular o‘z bizneslarini ochish uchun yetarli kapitalga ega, shuningdek, biznesni yuritish uchun bilim olish yoki malakali menejerni yollash imkoniyati mavjud;

- o‘rta sinf mamlakatda investitsion muhit yaxshilanishi va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishga doir siyosiy va iqtisodiy institutlarga o‘z talablarini ilgari sura oladilar⁷⁹.

Agar mamlakatda qambag‘allik darajasi yuqori bo‘lsa va o‘rta sinf salmog‘i past darajada bo‘lishi, institutsional beqarorlikka sabab bo‘lishi mumkin, uning oqibatida investitsion muhit yomonlashadi va ishlab chiqarish pasayadi.

Jamiyatda o‘rta sinf vakillarini ko‘pligi uning barqarorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Shuningdek, mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy institutlar tizimli bir maromda amal qilishiga imkon yaratadi. Iqtisodiy rivojlangan davlatlar tajribasi o‘rta mulkdorlarni shakllantirishda kichik biznes sub’ektlari katta ahamiyat kasb etishi aniqlandi.

O‘zbekistonda kichik biznes sub’ektlari sonini ko‘paytirish asosida o‘rta mulkdorlarni ham ko‘paytirish va mustahkamlashning ahamiyatlilik darajasini bilish uchun, davlat uchun o‘rta mulkdorlar ahamiyatini bilish talab etiladi. Jamiyatda o‘rta mulkdorlar mavjud bo‘lishini o‘ziga xos xususiyatlarga ega, aholining moddiy jihatdan ta’minlangan iqtisodiy mustaqil qismi mavjud tizimni, ya’ni davlat qurilishining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tuzumini saqlanishini, yanada barqarorlashini va rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi. Jamiyatning mazkur guruh vakillari amaldagi ijtimoiy-iqtisodiy tizim asosini saqlagan holda o‘zgarishlarni amalga oshirish va takomillashtirishga intiladilar.

O‘rta sinf vakillari iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan faol bo‘lib, ular jamiyatni progressiv va barqaror rivojlanishiga o‘z hissalarini qo‘shadilar. Statistik

⁷⁹ <https://7universum.com/ru/economy/archive/item/4553>

ma'lumotlarga ko'ra Yevropa mamlakatlari va AQShda iqtisodiy faol aholining 70% o'rta sinf vakillari hisoblanadi.

O'zbekistonda aholi turmush farovonligini oshirish kambag'allik muammolarini barataraf etish, ularni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga katta ahamiyat qaratilmoqda (2.12-jadval).

2.12-jadval

O'zbekiston Respublikasida aholi daromadlari ma'lumotlari⁸⁰

Ko'rsatkichlar	Aholi umumiylar daromadlari, mlrd. so'm	o'tgan yilga nisbatan, % da	Aholi real umumiylar daromadlari, mlrd.so'm)	o'tgan yilga nisbatan, % da	Aholi jon boshiga real umumiylar daromadlar, ming so'm	o'tgan yilga nisbatan, % da
2010	62631,6	132,9	58229,4	123,6	2038,7	120,1
2011	85933,5	137,2	80094,6	127,9	2729,9	124,5
2012	104263,0	121,3	97296,6	113,2	3267,8	111,6
2013	126268,0	121,1	118029,5	113,2	3902,7	111,4
2014	146392,9	115,9	137548,5	108,9	4472,0	107,1
2015	169344,3	115,7	160485,5	109,6	5127,5	107,7
2016	197962,4	116,9	187517,7	110,7	5887,9	108,8
2017	236893,1	119,7	216400,1	109,3	6681,4	107,5
2018	300842,7	127,0	255971,0	108,1	7767,0	106,2
2019	365735,6	121,6	319336,1	106,1	9509,6	104,2
2020	415085,0	113,5	367559,6	100,5	10737,3	98,6
2021	515660,7	124,2	465271,8	112,1	13325,8	109,9

2.12-jadval ma'lumotlariga e'tibor qaratsak, mamlakatimizda aholi daromadlari o'sish tendensiyasini ifodalamoqda. 2021 yilda aholi umumiylar daromadlari 2020 yilga nisbatan 24,2% ga o'sgan bo'lsa, aholi real umumiylar daromadlari 12,1% o'sgani guvohi bo'lamiz.

Hudular kesimida ham aholi daromadlari o'sish tendensiyasini ifodalamoqda, buni quyidagi 2.13-jadvalda ko'rishimiz mumkin.

⁸⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Statistika agentligi (stat.uz) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

2.13-jadval

O‘zbekiston Respublikasi hududlari kesimida aholi real umumiylar daromadlari (2021-yil)⁸¹

Hududlar	Jami, mlrd.so‘m	2020 yilga nisbatan 2021 yil, % da	Aholi jon boshiga o‘rtacha, ming so‘m	2020 yilga nisbatan 2021 yil, % da
O‘zbekiston Respublikasi	465 271,8	112,1	13 325,8	109,9
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	20 046,6	111,2	10 354,1	109,7
<i>viloyatlar:</i>				
Andijon	37 488,7	110,3	11 639,6	108,1
Buxoro	31 775,0	111,8	16 195,2	110,3
Jizzax	16 957,8	111,1	11 884,4	108,7
Qashqadaryo	37 461,7	111,0	11 110,0	108,9
Navoiy	22 446,0	112,0	21 926,3	110,0
Namangan	29 725,4	113,0	10 252,6	110,6
Samarqand	46 156,0	112,0	11 569,4	109,9
Surxondaryo	29 357,1	113,4	10 824,9	111,0
Sirdaryo	10 016,3	107,3	11 515,7	105,3
Toshkent	42 846,1	110,6	14 689,4	111,9
Farg‘ona	38 217,6	113,9	9 905,6	111,8
Xorazm	26 701,0	115,7	13 989,1	113,9
Toshkent sh.	75 517,0	111,9	26 784,8	104,9

Jadval ma’limotlariga e’tibor qaratsak, 2021 yilda aholining real umumiylar daromadlari 465,3 trillion so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 112,1 % ga o‘sdi, aholi jon boshiga esa 13325,8 ming so‘mni tashkil etdi. Aholi jon boshiga real umumiylar daromadlarining eng yuqori ko‘rsatkichi Toshkent shahrida 26784,8 ming so‘m kuzatildi. Shuningdek, Navoiy viloyatida 21926,3 ming so‘m, Buxoro viloyatida 16195,2 ming so‘m, Toshkent viloyatida 14689,4 ming so‘m va Xorazm viloyatida 13989,1 ming so‘m respublika darajasidan yuqori ko‘rsatkich. Eng quyi ko‘rsatkichlar esa Farg‘ona viloyatida 9905,6 ming so‘m, Namangan viloyatida 10252,6 ming so‘m va Qoraqalpog‘iston Respublikasida 10354,1 ming so‘m kuzatildi.

⁸¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Statistika agentligi (stat.uz) ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

2021-yil ma'lumotlariga ko'ra, aholi umumiylar daromadlari hajmida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarning ulushi 59,4 % ni yoki Respublika miqyosida aholi umumiylar daromadlarining 276371,5 mlrd. so'mi aynan kichik biznes va tadbirkorlik sektori ulushiga to'g'ri keladi.

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2021 yil holatiga ko'ra, mol-mulkdan olingan daromadlar 11,3 trillion so'mni tashkil etdi. Joriy davrda mol-mulkdan olingan daromadlar aholi umumiylar daromadlari hajmining 0,6 % ga o'sishini ta'minladi. Aholining umumiylar daromadlari tarkibida mol-mulkdan olingan daromadlar ulushi 2,2 % ni tashkil etdi⁸².

O'zbekistonda o'rta sinfga umumiylar holda iqtisodiy faol oliy kasbiy ta'limga ega, moddiy ta'minlangan aholi qatlarni kiritish mumkin. Mamlakatimizda o'rta sinf turli soha va yo'nalish vakillaridan tarkib topgan: davlat xizmati vakillari, yirik korxona ishchilar, yuqori maosh oluvchi tibbiyot va ta'lim vakillari, kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlari va boshqalar.

2.14-jadval

Faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi⁸³

Faoliyat turlari	O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm				
	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2021 yilda 2020 yilga nisbatan %
O'zbekiston Respublikasi	1822,2	2324,5	2673,3	3208,2	120,0
Sanoat	2731,1	3310,2	3682,9	4129,2	112,1
Qurilish	2297,3	2761,2	3212,3	3847,6	119,8
Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik	3500,5	4798,4	6230,6	8292,9	133,1
Savdo	1990,3	2469,8	2748,1	3228,9	117,5
Axborot va aloqa	3347,5	3971,8	4368,8	5572,2	127,5
Tashish va saqlash	2507,4	2965,5	3405,3	4331,6	127,2
Ta'lim	1396,4	1841,2	1979,7	2313,1	116,8
Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	1173,1	1534,3	1808,5	2157,8	119,3

⁸² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Statistika agentligi (stat.uz) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

⁸³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Statistika agentligi (stat.uz) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

2021-yilda iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng baland ko‘rsatkichi odatagidek, bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati sohasida 8 292,9 ming so‘mga to‘g‘ri keldi va 2020 yilga nisbatan 33,1% o‘sgan. Shuningdek, o‘rtacha oylik ish haqi ko‘rsatkichi axborot va aloqa sohasida 5 572,2 ming so‘m hamda tashish va saqlash sohasida 4 331,6 ming so‘m, qolgan sohalarda faoliyat turlariga nisbatan sezilarli yuqoriligiga erishilgan 2020 yilga nisbatan 27,5% o‘sgan. Ta’lim sohasida 2313,1 ming so‘m hamda sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish 2157,8 ming so‘m iqtisodiy faoliyat turlarida esa nisbatan pastligini ko‘rish mumkin, lekin 2020 yilga nisbatan mos holda 16,8% va 19,3% o‘sganligi ifodalangan.

Ma’lumotlar tahlilidan mamlakatimizda o‘rta mulkdorlar sinfi vakillari ko‘p emasligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, moddiy ta’midot jihatidan farqlanuvchi aholi qatlamlari o‘rtasida, bo‘lishi mumkin bo‘lgan, ijtimoiy ziddiyatlarni oldini oluvchi iqtisodiy sub’ekt vazifasini bajaradi. Kichik biznes va tadbirkorlik o‘zining moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib aholining moddiy ta’minlangan va kam ta’minlanganlar o‘rtasida ularni bog‘lovchi vosita sifatida ham namoyon bo‘ladi. Ya’ni moddiy ta’minoti yaxshi bo‘lgan jamiyat a’zolari resurslarini jalb qilgan holda tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yadi kam ta’minlangan insonlarni, ishsizlarni ish bilan band qilish orqali ularni daromad manbaiga ega bo‘lishiga imkon yaratadi. Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik jamiyatning ishonchli tayanchi sifatida namoyon bo‘ladi, qayerda tovar va xizmatlar yetishmovchiligi yuzaga kelsa ana o‘sha soha yoki yo‘nalishda kichik biznes va tadbirkorlik o‘z xizmatlari bilan jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etishga tayyor. Bu birinchidan jamiyat a’zolari extiyojlarini qondirilishi uchun naf keltirsa, ikkinchi tomondan tadbirkorlik sub’ektlariga foyda keltirishi, natijada hukumatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini, davlat mustahkamligini, rivojlanishini yoqlovchi jamiyat a’zolari salmog‘ini ortishiga imkon beradi.

Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa

- tadbirkorlik ijtimoiy funksiyasidan kelib chiqgan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish layoqati bor insonlarni yakka tartibdagi tadbirkorlik, kichik biznes, oilaviy tadbirkorlik va tadbirkorlikni boshqa shakllarini tashkil etishga yo‘naltirish va rag‘batlantirish zarur;
- bandlik masalasini ijobiy hal etishda tadbirkorlik asosiy yechim ekanligini inobatga olib aholini, tashabbuskor insonlarni, yoshlarni tadbirkorlikka jalb etish mexanizmini shakllantirish muhim hisoblanadi;
- tadbirkorlikni rivojlantirishning “mahallabay” ishlash tizimini joriy etish orqali har bir mahallalarning “o‘sish nuqtalari”ni aniqlash asosida anashu yo‘nalishda aholini kasb-hunarga o‘qitish, bandligini ta’minalash va tadbirkorlikka jalb etish orqali mavjud muammolarni hal etilmoqda;
- kasb-hunarga o‘qitish orqali tadbirkorlikka yo‘naltirish: mahalla kasb-hunarga o‘qitish maskanlarida, “Ishga marhamat” monomarkazlari, professional ta’lim tashkilotlarida, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning o‘quv markazlari va bo‘limmalarida; “Hunarmand” uyushmasiga a’zo bo‘lgan hunarmandlarning “Usta-shogird” maktablarida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi;
- aholi daromadlarini oshirishda tadbirkorlik va mehnat faoliyatiga nisbatan “motivatsiya, ko‘nikma va moliyaviy ko‘mak” tamoyiliga asoslangan mexanizm joriy etish zarur;
- aholining 45-48% o‘rta mulkdorlar sinfi zahirasini tashkil qiladi, ularga yordam ko‘rsatilishi ularni o‘rta mulkdorlar qatorida bo‘lishiga imkon beradi aks holda kam ta’minalanganlar qatlamini ko‘payishiga sabab bo‘ladi. ularni o‘rta mulkdorlar sinfiga o‘tishida ijtimoiy zina vazifasini bajaruvchi hisoblangan tadbirkorlik tizimida yangi imtiyoz va yengilliklarni yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq;
- mamlakatimizda “Ijtimoiy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi Qonun ishlab chiqilishi dolzarb masalaga ayolanmoqda, bu bilan aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ish o‘rinlari bilan ta’minalash, ijtimoiy tovarlar ishlab chiqarish va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish yoxud boshqa ijtimoiy maqsadlarni ko‘zlagan hamda belgilangan tartibda ijtimoiy korxonalar ryestriga kiritilgan tadbirkorlik sub’ektlari qo‘llab-quvvatlash mexanizmini yanada takomillashtirish imkoniyati yuzaga keladi.

3-BOB. O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIKNING IJTIMOIY FUNKSIYASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

3.1-§. Tadbirkorlik ijtimoiy funksiyasi samaradorligini oshirishda bozor dastaklari va iqtisodiy jihatlar ta'sirini muvofiqlashtirish

Bozor iqtisodiyoti tadbirkorlik sub'ektlari mas'uliyatlarini oshiradi va bevosita faoliyatlariga doir qarorlar qabul qilishga undaydi. Bozor iqtisodiyotining o'ziga hos qonun-qoidalari bozor mexanizmida, bozorga ta'sir etish dastaklarida mujassam bo'lgan. Bozor dastaklari tadbirkordan narxlarni shakllantirish, resurslardan samarali foydalanish, bozor sub'ektlari bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarni o'rnatish, ishchilarni jalb etish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish, tovarlarni sotish kabi jarayonlarni samarali yuritishda ham yordamchi ham nazoratchi funksiyasini amalga oshiradi.

3.1-jadval

Kichik tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi ulushi⁸⁴

Yo'nalishlar	Umumiy hajmiga nisbatan %da			
	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil
YAIM	60,4	56,5	53,9	54,9
Sanoat	37,4	34,9	27,5	27,0
Qishloq, o'rmon va baliqchili xo'jaligi	98,3	98,3	97,0	96,7
Investitsiya	38,0	47,0	49,7	47,9
Qurilish	73,25	75,4	72,4	72,4
Savdo	86,3	84,3	82,2	82,1
Yuk tashish	55,5	54,6	52,4	49,4
Yuk aylanmasi	79,6	77,4	76,2	73,4
Yo'lovchi tashish	89,6	90,7	93,9	92,8
Yo'lovchi aylanmasi	94,8	94,9	96,1	95,2
Eksport	27,2	28,7	20,5	22,3
Import	56,2	54,2	51,8	48,7

Jadval ma'lumotlarida kichik tadbirkorlikni iqtisodiyotdagi ulushini ifodalash bilan birga, u mamlakat iqtisodiyotida qanchalik ahamiyat kasb etishi o'z ifodasini topgan. Ko'plab soha va yo'nalishlarda keltirilgan barcha yillardagi ulushi salmoqlı

⁸⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Statistika agentligi (stat.uz) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

50% dan ortiq ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Qishloq, o‘rmon va baliqchili xo‘jaligida yillar davomida 98-97%ni egallaydi, savdoda 82% dan yuqori ko‘rsatkichni ifodalaydi, qurilish yo‘nalishida esa 72%dan yuqori ko‘rsatkichni ifodalaydi, yo‘lovchi tashishda o‘rtacha 90% dan yuqori natijaga erishgan. Eng past ko‘rsatkich sanoat va eksport yo‘nalishlarida bo‘lib, mos holda 27 va 22,3%larni ifodalaydi yana shuni ta’kidlash kerak bu yo‘nalishlarda kichik tadbirkorlining ulushi pasayish tendensiyasini ko‘rsatmoqda.

Tadbirkor tomonidan faoliyatni samarali yuritilishi, tadbirkorlik ijtimoiy funksiyalarini samarali amal qilishi, tartibga solish va rivojlantirish tizimini shakllantirish imkonini yaratadi. Mazkur institutsional tizim amaliyotda o‘z o‘rnini topib ulgurgan, lekin uning nazariy asoslari yetarli darajada yoritilmagan. U o‘zining boshlang‘ich, ya’ni shakllanish va rivojlanish davrida desak adashmagan bo‘lamiz.

Bozor iqtisodiyotini amal qilishi jarayonida tadbirkorlikni ijtimoiy funksiyasini tartibga solishda aniq belgilangan vazifalar va yo‘nalishlarga asoslangan tabaqlashgan tizimni shakllantirish zarur. Bu o‘z navbatida milliy iqtisodiyotda, barcha tarmoq va sohalarda tadbirkorlikni ijtimoiy funksiyasini barqaror shakllanish va rivojlanishiga ta’sir etuvchi samarali vositalarni shakllantiradi.

Bozor mexanizmi tadbirkordan innovatsion texnika va texnologiyalardan foydalanib raqobatbardosh, xaridorgir tovar va xizmatlar ishlab chiqarib foydani oshirishga undaydi. Tadbirkorga ko‘proq ish o‘rinlarini tashkil qilib imkoniyati darajasida kengayishga sharoit yaratadi. Shuningdek, raqobatning narxsiz usullarini keng joriy etishga chorlaydi, mehnat unumdorligini oshirishda iqtisodiy mexanizmlar bilan birga ijtimoiy vositalardan foydalanishni taqazo qiladi.

Tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyalarini rivojlantirish dastak va vositalarini ko‘rib o‘tish jarayonida iqtisodiyotda davlat va xususiy sektor nisbati, davlat tomonidan tartibga solish darajasini ham o‘rganish, tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

Neoliberal yo‘nalish vakillari bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning boshqarish funksiyalarini minimallashtirish tarafdori sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur maktab vakillarining fikricha rejali iqtisodiyot xalq manfaatini, uning turmush darajasini, xususan iste'molini o'zida to'liq aks ettira olmaydi. Ijtimoiy munosabatlarda insonning erkin faoliyati cheklanadi, hukumat va xalq o'rtaida noaniqlik shakllanishiga sabab bo'ladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat kuzatuvchi sifatida emas, balki bozor mexanizmlarini talab va taklif, narx, raqobat kabilarni keng erkinlikda xarakat qilishlari uchun iqtisodiy islohotchilik funksiyasini amalga oshirishi kerak.


Keyns nazariyasida davlatni bir chetga surib qo'yish yaramaydi, aksincha ma'lum inqirozli, o'tish davrlarida davlat tartibga solish pozitsiyasini mustahkam amalga oshirishi kerak. Keyns nazariyasi asosida rivojlanishga erishgan davlatlar, bozor iqtisodiyotini mukammal o'zini-o'zi tartibga soluvchi tizim deb sanashmaydi, balki, umumiy ishsizlikni bartaraf etish, maksimal bandlik va iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirishda davlatning iqtisodiyotdagi o'rni ahamiyatli darajada ekanligini ta'kidlaydi. Jumladan, hozirgi kunda ijtimoiy muammolarni hal etishda, bozor mexanizmini amal qilish darjasini davlatni tartibga solish mexanizmiga nisbatan ortda qolayotganligini tan olishimiz kerak⁸⁵.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarish, tartibga solish jarayonida iqtisodiy dastaklarni guruhlashtirish tadbirkorlikni ijtimoiy funksiyalarini yanada samarali amal qilishi jarayoniga ta'sirini tadqiq etishga imkon beradi.

Bozor mexanizmi, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, jumladan, tadbirkorlar o'rtaida qarorlar almashinuvini ta'minlovchi va shunga mos holda ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni amalga oshirishga undovchi dastaklar majmui sifatida ham ifodalananadi. Bozor mexanizmini har qanday bozorda amal qilishi bir hil ko'rinishga ega, lekin tashqi omillar ta'siri natijasida uning shakli va mazmunida o'zgarishlar bo'lishi mumkin (3.1-rasm).

⁸⁵ <https://cyberleninka.ru/article/n/mehanizmy-i-instrumenty-regulirovaniya-v-sfere-predprinimatelstva-osnovnye-teoreticheskie-i-prakticheskie-podhody>

Tadbirkorlikni ijtimoiy funksiyalarini samarali amal qilishiga ta'sir etuvchi dastaklar




Tadbirkorlik ko‘lamini kengashtirish, bandlik darajasini oshirish, maqbul ish haqi ta’minoti, maqbul mehnat sharoiti, ijtimoiy infratuzilma ob’ektlari faoliyatini barqarorligiga erishish.

3.1-rasm. Tadbirkorlikni ijtimoiy funksiyalarini samarali amal qilishiga ta'sir etuvchi dastaklar va ularning maqsadi⁸⁶.

Mamlakatimizda tashkil etilayotgan ish o‘rinlariga aholini jalb etish uchun tadbirkorlik sub’ektlari va korxonalar o‘zaro raqobatga kirishishga majbur bo‘lmoqda. Bu jarayonda hududiy joylashuv, oylik maosh va qulaylik kabilalar asosiy o‘rinni egallamoqda. Masalan, 2022 yilda Buxoro viloyatida 35 ta sonat korxonasi ish boshlagan, ular tomonidan 3000 ta yangi ish o‘rinlari tashkil etilgan bo‘lsa, hozirgi kunda 2000 ta bo‘sh ish o‘rinlari mutaxassis nomzodlarni kutayotganligi ta’kidlanadi⁸⁷. Bu bozorda tadbirkorlar o‘rtasida ish joylari taklifi, ishchi kuchi narxi va raqobat kabi masalarni hal etishda bozor mexanizmlarini tan olishga undaydi.

⁸⁶ Muallif ishlanmasi.

⁸⁷ "Kun.uz | Rasmiy kanal" — @kunuzofficial Telegram-kanali — TGStat



3.2-rasm. Bozor mexanizmini amal qilishi⁸⁸.

Hozirgi kunda ishchi kuchi bozoridagi talab, sohalar bo‘yicha mutaxassis kadrlarga nisbatan ortib bormoqda. Sababi jamiyat, iqtisodiyot, iste’molchilar sifatli tovarlarni haridi avzal ko‘rmoqda. Mos holda har bir ishlab chiqaruvchi, xizmat ko‘rsatuvchi tadbirkor, malakali mutaxassisni ishga jalb qilishga intiladi. Bu o‘z navbatida yuqori oylik maosh taklifini keltirib chiqaradi, malakali kadrni jalb etish uchun esa tadbirkorlar o‘rtasida doimiy raqobat mavjud. Ishchilar ham yuqori talab mavjud bo‘lgan mutaxassisliklarni egallash uchun o‘z malakasini oshirishi, hattoki soha va yo‘nalishlarini ham o‘zgartirishlari mumkin.

Bozor mexanizmi samaradorlik asosi bo‘lib hisoblanadi, chunki u ortiqcha maqsadsiz, zararli harajatlarni tan olmaydi va ulardan voz kechishga majburlaydi.

⁸⁸ Понятие, роль и место рыночного механизма (newinspire.ru)


Bozor mexanizmi tadbirkorlarni talab mavjud bo‘lgan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishga undaydi, demak tadbirkor ham byurokratik xarajatlardan voz kechgan holda xaridorgir tovar va xizmatlar ishlab chiqarishga intiladi, shunga mos ishchilarni yollaydi.

Jamiyatda biz keltirgan qarashlarni amal qilmaslik holati ham mavjud, jumladan, tibbiyot sohasi mutaxassisi bo‘lish uchun eng uzoq ta’lim olish va malaka oshirishni talab etadi, biroq ular tomonidan olinayotgan maosh 2022 yilning uchinchi choragida o‘rtacha 2510,3 ming so‘mga yetdi. Bu holatda bozor mexanizmiga asoslansa tibbiyot yo‘nalishida mutahassislarni kamayishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Bozor dastaklarini amal qilishi natijasida tadbirkorlikni ijtimoiy funksiyalari samaradorligini ortishida ikki usulda amal qilishini ko‘rib chiqamiz (3.3-rasm).

Birinchi usulda tadbirkorlik erkin bozor qonunlari asosida amal qiladi, bunda talab va taklif, narx va raqobat qonunlari ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni shakllantiradi. Tadbirkorlik sub’ekti asosiy, birlamchi e’tiborini foydani maksimallashtirishga qaratadi. Mehnat unumдорлиги darajasiga mos holda ishchi va xizmatchilarni oylik maoshlarini ko‘tarish hamda boshqa ijtimoiy masalalarga mablag‘ yo‘naltirish ikkilamchi masala hisoblanadi. Shuningdek, ishlab chiqarishni kengaytirish orqali ishsiz fuqarolarni ish bilan bandligini ta’minlaydi.

Ikkinci usulda tadbirkorlik sub’ekti bozor dastaklari bilan birga davlatning tartibga solish mexanizmini uyg‘unlashtiradi. Mazkur jarayonda tadbirkor dast avval tovar va xizmatlar narxini shakllantirishda ijtimoiy muvozanatlashgan narxni shakllantiradi. Talab miqdorini taklifdan ustunligi davrida narx o‘sishini sekinlashtirishga intiladi, foyda me’yorini o‘sishini rag‘batlantirmaydi, balki bir me’yorda bo‘lishini ta’minlaydi. Kapital va ishlab chiqarish omillarining o‘sishini olingen foyda va davlat tomonidan ko‘rsatiladigan imtiyoz, subsidiya kabilar hisobidan amalga oshiradi. Buning natijasida ishlab chiqarishni kengayishi va taklif miqdorini ortishi ro‘y beradi.



3.3-rasm. Bozor dastaklari ta'sirida tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyalarini amal qilishi⁸⁹.

Ikkinchi yondashuvda tadbirkor unga davlat tomonidan berilayotgan imtiyoz va subsidiyalarga tayangan holda ijtimoiy funksiyalarini bajarilishiga e'tiborliroq xarakatda bo'ladi.

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda moliyaviy instrumentlar katta ahamiyat kasb etadi. Ularni mavjudligi tadbirkor tomonidan ijtimoiy funksiyalarini yanada samaraliroq amalga oshirish imkoniga ega bo'ladi. Ijtimoiy funksiyaga bo'lgan ahamiyati nisbatan kuchliroq bo'lgan tadbirkorlik sub'ektida o'z faoliyati doirasida subsidiya jalb etish imkoniyati kattaroq. Shuningdek, unda kredit

⁸⁹ Muallif tomonidan tuzildi

resurslaridan imtiyozli foydalanish imkoniyati ham mavjud bo‘ladi. Turli yordam fondlarining maqsadli dasturlarida ishtirok etish, hayrihoh fuqarolardan mablag‘ jalb etish imkoniyati ham mavjud.

Sof bozor iqtisodiyoti sharoitida bozor mexanizlari tadbirkorlik sub’ektlarini shavqatsiz kurashlarga asoslanishga majbur qiladi. Ular ishchilarni ijtimoiy masalalari, texnika xavfsizligi, vaqt me’yori kabi, atrof muhit masalasi, resurslardan samarasiz foydalanishlarga o‘xhash ijtimoiy muammolarga e’tiborsiz bo‘ladilar. Bu muammolarni oldini olish demokratik jamiyatda qonun va davlat tomonidan tartiblanishi zarur. Aks holda qonuniy faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik sub’ektlari ham hufiyona iqtisodiyotni shakllantirishga intilishlari mumkin.

Kichik tadbirkorlik faoliyatini ustivor jihatlari bilan birga zaif tomonlari ham mavjud. Ulardan biri moliyaviy resurslarga bo‘lgan talabni yetarli darajada qondirilmasligi. Chunki, kichik biznes sub’ektlari kapital bozorining yirik vakillari uchun kam e’tiborli, risk yuqori bo‘lgan sub’ekt sanaladi.

Yuqoridagi kabi kichik biznesga nobarqaror sub’ekt sifatida qarashlarni o‘zgartirish uchun strategik maqsadni to‘g‘ri ya’ni jamiyatni barcha sub’ektlari manfaati nuqtai-nazaridan shakllantirish kerak. Kichik biznesga yo‘naltirilgan har bir mablag‘ yakunda umumiylab qilib, ko‘payishiga imkon beradi. Bu esa bozor mexanizmi dastaklari hisoblangan talab va taklifni samarali amal qilishiga imkon beradi. Mamlakatimizda tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlanishi davlat tomonidan rag‘batlantirilmoqda.

Aholining daromad topishga qaratilgan tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, ishsiz yoshlar va xotin-qizlarni daromadli mehnat bilan band qilish, ularning o‘z biznesini tashkil etishiga ko‘maklashish borasidagi tadbirlarni tizimli ravishda davom ettirib kelmoqda. 2021 yilda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholini daromadli mehnat bilan band qilishga yo‘naltirilgan mablag‘larni quyidagi jadvalda ko‘rishimiz mumkin.

3.2-jadval

2021 yilda dasturlar doirasida loyihalarni moliyalashtirishning manbalar kesimidagi maqsadli parametrlari⁹⁰ mlrd.so‘m

№	Dasturlar nomlanishi	2021 yilda yo‘nalti-rilgan mablag‘lar	shundan:		
			berilgan kreditlarning so‘ndirilishi hisobidan	Byudjet mablag‘lari hisobidan	Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi
	JAMI	9040	4100	2500	2440
1	“Har bir oila – tadbirkor” dasturi	5538	3243	795	1500
2	Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarini qo‘llab-quvvatlash dasturi	354	154	200	-
3	Hunarmandchilikni rivojlantirish dasturi	498	498	-	-
4	Bandlikka ko‘maklashish dasturi	125	125	-	-
5	Xotin-qizlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash dasturi	1125	80	575	470 (45 mln. doll.)
6	Yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash dasturi	1400	-	930	470 (45 mln. doll.)

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida 2021 yilda 135 mingta loyihaga jami 3,2 trln. so‘m imtiyozli kredit mablag‘lari ajratilgan. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan qariyb 4 barobarga ko‘p.

Ajratilgan kreditlarning 578 mlrd. so‘mi (18%) yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga, 2,6 trln. so‘mi (82%) o‘zini-o‘zi band qiluvchi jismoniy shaxslarga yo‘naltirilgan.

Mazkur mablag‘larning 1 trln. 407 mlrd. so‘mi xotin-qizlar tadbirkorligini, 1 trln. 412 mlrd. so‘mi yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Dasturlar doirasida ajratilgan kreditlarning 1,7 trln. so‘mi qishloq xo‘jaligi, 900,0 mlrd. so‘mi ishlab chiqarish va 650 mlrd. so‘mi xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlantirish uchun yo‘naltirilgan.

⁹⁰ “Mahallabay” ishslash tizimini tashkil etish bo‘yicha Hokim yordamchilari o‘quvi ma’lumotlaridan.

Dasturlari doirasida loyihalarni moliyalashtirish uchun joriy yilda ajratilishi ko‘zda tutilgan 9 trln. so‘m mablag‘larning kamida 1 trln. so‘mi hududlarda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish maqsadlariga ajratilishi rejalashtirilgan.

Bunday imtiyoz, yordam va ko‘maklar kichik biznes sub’ektlari tomonidan faoliyatni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish imkonini beradi. Bu esa ularni ijtimoiy funksiyalarni samarali bajarishga bozor dastaklaridan to‘g‘ri foydalanishga yo‘naltiradi.

Samaradorlik xususida ko‘plab qarash va yondashuvlar mavjud, jumladan samaradorlikni iqtisodiy va ijtimoiy samaradorliklarga ajratadilar. Iqtisodiy samaradorlik kam harajat qilib yuqori iqtisodiy natijaga erishini nazarda tutsa, ijtimoiy samaradorlik ishchi va xizmatchilar manfaatlarini qondirilishi nuqtai-nazaridan baholanadi. Tadbirkorlik faoliyati samaradorligi ko‘plab omillar ta’sirida bo‘ladi, ularni ichki va tashqi, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va boshqa usullarda guruhlash mumkin.


Tadbirkorlik ijtimoiy funksiyalariga ta’sir etuvchi iqtisodiy jihatlar ko‘proq, hudud, mamlakat, jahon iqtisodiyoti bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy jarayon va hodisalardir, ular quyidagilarda o‘z ifodasini topadi:

1. Iqtisodiyotdagagi siklik o‘zgarishlar.
2. Mamlakat darajasidagi iqtisodiy o‘sish va pasayish, YAIM darjasи.
3. Erkin raqobat kurashi muhiti.
4. Mamlakatdagagi infliyasiya darjasи.
5. Tashqi iqtisodiy aloqalar.
6. Valyuta kursi va boshqalar.

Tadbirkorlik ruhiyati tavakkalchilikka asoslanganligi, uni iqtisodiyotdagagi barcha holatlarda faol bo‘lishga undaydi, jumladan, iqtisodiyotning siklik rivojlanishida.

Siklik rivojlanishning har bir fazasi tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyalarini bajarilishiga turlicha ta’sir ko‘rsatadi. Analitik tahlil nuqtai-nazaridan yondoshganda, qisqa va o‘rtalik muddatli siklik tebranishlar davri bevosita kichik va o‘rtalik tadbirkorlik faoliyatiga ta’sir etadi. Ularni siklik tebranishlariga sabab bo‘ladi.

Iqtisodiy siklning to‘rt fazasida tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyalarini amal qilishini ko‘rib o‘tsak (3.3-rasm).



3.3-rasm. Iqtisodiyotning siklik holatida tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyalari⁹¹.

Inkiroz davrida tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyalarini bajarilish darajasi keskin pasayadi. Insonlarda tadbirkorlikka bo‘lgan qiziqish so‘nadi, tadbirkorlar ishchilardan voz kechadi yoki o‘z hisobidan ta’tilga chiqaradi, barcha ijtimoiy yordam to‘xtatiladi.


Turg‘unlik davrida tadbirkorlik sub’ektlari hech qanday ijtimoiy yordam ko‘rsatma ydi. O‘z mulkini, faoliyatini saqlab qolish uchun minimal darajadagi ishchilarni, past darajali maosh asosida yollaydi.

Jonlanish fazasining dastlabki pallasida, hukumat tomonidan iqtisodiy jarayonlarni tiklashga bo‘lgan chora-tadbirlar, ko‘rsatilayotgan ko‘mak natijasida tadbirkorlar faoliyatlarini qayta tiklaydi. Past darajali maosh evaziga ko‘plab insonlarni ishga yollaydi. Tadbirkorlar o‘z faoliyatlarini qayta tiklashga intilishlari natijasida, iqtisodiy o‘sish sur’ati ortib boradi va yuksalish fazasiga o‘tishga shart-sharoitlar yaratadi.

Iqtisodiyotning yuksalish fazasida tadbirkorlik bilan shug‘ullanishga bo‘lgan qiziqish kuchayadi, tadbirkorlar soni ortadi, ko‘plab ishsiz aholi ular tomonidan o‘rta va yuqori maosh asosida ishga yollanadi, tadbirkorlik sub’ektlari foyda massasini ortishi hisobiga ijtimoiy masalalarga ko‘proq mablag‘ yo‘naltiradi.

⁹¹ Muallif tomonidan tuzildi.

Iqtisodiy o'sish mamlakat iqtisodiyoti, fan-texnika taraqqiyoti, innovatsiyalardan foydalanayotganlik darajasini ifodalovchi ko'rsatkich hisoblanadi. Uning natijasida milliy ishlab chiqarish ko'lami miqdoran ortadi va sifat jihatidan yaxshilanadi ya'ni YAIM (yalpi ichki mahsulot) ortadi.



3.4-rasm. Yalpi ichki mahsulot⁹², (mlrd. so'm joriy narxlarda).


O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida YAIM miqdori o'sish tendensiyasini ifodalab 2021 yilda uning miqdori 734,5 trillion so'mdan ortgan, statistik ma'lumotlar ko'ra o'sish sur'ati 7,4% tashkil etadi.

Mamlakatni iqtisodiy rivojlanganlik darajasi aholi o'rtaida tadbikorlikka bo'lgan intilish ko'lmini kengaytiradi. Tadbirkorlik salohiyati kengligini anglagan holda davlat aholini shaxsiy biznesini boshlashga rag'batlantiradi. Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish uchun dasturlar ishlab chiqadi. Tadbirkorlikka undovchi dasturlar samaradorligi turli iqtisodiy, institutsional va madaniy omillar ta'sirida chegaralangan bo'lishi mumkin.

Mamlakatimizda YALPIning o'sish sur'ati me'yor darajasi ekanligi va bu ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga xizmat qilayotgani, tadbirkorlikni rivojlantirish

⁹² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Statistika agentligi (stat.uz) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

maqsadida qabul qilinayotgan davlat dasturlarini samarali amalga oshirilayotganidan darak beradi.



3.5-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni YaIMdagi ulushi⁹³, (foizda).

-rasm ma'lumotlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi 2017 yildan pasayish tendensiyasini ko'rishimiz mumkin. Lekin, 2020 yilda tadbirkorlik sub'ektlari soni 436 981 tani tashkil etdi, bu ko'rsatkich 2019 yilda 353 921 ta bo'lgan. Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining YAIM dagi ulushi miqdoran ortib, sifati ham yaxshilanmoqda. Ular tomonidan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushum, 2017 yilda 110 347,9 mlrd. so'm, 2018 yilda 184 609,6 mlrd. so'm, 2019 yilda 249 862, mlrd. so'm, 2020 yilda 283 972,4 mlrd. so'mni tashkil etgan. Bu ma'lumotlar mamlakatimizda YAIM miqdoran oshayotganligi, iqtisodiyotimizni tez sur'atlarda kattalashayotganini ifodalaydi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida YaIMni o'sishi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kengayishiga imkon berayotgani, tadbirkorlikni dastlabki ijtimoiy funksiyasi samaradorligini ortishiga xizmat qilishiga dalolat qiladi.

Bozor iqtisodiyoti bevosita raqobat kurashiga asoslangan iqtisodiy tizim, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishi erkin raqobat muhitini talab qiladi. Raqobatni mavjudligi yangi tadbirkorlarni paydo bo'lishi, yangi ish o'rinalarini ochilishiga imkon beradi. Yirik korxonalar o'zlarining ko'lam kattalik samaradorligi (scale effect, effekt masshtaba) hisobiga raqobatda ustunlikka ega

⁹³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Statistika agentligi (stat.uz) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

bo‘lsa, kichik biznesni raqobatdagi ustunligi uning moslashuvchanligi va kichik talabni ham qondirishga tayyorligida. Kichik tadbirkorlik sub’ektlari raqobat kurashi jarayonida narxsiz raqobat usullaridan foydalangan holda tovar va xizmatlar sifatini yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Ijtimoiy tadbirkorlik asoschilaridan hisoblangan Muxammad Yunus aytadi “U bozorda barcha boshqa raqobatchilar bilan raqobatlashadi, uning ustunligi, rag‘bati ijtimoiy maqsadni ko‘zlaganligi. Bu biznesda bo‘lishining asosiy sababidir”⁹⁴. O‘z maqsadlari ichida ijtimoiy fuksiyalar joy olgan tadbirkor, o‘zi manfaat topishi bilan bir qatorda ishchilar va boshqalarga keltirayotgan nafi unga kuch beradi.

Tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyalaridan biri bu yangi ish joylarni tashkil qilish hisoblanadi. Ushbu funksiyani bajarish uchun tadbirkorlik sub’ektiga mablag‘ kerak, bu bevosita o‘z foydasi, qarz mablag‘lari, kredit mablag‘lari va investitsiyalar shaklida bo‘lishi mumkin.

Yangi ish o‘rinlarini yaratish har bir mamlakat hukumati oldida turgan dolzarb masala hisoblanadi. Yangi ish joylarini tashkil qilish dastur samaradorligi va uning qiymatiga borib taqaladi. Bir dona bo‘sh ish o‘rnini yaratish uchun qancha mablag‘ talab etilishi iqtisodchilar tomonidan tadqiq etiladi. Mazkur masala bo‘yicha Jahon banki ham o‘z tadqiqotlarida ham o‘z ifodasini topgan. AQShda Crimson Cup Coffee o‘tirib kofe ichadigan joyni ochish uchun 80 000 dan 250 000 ming AQSH dollarigacha mablag‘ sarflaydi. Xarajatlar ijara haqi, ish haqi va imtiyozlar, arxitektor va yurist xizmatlari, jihozlar, hom-ashyo, soliq, foyda va boshqalarni o‘z ichiga olgan. Odatda kafeda uchtadan beshtagacha odam ishlaydi, bu bir ishchi o‘rnini yaratish uchun 25 000 – 35 000 AQSH dollari talab etilishini bildiradi⁹⁵.

Mamlakatimizda aholisini demografik o‘sib borishi yangi bo‘sh ish o‘rinlarini tashkil qilishni dolzarb masalaga aylantiradi. Har yili iqtisodiyotga milliondan ziyod mehnat resurslari kirib keladi, bu hukumatga bandlik masalasida samarali siyostani,

⁹⁴ Юнус, Мухамад (2007). Banker to the poor./ Банкир бедным/. Нью-Йорк: Общественные аффири. С.251. ISBN 9781586481988.

⁹⁵ Сколько стоит создание работы? (worldbank.org)

yangi ish o‘rinlarini tashkil qilish bo‘yicha yangi loyiha va dasturlarni hayotga tadbiq etishga undaydi.

2021 yil dastlabki 9 oyligida 41 trillion so‘mlik 9933 ta loyiha asosida 116,3 mingta yangi ish o‘rinlari yaratilgan. Tarmoqlar kesimida:

- sanoat yo‘nalishida 2626 ta loyihada 53,3 mingta;
- xizmat ko‘rsatish yo‘nalishida 4359 ta loyihada 38,9 mingta;
- qishloq xo‘jaligi yo‘nalishida 2948 ta loyihada 24,1 ming ish o‘rnini yaratilgan⁹⁶.

Olingen ma’lumotlar asosida mamlakatimizda 2021 yilda 9933 ta loyiha asosida yaratilgan har bir ish o‘rinlarining o‘rtacha narxi tahminan 353 mln. so‘mga tushgan. Yangi tashkil qilingan bo‘sh ish o‘rnining qiymati rivojlangan davlatlardagi narlarga yaqinligi mamlakatimizda texnologik rivojlanishga intilishni ifodalaydi. Lekin har yili iqtisodiyotga kirib kelayotgan yuz minglab mehnat resurslarini band qilish uchun yuqoridagi narxlarda yangi ish o‘rinlarini yaratish albatta har qanday iqtisodiyot uchun ham murakkab masala.

Mazkur murakkab masalani sodda yechimi sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik maydonga chiqadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning avfzalliklaridan biri yangi bo‘sh ish o‘rinlarini yaratishda nisbatan kam mablag‘ talab etadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari yangi ish o‘rinlarini tashkil qilishda o‘zlarining shaxsiy mulklari, binolari, transport vositalari, boshqa resurs va imkoniyatlaridan samarali foydalanishga intiladi.

Hukumat tomonidan, ishsiz aholini, xususan yoshlarni tadbirkorlikka va o‘zini o‘zi band qilib ishlash faoliyatiga jalb qilish maqsadida ularni kasb-hunarga o‘qitish, tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish va faoliyatlarini boshlashi uchun 7 mln. so‘mgacha bo‘lgan asbob-uskuna va mehnat quollarini xarid qilishga subsidiyalar ajratilmoqda.

Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi hisobidan ajratilgan subsidiyalar hisobiga 2019 yilda 12 926 ta ishsiz ish bilan band qilindi, sarflangan

⁹⁶ Ўзбекистонда худудий инвестиция дастурлари доирасида 110 минг иш ўрни яратилди – [Bugun.uz](#)

mablag‘ 12166,5 million so‘mni tashkil etdi. Keltirilgan ma’lumotlar asosida 2019 yilda subsidiyalash orqali 1 ishchi o‘rnini yaratish uchun o‘rtacha 941 242 so‘m sarflangan. 2020 yilda esa 70 115 ta ishsizni ish bilan band qilishga 172 742,4 million so‘m sarflandi. Bu 2020 yilda subsidiyalash orqali 1 ishchi o‘rnini yaratish uchun o‘rtacha 2 463 701 so‘m sarflanganligini ifodalaydi (3.3-jadval).

3.3-jadval

2019-2020 yillar mobaynida subsidiya ajratish asosida bandligi ta’milangan fuqarolar soni⁹⁷

№	Hudud nomi	2019 yil		2020 yil	
		Bandligi ta’milanganlarsoni	Ajratilgan subsidiya miqdori (mln.so‘mda)	Bandligi ta’milanganlar soni	Ajratilgan subsidiya miqdori (mln.so‘mda)
Respublika jami:	12 926	12 166,5	70 115	172 742,4	
1 Qoraqalpog‘iston R.	600	641,1	6 383	14 368,4	
2 Andijon viloyati	1 020	798,2	7 327	15 063,9	
3 Buxoro viloyati	1 907	2 228,7	4 455	13 829,9	
4 Jizzax viloyati	458	315,0	3 792	6 682,5	
5 Qashqadaryo viloyati	1 242	564,3	4 237	10 277,2	
6 Navoiy viloyati	1 159	1 078,8	3 914	7 873,6	
7 Namangan viloyati	1 865	1 748,8	7 872	25 560,8	
8 Samarqand viloyati	761	720,1	6 941	17 332,3	
9 Surxondaryo viloyati	900	1 172,7	7 633	19 923,5	
10 Sirdaryo viloyati	597	444,2	3 878	10 046,2	
11 Toshkent viloyati	944	1 107,5	2 973	6 780,3	
12 Farg‘ona viloyati	754	714,7	5 522	14 533,2	
13 Xorazm viloyati	631	592,3	4 921	9 790,7	
14 Toshkent shaxri	88	40,1	267	680,0	

Tadbirkorlikni rivojlantirish, yoshlarni tadbirkorlikka jalg‘ etish mamlakatimizning barcha hududlarida amalga oshirilayotganligi jadval ma’lumotlarida o‘z ifodasini topgan.

Shaxsiy tomorqadan samarali foydalanish orqali o‘zini o‘zi band qilish istagida bo‘lgan aholiga yengil konstruksiyali issiqxonalar o‘rnatish uchun bazaviy hisoblash miqdorining 30 baravarigacha (01.06.2022 yildan 300 000 so‘m qilib belgilandi), sug‘orish vositalari xarid qilish uchun 10 baravarigacha, urug‘liklar va ko‘chatlar sotib olish uchun 3 baravarigacha bo‘lgan miqdorda subsidiyalar ajratildi.

⁹⁷ Банлик вазирлиги маълумотлари

Mazkur yengil konstruksiyali issiqxonada faqat bir nafar inson band bo‘ladi deb faraz qilsak, bir ish o‘rni tahminan 9 mln. so‘mga, ikki nafar ishchi band bo‘lsa, bir ish o‘rni 4,5 mln. so‘mga to‘g‘ri keladi.

Bizlarning gipotezali hisob-kitobimizga ko‘ra bir bo‘sh ish o‘rni tadbirkorlik sektorida 6 mln. so‘m deb hisoblanimizda ham yirik loyihalarga nisbatan o‘rtacha 58 marotaba arzon bo‘lish ehtimoli mavjud. Yoki bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi hisobidan ajratilgan subsidiyalar hisobiga tashkil qilingan ish o‘rinlari qiymatini 3 mln. so‘m hisoblaganimizda, yirik loyihalar asosida yaratilgan ish o‘rinlaridan 117 barobar arzonga tushmoqda. Ya’ni kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sektorida, yirik loyihalar asosida yaratilgan bir bo‘sh ish o‘riniga sarflanayotgan mablag‘ evaziga 50-100 nafar bo‘sh ish o‘rinlarini tashkil etish mumkin bo‘ladi.

Zamonaviy texnik va texnologik asosga ega korxonalarini tashkil etish yuqori malakali mutaxassislarini ish bilan band qilish imkonini beradi. Dunyo miqesida raqobatbardosh eksportga yo‘naltiriladigan tovar va hizmatlar ishlab chiqarish imkonini beradi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tizimida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik sub’ektlari dastlabki bosqichda o‘z faoliyatlarini mahalliy, ichki talablarni qondirishga yo‘naltiradi.

Jamiyat uchun bo‘sh ish o‘rinlarini tashkil qilishda har ikkala yondashuvni ham ijobiy hisoblaymiz. Faqat ularni tashkil qilish va amal qilish mexanizmini takomillashtirib, samaradorlikni ta’minlanishiga erishish kerak.

Yuqorida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rag‘batlantirish yo‘li bilan, ularni tashkil etish orqali tadbirkorlikni birinchi ijtimoiy funksiyasini amal qilish mexanizmini ko‘rdik. Tadbirkorlikni ijtimoiy funksiyasining navbatdagi masalasi, tadbirkorlikdan keladigan daromad va ish haqi darajasi hisoblanadi.

Tadbirkorlik faoliyatini samarali deb bilishimiz uchun u me’yordagi foydaga erishishi kerak. Bu shunday foydaki, tadbirkor o‘z faoliyatini davom ettirishga tayyor bo‘lgan miqdor ko‘rsatkichi.

3.4-jadval

Kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi⁹⁸

Nº	Mazmuni	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil
1	Ro‘yxatdan o‘tganlari soni	242379	276237	353921	436981
2	Faoliyat ko‘rsatayotganlari	229666	262930	334767	411203
3	Faoliyat ko‘rsatmayotganlari	12713	13307	19154	25778
4	Jamiga nisbatan faoliyat ko‘rsatmayotganlari, %	5,2	4,8	5,4	5,9
5	Yangi tashkil etilgan	38167	48922	92874	93214
6	Faoliyati to‘gatilganlari	-	15064	15190	10154
7	Yangi ochilganlarga nisbatan faoliyati to‘gatilganlari, %	0	30,8	16,4	10,9

Jadval ma’lumotlariga e’tibor qaratsak 2021 yil boshida kichik korxona va mikrofirmalar soni 436981 tani tashkil qilgan, ulardan 25778 tasi faoliyat yuritmayotganlari hisoblanib, umumiya nisbatan deyarli 6% ni tashkil qiladi. Yangi tashkil qilinganlar 93214 tani bo‘lsa, faoliyati tugatilganlar 10154 tani yoki 10,9% ni tashkil qiladi. Tadbirkorlik faoliyatini tugatish tendensiyasi 2018 – 2020 yillar davomida 30,8 % dan 10,9 % ga tushgani bu umumi holda tadbirkorlikka nisbatan rag‘bat va qiziqishni o‘sishini ifodalaydi.

3.5-jadval

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning foyda dinamikasi⁹⁹

Nº	Mazmuni	2017 yil	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021
1	Iqtisodiyotdagi o‘rtacha oylik ish haqi, (nominal so‘m)	1251538,0	1542598,3	1946778,3	2227141,2	*
2	Aholi umumi daromadlari (mlrd.so‘m)	236893,1	300842,7	365735,6	415085,0	*
3	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni foydasи (foyda solig‘i to‘lamasdan avval, mlrd. so‘m)	13042,5	26365,6	22798,0	15963,3	23070,0

⁹⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Statistika agentligi (stat.uz) ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

⁹⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Statistika agentligi (stat.uz) ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

4	Kichik biznes sub'ektlari (faoliyat ko'rsatayotgan)	229666	262930	334767	411203	462834
5	Bir dona kichik tadbirkorlikning o'rtacha yillik foydasi (mln. so'm)	56788,9	100276,1	68101,1	38820,9	

Jadval ma'lumotlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, kichik tadbirkorlik sektori o'rtacha yillik foydasi 2019 yilga nisbatan 2020 yilda 43% pasaygan, biz buni jahonda yuz bergan “Kovid-2019” pandemiyasini sabab qilib ko'rsatishimiz mumkin. 2020 yil holatiga ham tadbirkorlik sektori tomonidan olingan foyda 38820,9 mln. so'mni 12 oyga taqsimlaganimizda, har oyga o'rtacha 3235075 so'mni tashkil qiladi. Bu anashu davrdagi o'rtacha oylik maoshidan yuqori ekanligini inobatga olsak, ushbu faoliyat turini samarali deb baho berishimizga asos bo'ladi.

Biz yuqorida keltirilgan ma'lumotlarda tadbirkorlar foydasi bilan tanishib chiqdik. Ular tomonidan yollanib ishlatalayotgan ishchilar uchun ham maqbul ish haqini tashkil etilishi mehnat unumдорлиги va tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirishga asos bo'ladi.

O'zbekistonda mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori o'sib bormoqda 2019 yilda 634880 so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2022 yilda 920000 so'mga yetdi. Bu tadbirkorlik sub'ekti tomonidan yollangan ishchi to'liq stavkada ishlaganda uning bir oylik maoshi 920000 so'mdan kam bo'lmasligi kerak.

3.2-§. Davlat va xususiy sektor hamkorligi doirasida tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasini amalga oshirish mexanizlarini takomillashtirish

Jahon ijtimoiy-iqtisodiy sahnida ro'y berayotgan innovatsion o'zgarishlar, modernizatsiya va difersifikatsiya jarayonlari barcha bozor sub'ektlarini davr talabiga intensiv ravishda moslashishni talab etmoqda. Bu jarayonlar davlat, xususiy sektor va aholiga ham bir hilda chaqiruv, ya'ni ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga tayyor bo'lishni, aks holda tanazulga yuz tutishi muqarrarligidir.

Bozor iqtisodiyotida xususiy mulkchilik ustivor ahamiyatga ega, jamiyatda amalga oshiriladigan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning faol ishtirokchisi hisoblanadi.

Mamlakatimizda xususiy sektorni rivojlantirishga katta ahamiyat qaratilmoqda, hattoki davlatni samarali amal qilishiga xizmat qiladigan, davlat mulki ob'ektlariga jalb etilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 7.12.2020 yildagi “Davlat tomonidan tartibga solinadigan sohalarga xususiy sektorni jalb etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”¹⁰⁰gi qarori buning asosidir.

Davlatning ma'lum funksiyalarini tadbirkorlik sektoriga o'tkazilishi, biznes uchun imkoniyatlar yaratadi. Bunda autsorsing, sertifikatlashtirish va boshqa usullar orqali bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Davlat funksiyalarini xususiy sektorga o'tkazish bir nechta bosqichda kompleks amalga oshirilishi nazarda tutilgan.

3.6-jadval

Davlat funksiyalarini xususiy sektorga o'tkazish tartibi¹⁰⁰

Amalga oshiriladigan tadbirlar	Mas'ul tashkilotlar
Xususiy sektorga o'tkazish uchun davlat funksiyalarini har yili tanlab olish.	Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi tomonidan manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda.
Xususiy sektor bozori davlat funksiyalarini amalga oshirish uchun tayyorligini tahlil qilish.	Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda SSP.
Davlat funksiyalarini xususiy sektorga o'tkazishni nazarda tutuvchi NHH loyihasini ishlab chiqish.	Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda Adliya vazirligi.
Davlat funksiyalari o'tkazilishi munosabati bilan tegishli davlat organining shtat birliklarini maqbullashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.	Moliya vazirligi, Mehnat vazirligi hamda Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi.

Davlat funksiyalarini xususiy sektorga o'tkazish tajribasi 2021 yildan boshlangan. Ko'chmas mulk ob'ektlariga birlamchi kadastr yig'ma jildini tayyorlash Kadastr agentligidan malaka shahodatnomasi olgan kadastr muhandislari yakka tartibdagi tadbirkor sifatida amalga oshirishlari mumkin, jarayon Kadastr agentligi tomonidan monitoring qilib boriladi. Kadastr yig'ma jildini tayyorlash

¹⁰⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat tomonidan tartibga solinadigan sohalarga xususiy sektorni jalb etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Qarori, 7 dekabr 2020 yil, PQ-4913-son (lex.uz)

bo‘yicha xizmat narxlari tadbirkor tomonidan mustaqil ravishda Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan minimal stavkalardan kam bo‘lmagan summada belgilanadi, tushgan mablag‘lar to‘liq hajmda uning tasarrufida qoladi.

Shuningdek, davlat tomonidan avtomototransport vositalari va shahar elektr transporti vositalari haydovchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo‘yicha nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyati uchun litsenziyaga ega bo‘lgan tadbirkorlik sub’ektlariga haydovchilik guvohnomasini olish uchun nazariy va amaliy imtihonlarni o‘tkazish va tegishli guvohnoma berish imkoniyati berildi.

Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashni yana bir ko‘rinishi bu davlat-xususiy sherikligi institutidir. Mazkur institut dastavval AQShda ta’lim dasturlarini davlat va xususiy sektorning birgalikda moliyalashtirishi ko‘rinishida o‘zini namoyon etgan.


Davlat-xususiy sherikchiligi iqtisodiy rivojlanish va insonlar turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiluvchi infratuzilmani, shakllantirish hamda rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib hizmat qiladi. DXSH instituti davlatlar iqtisodiyotiga turli davrlarda kirib kelgan, masalan, Buyuk Britaniya, Kanada va Avstraliyada 1990 yillarda, Xindiston va Germaniyada 2000 yillarda shakllangan.

Avval boshida DXShni joriy etishdan ko‘zlangan maqsad budget xarajatlarini qisqartirishga qaratilgan. Keyinchalik bu tamoyil o‘zgarib samaradorlik asosiy o‘ringa chiqdi.

Mamlakatimizda davlat-xususiy sherikligi asosida tadbirkorlikni rivojlantirishning huquqiy asosi sifatida “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 10 may 2019 yil 537-son bilan mustahkamlangan.

DXSH sub’ektlari birinchi tomoni sifatida, davlat boshqaruvi, hududiy hukumat organlari va Vazirlar Mahkamasi tomonidan vakolatlangan boshqa davlat tashkilotlari hisoblansa. Ikkinci tomondan, xususiy sherik bo‘lib, yuridik yoki jismoniy shaxslar, davlat-xususiy sherikligini tuzgan yoki tuzish istagida bo‘lgan xalqaro tashkilotlar bo‘lishi mumkin.

Davlat-xususiy sherikligi amalga oshiriladigan sohalar




3.6-rasm. Davlat-xususiy sherikligi amalga oshiriladigan soha va yo'nalishlar¹⁰¹.

Rasmga e'tibor qaratadigan bo'lsak, iqtisodiyotning har qanday soha va yo'nalishlarida davlat-xususiy sherikchiligi asosida faoliyat yuritishi mumkin.

Davlat va tadbikorlik sektori hamkorligi loyihalashtirish, moliyalashtirish, qurilish, tiklash, ilmiy tadqiqotlar, xizmat ko'rsatish, ekspluatatsiya va ishonchli boshqaruvni amalga oshirish kabi yo'nalishlarida amalga oshirilishi mumkin.

¹⁰¹ Muallif ishlanmasi.

Davlat xususiy sherikchiligi: davlat va xususiy investitsiyaning o‘zaro manfaatli hamkorligini ifodalaydi.



3.7-rasm. DXSH ni amal qilish mexanizmi¹⁰².

3.7-rasmda DXSH ni amal qilish mexanizmi o‘z ifodasini topgan. Mazkur jarayonni amalga oshirilishi iqtisodiyotga, jumladan tadbirkorlik sub'ektlariga yangi yo‘nalish va imkoniyatlarni ochib beradi. Mazkur hamkorlik har ikkala tomoniga ham manfaatli bo‘ladi:

- ikki tomon imkoniyatlaridan kelib chiqib, infratuzilma yechimlarida nisbiy ustunlikka erishiladi;
- loyihalarni tez va sifatli yakuniga yetkazish va foydani taqsimlash imkoniyati;

¹⁰² Muallif tomonidan tuzildi.

- DXSH loyihalarining rentabellik darajasi ortadi, tomonlar birlashuvi innovatsion yondashuv va moliyalashtirishni soddalashtiradi;
- loyihaning dastlabki bosqichlarida riskni baholash va o‘zaro taqsimlanishi;
- xususiy sektor tajribasi asosida xarajatlar o‘sishini oldini olish;
- ryentabellikni oshirish va amalga oshirish muddatlarini qisqarishi natijasida davlat investitsiyalarini samaradorligini oshirish;
- samaradorlikni o‘sishi hisobiga erishilgan davlat mablag‘larini boshqa ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga taqsimlash;
- xarajatlar samaradorligini ortishi natijasida budget defitsitini qisqarishi va boshqalar.

DXSH ni yana bir xususiyati xususiylashtirish jarayonining muqobili sifatida qaralishi mumkin. Davlat uchun ahamiyati yuqori darajada bo‘lgan mulk ob’ektlarini xususiylashtirish imkonini bo‘lmagan ob’ektlarda ham DXShni tuzish mumkin. Shuningdek, aholi iste’moli uchun arzon narxlarda yetkazib berilayotgan suv, gaz ta’minoti kabi tabiy monopoliya ob’ektlarida ham DXShni joriy qilish orqali ijtimoiy funksiyalarni samarali amal qilinishiga erishilishi mumkin.

Mamlakatimizda DXSH ni rivojlantirish bo‘yicha agentlik va vazirlik, qo‘mita ekspertlari o‘zlariga ta’luqli bo‘lgan loyihalarni, ularni amlga oshirish tartiblarini o‘rganadi va uning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari tahlil qiladilar. Loyihalarni amalga oshirilishi tomonlar majburiyatları monitoringi va samaradorligi kuzatib boriladi.

Xususiy sherik sifatida faoliyat olib borayotgan tadbirkorga loyihasini amalga oshirish uchun davlat kafolatlari va davlat iqtisodiy ko‘magi taqdim etiladi (3.7-jadval).

3.7-jadval

Tadbirkorlik sub'ektiga DXSH doirasida ko'rsatiladigan yordam¹⁰³

Davlat moliyaviy yordami	Davlat iqtisodiy yordami	Davlat kafolati
<p>Imtiyozli kreditlar va qarz mablag'lar taqdim etish;</p> <p>Kafolatlar berish;</p> <p>Davlat- xususiy sherikligi loyihamini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan vositalarning bir qismini moliyalashtirish;</p> <p>Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni kechiktirish, bo'lib to'lash va imtiyozlarni ta'minlash.</p>	<p>Dalat mulkidan foydalanish uchun ijara to'loving imtiyozli stavkalarini belgilash;</p> <p>To'g'ridan-to'g'ri davlat-xususiy sheriklik loyihamini amalga oshirish bilan bog'liq bo'limgan faoliyatdan foya olish huquqini taqdim etish.</p>	<p>Davlat sherigining xususiy sherik faoliyatiga aralashmasligi; xususiy sherik mulkini natsionalizatsiya, rekvizitsiya va musodara qilishdan himoya qilish;</p> <p>Davlat- xususiy sherikligi loyihasiga kirgizilgan investitsiyalar va ulardan tushgan foydaga ega bo'lish, foydalanish va tasarruf etish uchun bo'lgan huquq;</p> <p>Davlat organlarining noqonuniy qarorlari, ularning mansabdar shaxslari xarakatlari (xarakatsizligi) sababli xususiy sherikka yetkazilgan zararning qoplanishiga bo'lgan huquq;</p> <p>Shartnomalarining qayta ko'rinishiga, xususiy sherik uchun loyiha shartlarining yomonlashuviga olib keluvchi normativ-qonuniy hujjatlar qabul qilinganda uni erta tugatishga bo'lgan huquqi kabilarni ta'minlash.</p>

Hozirgi paytda juda ko'p yoshlarni ta'lim bilan qamrab olish masalasi o'ta dolzarb bo'lib turganligi bilan bog'liqligini ko'rish mumkin. Ushbu yoshlarni ta'lim bilan qamrovini oshirishga oid ishlarni paysalga solib bo'lmaydi. Shu tufayli investorlar va davlatning imkoniyatlarini birlashtirgan holda tezlik bilan ta'lim sohasining sonini ko'paytirishga va bir vaqtning o'zida moddiy-texnika bazasini rivojlantirishga to'g'ri kelmoqda. Shu tufayli, ushbu ishtirokchilar ichida aholining mavjudligi, aynan ta'lim sohasini rivojlantirishdan ikki tomonlama manfaatdorligini ta'minlaydi. Avvalo xususiy sektor o'zlarining mablag'larini ishga solib, foya olishga intilsa, ikkinchidan, yoshlarning ta'lim bilan qamrovini oshirishga va ta'lim sifatining yaxshilanishiga xizmat qiladi.

¹⁰³ https://www.norma.uz/uz/nhh_loyihalari/davlatxususiy_sherikligi_16_ta_sohada_amalga_oshiriladi?ysclid=latjdr697p815350822

DXSH sub'ektlarning birlashishida manfaatdorlik mavjud. Tadqiqotlarimiz ko'rsatdiki, davlat va xususiy sheriklikdan faqat xususiy mulkdorlar (investorlar va tadbirkorlar) emas, balki davlat ham, aholi ham manfaatdordir. Xususan, investorlar o'zlarining mablag'ini investitsiya qilib, tegishli foyda olishga erishsa, tadbirkorlar o'zlarining tadbirkorlik faoliyati evaziga foyda oladilar. Davlatning manfaatdorligi, bevosita aholi manfaatdorligi bilan qo'shilib ketadi. YAngi ish joylari yaratilib, bandlik masalasida ijobiy o'zgarishlar ro'y beradi, ish bilan band bo'lganlarning daromadlari evaziga davlat budgetiga soliq va boshqa majburiy to'lovlar tushishi ortadi. Ishsizlarning ish o'rinaligiga ega bo'lishi evaziga jamiyatimizda kambag'allik qisqaradi va aholining farovonligini oshirish imkoniyati yaratiladi.

Yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrovini oshirishga manfaatdorlik prinsipi ta'lim sohasi uchun juda muhimdir. Mazkur prinsip asosan oliy ta'lim tizimiga xos bo'lgan prinsiplardan biri bo'lib, hozirgi paytda davlat siyosatining amalga oshirilishiga ta'lluqli bo'lib, 2030 yillarga borib yoshlar qamrov darajasi 50 foizga yetishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ta'lim sifatini oshirish ham ustuvor vazifalar sirasiga kiradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida 2021 yil 16 iyun kuni oliy ta'lim tizimidagi ustuvor vazifalarga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida oliy o'quv yurtlarining soni "oxirgi 3 yilda 65 tadan 117 taga yetdi, qabul o'rinnari 66 mingtadan 181 mingtaga oshdi. Ularning moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi. Xorijiy mamlakatlar bilan qo'shma ta'lim dasturlari doirasida 64 ta yangi kasb bo'yicha mutaxassislar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Professor-o'qituvchilarning maoshi o'rtacha 3,5 baravarga oshirildi. Lekin, sifat borasida o'zgarishlar hali sezilmayapti", deb ta'kidlandi. Oliy ta'lim muassasalarining sonini, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish uchun zamonaviy raqobatbardosh oliy maktablarni ko'paytirish zaruratini tug'dirdi. Bu esa, o'z navbatida, sohani DXSH asosida rivojlantirishni taqozo qiladi.

Jamiyat talabiga mos raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash prinsipini amalga oshirish uchun taklifni talabga moslashtirgan holda tayyorlash lozimligi ham ob'ektiv zaruratga aylanib bormoqda. Chunki ko'p hollarda eng kerak mutaxassislar yetishmay qolgan bir pallada, oliy ta'limni bitirib ish topa olmaydigan talaba va

mutaxassislar ham mavjudligi sir emas. Shu tufayli hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan jamiyatga mos yangi-yangi kadrlarni tayyorlashga to‘g‘ri kelmoqda. Bu murakkab vaziyatdan chiqish uchun ham DXSH asosida xorijiy tajribalarga asoslangan yangi texnologiyalarga mos oliv ta’lim muassasalarini tashkil qilishni taqozo qiladi.

Oliy ta’limning moliyaviy mustaqilligini ta’minlashga qaratilgan DXShni joriy qilish prinsipini ham kuchaytirish lozim. Hozirgi kunda mamlakatimizda oliy ta’lim tizimiga mustaqillik berilmoqda. Xuddi shu prinsipda DXSH asosidagi oliy ta’lim muassasalari ko‘payadigan bo‘lsa, ular o‘rtasida raqobat muhiti ham shakllanadi. Bu ta’lim xizmatlarining samaradorligini oshirish va sifatini yaxshilagan holda ushbu tizimning rivojlanishi uchun muhim omillardan biri hisoblanadi.

Oliy ta’limda ilmiy salohiyatni muntazam oshirib borishga qaratilgan innovatsion omillardan keng foydalanish prinsipi. Ushbu prinsipni amalga oshirish hozirgi kunda juda muhim ahamiyatga ega. Chunki hozirgi sharoitda ko‘plab dissertatsiyalar kafedradan, undan keyin seminarda va oxirgi bosqich bo‘lgan ishning himoyasi to‘g‘risida e’lon qilish masalalari o‘rtasidagi muddatlarni qisqartirgan holda ishni ko‘rib chiqishni tezlashtirishni taqozo qiladi. Ushbu holat tayyor bo‘lgan dissertatsiya mualliflarining tezroq natijaga erishishi va mamlakatimizda ilmiy salohiyatni ko‘tarishga xizmat qiladi.

Oliy ta’lim tizimida qog‘ozbozlikni kamaytirishga qaratilgan sohani raqamlashtirishni joriy qilish prinsipi ham hozirgi sharoitda muhim ahamiyatga ega. Chunki shu yo‘l bilan oliy ta’limdagi byurokratiya va korrupsiyaning keskin qisqarishiga erishish mumkin bo‘ladi. Ushbu prinsipning yana bir mohiyati shundaki, hozirgi paytda professor-o‘qituvchilarning juda ko‘p vaqt turli qog‘ozlarni to‘ldirishga ketmoqda va shu bilan faqat vaqt emas, balki bir qancha qog‘ozlarning ham isrof bo‘lishiga olib kelmoqda. Sohani raqamlashtirishning juda ko‘p qulayliklari bor. Birinchidan, ilmning o‘qituvchilardan iste’molchilarga yetkazib berilishi tezlashsa, ikkinchidan, ortiqcha qog‘ozbozlikka ham barham

beriladi. Ammo bunday ta’lim texnologiyalari joriy qilinishiga o‘qituvchilar bilan birga talabalar ham tayyor bo‘lishligini taqozo qiladi.

Oliy ta’lim muassasalariga akademik va tashkiliy-boshqaruv bo‘yicha mustaqil qaror qabul qilish vakolatini berish prinsipining ham joriy qilinishi sohani samarali boshqarish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu prinsipning amaliyotga joriy qilinishi oliy o‘quv yurtlarining talabalarga shunchaki diplom berishini ta’minalash emas, balki ularni jamiyatga kerakli kadr qilib tarbiyalashni taqozo qiladi. Shundagina talabalarning ertangi kunda nima bilan shug‘ullanishi aniq bo‘ladi va ular ishonch bilan manzilli tayyorgarlik ko‘radi.

Aynan ushbu jarayonlarni amalga oshirish uchun bugungi kunda ta’lim tizimida ham DXShni rivojlantirish imkoniyati paydo bo‘ldi.

3.8-jadval

DXSH loyihasining konsepsiyasini tasdiqlash uchun yondashuvlar va ularni ryestrga kiritish tartibi¹⁰⁴

Davlat-xususiy sheriklik loyihasining konsepsiyasini tasdiqlash	
Bir million AQSH dollariga qadar	Tegishli davlat organi (tashkiloti) tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi.
Bir million AQSH dollaridan ortiq va o‘n million AQSH dollariga qadar	Tegishli davlat organi (tashkiloti) tomonidan vakolatli davlat organi DXSH agentligi bilan kelishuvga ko‘ra amalga oshiriladi.
O‘n million AQSH dollaridan ortiq	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan amalga oshiriladi.
Davlat-xususiy sheriklik loyihalarining ryestriga kiritilgandan keyin qaror qabul qilish muddati 30 kun	

Ushbu masalaga yondashuvlar ham ta’lim sohasiga xos bo‘lishi kerak. Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida 2021 yilning 16 iyun kuni oliy ta’lim tizimidagi ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan videoelektor yig‘ilishida ta’lim tizimidagi DXShga e’tibor qaratib, “Yotoqxona o‘rinlari sonini oshirish masalasiga ham to‘xtalib o‘tildi. Bugungi kunda talabalar uchun qo‘sishimcha 149 mingta turar joyga ehtiyoj mavjud. Yotoqxonalarni tadbirkorlar bilan xususiy sheriklik asosida tashkil etish uchun oliy ta’lim muassasasi hududidan yoki unga yaqin joydan

¹⁰⁴ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat-xususiy sheriklik loyihalini amalga oshirish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarori, 26 aprel 2020 yil, VMQ-259-son. (lex.uz)

auksion orqali yer ajratilishi belgilandi. Bu binolarning birinchi va ikkinchi qavati biznes uchun tadbirkorlarga berilib, yuqori qavatlari arzon turar joy bo‘ladi. Talabalarga u yerda yashash xarajatlarning 50 foizi budgetdan qoplab beriladi”, deb ta’kidladi. Ko‘rinib turibdiki, DXSH ta’lim tizimida biroz farq qiladi. Shu tufayli shunga mos nizomlar ishlab chiqilishi lozim.

3.3.-§. Tadbirkorlik faoliyatining ijtimoiy funksiyalari asosida iqtisodiy ko‘rsatkichlarni ekonometrik modellashtirish va prognozlash

Har qanday bozor munosabatlariga asoslangan mamlakat iqtisodiyotida ishchi kuchi bandligini ta’minalash, yangi ish o‘rinlarini yaratish, ishsizlikni kamaytirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining o‘rni katta. Bu borada Prezidentimiz o‘z ma’ruzasida “Mamlakatimizda har yili yaratilayotgan ish o‘rinlarining 90 foizi xucuciy cektor hiccaciga to‘g‘ri kelishini ta’kidlash lozim. Hozirgi kunda ushbu tarmoqda 5 milliondan ziyod aholi, ayniqsa, yoshlarimiz mehnat qilayotgani uning nafaqat iqticodiy, balki ijtimoiy hayotimizdagи o‘rni ham ortib borayotganini ko‘rcatadi. Shu boicdan ham agar biz iqticodiyotimizni, ijtimoiy cohani yanada yukcaltiramiz decak, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratib berishimiz zarur”¹⁰⁵ deb alohija ta’kidlab o‘tgan edi.

Endi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan yaratilgan mahsulot miqdorini aniqlashimiz kerak. Buni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi orqali aniqlaymiz. Demak, avvalo nominal YaIMni real YaIMga aylantirishimiz, ya’ni nominal YaIMni inflasiyadan tozalab olishimiz kerak (3.9-jadval).

¹⁰⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklidagi uchrashuvda so‘zlagan nutqi (20.08.2021 yil). <https://xs.uz/uzkr/post/>

3.10-jadval

Nominal YAIM qiymatini real YaIMga aylantirish¹⁰⁶

Yillar	Nominal YAIM miqdori, mlrd.so‘m	Inflyasiya, YAIM deflyatori: bog‘liq qatorlar (yillik, %)	YAIM deflyatori: bog‘liq qatorlar (asos qilib olingan yil = 2021y.)	2021 yilgi narxlarda hisoblangan YAIM miqdori (Real YAIM), mlrd.so‘m (5) = ((2)/(4))×100
1	2	3	4	5
2010	78 936,6	19,9	20,5	384875,9
2011	103 232,6	21,6	24,9	413838,5
2012	127 590,2	15,4	28,8	443230,9
2013	153 311,3	12,0	32,2	475571,5
2014	186 829,5	14,0	36,8	508261,7
2015	221 350,9	10,5	40,6	544951,9
2016	255 421,9	8,9	44,2	577279,4
2017	317 476,4	19,1	52,7	602652,4
2018	424 728,7	27,0	66,9	634924,2
2019	529 391,4	17,9	78,9	671176,2
2020	602 193,0	11,6	88,1	684252,6
2021	734 587,7	13,6	100,0	734587,7

Endi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan yaratilgan real mahsulot miqdorini uni YaIMdagi ulushidan kelib chiqib aniqlaymiz va keyinchalik uning qo‘sish sur’atlarini ham aniqlaymiz (3.11-jadval).

¹⁰⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Statistika agentligi (stat.uz) ma’lumotlari asosida muallif hisob kitoblari.

3.11-jadval

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan yaratilgan real mahsulot miqdori, mlrd.so‘m¹⁰⁷

Yillar	2021 yilgi narxlarda YAIM miqdori (Real YAIM), mlrd.so‘m	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan yaratilgan mahsulot miqdorining YAIMdagi ulushi, foiz	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan yaratilgan mahsulot miqdori, mlrd.so‘m ((4)=(2)×(3) / 100)	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan yaratilgan mahsulot miqdorining qo‘sish sur’ati, foiz
1	2	3	4	5
2010	384876	60,8	234004,6	-
2011	413838,4	61,9	256166	5,2
2012	443231,1	60,8	269484,5	7,5
2013	475571,6	60,9	289623,1	8,6
2014	508261,7	61,9	314614	11,9
2015	544951,9	64,6	352038,9	9,5
2016	577279,3	66,8	385622,6	2,1
2017	602652,3	65,3	393531,9	0,7
2018	634924,3	62,4	396192,8	-5,1
2019	671176,2	56,0	375858,6	1,3
2020	683845,6	55,7	380902	5,9
2021	734587,7	54,9	403288,6	5,2

Endi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan yaratilgan mahsulot hajmini natijaviy ko‘rsatkich sifatida, mamlakatda faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni va bandlar sonini omil ko‘rsatkichlar sifatida qarab, ularning o‘zaro ta’sirini o‘rganamiz (3.12-jadval).

3.12-jadval

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan yaratilgan mahsulot miqdori, uning tarkibida bandlar va faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni¹⁰⁸

Yillar	2021 yilgi narxlarda hisoblangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan yaratilgan mahsulot, mlrd.so‘m	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda bandlar soni, ming kishi	Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, ming birlik
2011	256166,0	8950,7	177,9

¹⁰⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Statistika agentligi (stat.uz) ma’lumotlari asosida muallif hisob kitoblari.

¹⁰⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Statistika agentligi (stat.uz) ma’lumotlari asosida muallif hisob kitoblari.

2012	269484,5	9239,7	177,6
2013	289623,1	9604,0	189,9
2014	314614,0	9950,8	196,0
2015	352038,9	10170,4	207,1
2016	385622,6	10397,5	210,6
2017	393531,9	10541,5	229,7
2018	396192,8	10128,8	262,9
2019	375858,6	10318,9	334,8
2020	380902,0	9865,7	411,2
2021	403288,6	10070,7	462,8

Umuman olganda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda bandlar soni va faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan yaratilgan mahsulotga nisbatan funksiya deb olindi. Buning uchun bu o'zgaruvchilar orasidagi korrelyasiya koeffitsiyenti hisoblandi. O'zgaruvchilar orasidagi korrelyasiya matritsasi quyidagicha (3.13-jadval).

3.13-jadval

O'zgaruvchilar orasidagi korrelyasiya matritsasi¹⁰⁹

	2021 yilgi narxlarda hisoblangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan yaratilgan mahsulot, mlrd.so'm (Y)	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda bandlar soni, ming kishi (X_1)	Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, ming birlik (X_2)
2021 yilgi narxlarda hisoblangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan yaratilgan mahsulot, mlrd.so'm (Y)	1		
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda bandlar soni, ming kishi (X_1)	0,87646871	1	
Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, ming birlik (X_2)	0,649839059	0,314465826	1

¹⁰⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Statistika agentligi (stat.uz) ma'lumotlari asosida muallif hisob kitoblari.

Keyinchilik kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan yaratilgan mahsulot hajmini natijaviy ko'rsatkich sifatida ekonometrik modelga kiritdik va "Y" bilan belgiladik. Funksiyaga ta'sir etuvchi omillar sifatida X_1 - kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda bandlar soni, ming kishi, X_2 - faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, ming birlik qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasining 2011-2021 yillardagi yuqorida ko'rsatilgan ma'lumotlar asosida Microsoft Excel dasturida quyidagi ekonometrik model hisoblandi.

3.14-jadval

Ekonometrik modelning asosiy parametrlari (a);(b);(c);)¹¹⁰

<i>Regression statistika</i>		a)
Ko'p miqdorli R		0,961044
R-kvadrat		0,923606
Norma R-kvadrat		0,904507
Sandart xatolik		16884,21
Kuzatuvlar		11

Yuqoridagidan ko'rishimiz mumkinki, R bu korrelyasiya koeffiyenti bo'lib, u omillar o'rtasidagi bog'lanish zichligini ko'rsatadi. Ya'ni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda bandlar soni, faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni kabi omillar bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan yaratilgan mahsulot hajmi o'rtasidagi bog'lanish zichligi boshqa shart-sharoitlar o'zgarmas bo'lgan holatda 0,96 ga teng ekan. Bu ko'rsatkich ushbu omillar o'rtasida juda kuchli bog'lanish bor ekanligini ko'rsatadi.

Dispersion analiz				b)
	df	SS	MS	F
Regressiya	2	2,76E+10	1,38E+10	48,36004
Qoldiq	8	2,28E+09	2,85E+08	
Jami	10	2,99E+10		

¹¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Statistika agentligi (stat.uz) ma'lumotlari asosida muallif hisob kitoblari.

c)

	<i>Koeffitsiyentlar</i>	<i>Standart xatolik</i>	<i>t-statistika</i>	<i>Past 95%</i>	<i>Yuqori 95%</i>
Ozod had (a)	-537352	110219	-4,87531	-791517	-283186
O‘zgaruvchi (X ₁)	83,06231	11,46393	7,245533	56,62643	109,4982
O‘zgaruvchi (X ₂)	228,839	56,72543	4,034152	98,02995	359,6481

Microsoft Excel dasturidagi hisob-kitoblar natijasida quyidagi ekonometrik modelni tuzdik.

$$Y = -537352 + 83,06231 \times X_1 + 228,839 \times X_2$$

$$R = 0,96 \quad D = R^2 = 0,92 \quad F = 48,4 \quad t\text{-}(Styudent mezoni) = 17,56$$

Modeldan ko‘rinib turibdiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda bandlar sonining 1000 kishiga o‘sishi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan yaratilgan mahsulot hajmini 83,06231 mlrd. so‘mga o‘sishiga, faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar sonining 1000 taga o‘sishi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan yaratilgan mahsulot hajmini 228,839 mlrd. so‘mga o‘sishiga olib kelar ekan.

Endi prognozlashning eng sodda usullaridan biri bo‘lgan trend funksiyasi orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda bandlar soni va faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni o‘sishining funksiyasini yaratishimiz kerak. Bunda trend $y=a_0+b_1 \times t$ funksiyasida o‘zgaruvchilarni yillar qilib olamiz hamda chiziqli funksiya hosil qilamiz. Unga ko‘ra o‘zgaruvchilar yillar (t) hisoblanadi (3.15-jadval).

3.15-jadval

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan yaratilgan mahsulot miqdori, uning tarkibida bandlar va faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni¹¹¹

Yillar	t	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda bandlar soni, ming kishi	Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, ming birlik
2011	1	8950,7	177,9
2012	2	9239,7	177,6
2013	3	9604,0	189,9
2014	4	9950,8	196,0
2015	5	10170,4	207,1
2016	6	10397,5	210,6
2017	7	10541,5	229,7
2018	8	10128,8	262,9
2019	9	10318,9	334,8
2020	10	9865,7	411,2
2021	11	10070,7	462,8

3.15-jadval ma'lumotlari asosida Microsoft Excel dasturida quyidagi ekonometrik model va uning parametrlari aniqlandi (3.16-jadval).

3.16-jadval

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan yaratilgan mahsulotga ta'sir etuvchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda bandlar soni va faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar sonining istiqbolli davr uchun o'sish funksiyasi¹¹²

	a ₀	b ₁	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan yaratilgan mahsulotga ta'sir etuvchi omillar funksiyalari, Y	R (korrelyasiya koef-ti)	F (Fisher mezoni)	t-(Student mezoni)
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda bandlar soni, ming kishi (Y ₁)	9332,11	99,78	Y= 9332,11+ 99,78×t	0,67	7,51	4,26

¹¹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Statistika agentligi (stat.uz) ma'lumotlari asosida muallif hisob kitoblari.

¹¹² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Statistika agentligi (stat.uz) ma'lumotlari asosida muallif hisob kitoblari.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, ming birlik (Y2)	99,10	26,82	$Y = 99,10 + 26,82 \times t$	0,90	37,14	10,08
--	-------	-------	------------------------------	------	-------	-------

Regression model adekvatligi regressiya tenglamasi parametrlari va chiziqli korrelyasiya koeffitsiyentining ahamiyatliligini tekshirish orqali amalga oshiriladi. Buning uchun Styudentning t-me'zonidan foydalaniladi.

t-me'zonning haqiqiy va Styudent jadvalidagi qiymatlarini taqqoslash orqali model adekvatligiga baho beriladi. Model adekvat bo'lishi uchun:

$$t_{haqiqiy} > t_{jadval} \text{ bo'lishi kerak}$$

Styudentning t -mezoni hisoblangan (t_{hisob}) va jadval (t_{jadval}) qiymatlarini taqqoslab, № gipoteza qabul qilinadi. Buning uchun t -mezonning jadval qiymatini tanlangan ishonchlilik ehtimoli (α) va ozodlik darajasi ($d.f. = n - m - 1$) shartlar asosida topiladi. Bu yerda n – kuzatuvlar soni; m – omillar soni .

3.16-jadval ma'lumotlariga asosan ishonchlilik ehtimoli $\alpha = 0,05$ va ozodlik darajasi $d.f.=11-1-1=9$ bo'lganda, t -mezoning jadval qiymati $t_{jadval}=2.26$ ga teng. Barcha hisoblangan t -mezoning qiymatlari jadval qiymatlaridan katta bo'lganligi bois model parametrlari adekvat, deb topiladi.

3.16-jadvaldagagi funksiyalar asosida kichik biznes va xususiy tadbirdorlikda bandlar soni va faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar sonini istiqbolli davr uchun prognoz qilamiz (3.17-jadval).

3.17-jadval

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda bandlar soni va faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar sonining trend funksiyasi orqali aniqlangan prognoz ko‘rsatkichlari¹¹³

Yillar	t	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda bandlar soni, ming kishi	Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, ming birlik
2022	12	10529,5	421,0
2023	13	10629,3	447,8
2024	14	10729,0	474,6
2025	15	10828,8	501,4
2026	16	10928,6	528,3
2027	17	11028,4	555,1
2028	18	11128,2	581,9
2029	19	11227,9	608,7
2030	20	11327,7	635,6

Yuqorida, mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda bandlar soni va faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan yaratilgan mahsulotga nisbatan funksiya deb olinib, Microsoft Excel dasturidagi hisob-kitoblar natijasida quyidagi ekonometrik modelni tuzgan edik.

$$Y = -537352 + 83,06231 \times X_1 + 228,839 \times X_2$$

Endi yuqorida aniqlangan ma’lumotlar sifatida X_1 - kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda bandlar soni, ming kishi, X_2 - faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, ming birlik deb modelga kiritib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan mahsulot ishlab chiqarishning istiqbolli davr uchun qiymatlarini aniqlaymiz (3.18-jadval).

¹¹³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Statistika agentligi (stat.uz) ma’lumotlari asosida muallif hisob kitoblari.

3.18-jadval

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan mahsulot ishlab chiqarishning istiqbolli davr uchun prognoz ko'rsatkichlari¹¹⁴

Yillar	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda bandlar soni, ming kishi	Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, ming birlik	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan yaratilgan mahsulot miqdori, mlrd.so'm (Y)	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan yaratilgan mahsulot miqdorining qo'shimcha o'sish sur'ati, foiz
2022	10529,5	421,0	433585,5	7,5
2023	10629,3	447,8	448011,6	3,3
2024	10729,0	474,6	462437,6	3,2
2025	10828,8	501,4	476863,6	3,1
2026	10928,6	528,3	491289,6	3,0
2027	11028,4	555,1	505715,7	2,9
2028	11128,2	581,9	520141,7	2,9
2029	11227,9	608,7	534567,7	2,8
2030	11327,7	635,6	548993,8	2,7

Jadvaldan ko'rilib turibdiki, 2030 yilda prognoz qilinayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan yaratilgan mahsulot hajmi 548993,8 mlrd.so'mni tashkil qiladi. Agarda bu qiymatni 2021 yildagi qiymat (403288,6 mlrd.so'm) bilan taqqoslasak, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan yaratilgan mahsulot hajmi 1,36 barobardan yuqoriga o'sar ekan. Bizning hisob-kitoblarimiz bo'yicha, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan yaratilgan mahsulotning o'sish sur'ati to'qqiz yillikda barqaror yuqori o'sish tendensiyasiga ega bo'ladi. 2030 yilgacha yillik o'rtacha o'sish sur'ati 3,49 ($1,0349^9 = 1,36$) foizdan yuqori bo'lar ekan.

Nazariy jihatdan olib qaralganda mamlakatda ishsizlik darajasining pasayishiga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining rivojlanganlik darjasini tashkil etadi. So'nggi yillarda yaratilayotgan yangi ish o'rinalining katta salmog'i shu soha hissasiga to'g'ri keladi.

¹¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Statistika agentligi (stat.uz) ma'lumotlari asosida muallif hisob kitoblari.

Shundan kelib chiqib, ishsizlik darajasini natijaviy ko‘rsatkich, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan yaratilgan mahsulotning o‘sish sur’ati esa omil ko‘rsatkich sifatida qaralib, funksiya ishlab chiqildi (3.19-jadval).

3.19-jadval

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan yaratilgan mahsulotning o‘sish sur’ati va mamlakatdagi ishsizlik darjasini o‘rtasidagi bog‘liqlik, foiz¹¹⁵

Yillar	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan yaratilgan mahsulotning o‘sish sur’ati, %	Ishsizlik darjasini, %
2011	9,5	5
2012	5,2	4,9
2013	7,5	4,9
2014	8,6	5,1
2015	11,9	5,2
2016	9,5	5,2
2017	2,1	5,8
2018	0,7	9,3
2019	-5,1	9
2020	1,3	10,5
2021	5,9	9,6

O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasining 2010-2021 yillardagi yuqorida ko‘rsatilgan ma’lumotlar asosida Microsoft Excel dasturida quyidagi ekonometrik model hisoblandi (3.20-jadval).

3.20-jadval

Ekonometrik modelning asosiy parametrlari (a);(b);(c);)¹¹⁶

Regression statistika		a)
Ko‘p miqdorli R		0,689723
R-kvadrat		0,475717
Norma R-kvadrat		0,417464
Sandart xatolik		1,751895
Kuzatuvlar		11

¹¹⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Statistika agentligi (stat.uz) ma’lumotlari asosida muallif hisob kitoblari.

¹¹⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Statistika agentligi (stat.uz) ma’lumotlari asosida muallif hisob kitoblari.

Dispersion analiz				b)
	df	SS	MS	F
Regressiya	1	25,06354	25,06354	8,166315
Qoldiq	9	27,62223	3,069137	
Jami	10	52,68577		

c)					
	Koeffitsiyentlar	Standart xatolik	t-statistika	Past 95%	Yuqori 95%
Ozod had (a)	8,399521	0,779217	10,77943	6,636809	10,16223
O'zgaruvchi (X ₁)	-0,31581	0,110512	-2,85768	-0,5658	-0,06581

Yuqoridagidan ko'rishimiz mumkinki, R bu korrelyasiya koeffiyenti bo'lib, u omillar o'rtasidagi bog'lanish zichligini ko'rsatadi. Ya'ni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan yaratilgan mahsulotning o'sish sur'atining ishsizlik darajasi o'rtasidagi bog'lanish zichligi boshqa shart-sharoitlar o'zgarmas bo'lgan holatda 0,69 ga teng ekan. Bu ko'rsatkich ushbu omillar o'rtasida sezilarli bog'lanish bor ekanligini ko'rsatadi.

Microsoft Excel dasturidagi hisob-kitoblar natijasida quyidagi ekonometrik modelni tuzdik.

$$Y = 8,405924 - 0,31463X_1$$

$$R = 0,69 \quad D = R^2 = 0,476 \quad F = 8,17 \quad t\text{-}(Styudent mezoni) = 5,397$$

Barcha hisoblangan *t*-mezoning qiymatlari jadval qiymatlaridan katta bo'lganligi bois model parametrlari adekvat, deb topiladi.

Modeldan ko'rinish turibdiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan yaratilgan mahsulotning o'sish sur'atining 1 %ga o'sishi ishsizlik darajasining 0,31581%ga kamayishiga olib kelar ekan.


Endi yuqoridagi 3.18-jadvalda aniqlangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan yaratilgan mahsulotning istiqboldagi qo'shimchi o'sish sur'atlarini funksiyaga qo'yib, mamlakatimizda istiqbolda ishsizlik darajasi qanday bo'lishini aniqlaymiz (3.21-jadval).

3.21-jadval

Ishsizlik darajasining kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan yaratilgan mahsulot miqdorining qo'shimcha o'sish sur'ati orqali aniqlangan prognoz ko'rsatkichlari¹¹⁷

Yillar	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan yaratilgan mahsulot miqdorining qo'shimcha o'sish sur'ati, foiz	Ishsizlik darajasi, %
2022	7,3	6,1
2023	3,3	7,4
2024	3,2	7,4
2025	3,1	7,4
2026	3,0	7,5
2027	2,9	7,5
2028	2,8	7,5
2029	2,8	7,5
2030	2,7	7,6

3.21-jadvaldan ko'rinish turibdiki, mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanib borishi natijasida ishsizlik darajasi ham pasayib borib, 2021 yildagi 9,6 foizdan 2030 yilda 7,6 foizga tushar ekan (3.8-rasm).




3.8-rasm. Ishsizlik darajasining aniqlangan prognoz ko'rsatkichlari¹¹⁸

¹¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Statistika agentligi (stat.uz) ma'lumotlari asosida muallif hisob kitoblari.

¹¹⁸ Muallif ishlanmasi.

Mamlakatda kichik korxona va mikrofirmalar sonining ortib borishi ular o'rtaida iqtisodiyotning har qanday jabhasida raqobatni kuchaytiradi. Bu yerda raqobat ishchi kuchi resurslarini jalg etish nuqtai nazaridan ham bo'ladi, ya'ni ishchi kuchi resurslariga bo'lgan talab oshadi. Iqtisodiyot nazariyasi fanidagi qonuniyatlardan kelib chiqadigan bo'lsak, ishchi kuchi resurslariga bo'lgan talabning oshishi o'z navbatida ish haqi darajasini ham oshishiga olib keladi (3.9-rasm).



3.9-rasm. Ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif ta'sirida ish haqining o'zgarishi¹¹⁹

Bu yerda, W (wage) – ish haqi; L (labour) – ishchi kuchi miqdori; L_D – ishchi kuchiga bo'lgan talab; L_S – ishchi kuchi taklifi; E (Equilibrium) – ishchi kuchi bozoridagi muvozanat.

Rasmda ko'rib turganingizdek, boshqa omillar ta'sirida (bizning misolimizda kichik korxona va mikrofirmalar sonining ortishi) ishchi kuchiga bo'lgan talabning ortishi (L_1 dan L_2) ishchi kuchiga bo'lgan talab egri chizig'inинг о'ng tomonga siljishiga olib kelib, natijada ish haqi darajasining oshishiga (W_1 dan W_2) olib keladi.

¹¹⁹ Muallif ishlanmasi.

Tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyalaridan kelib chiqadigan bo‘lsak, mamlakatda faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni bilan aholi daromadlari o‘rtasida to‘g‘ri bog‘liqlik mavjud, ya’ni kichik korxona va mikrofirmalar sonining ortib borishi aholi daromadlarining oshishiga olib keladi. O‘zbekistonda kichik korxona va mikrofirmalar soni yildan yilga ortib bormoqda. Xususan, 2011 yilda faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 177,9 ming birlikni tashkil etgan bo‘lsa, 2021 yilda esa 462,8 ming birlikni tashkil etdi. 2011-2021 yillar oralig‘ida mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 2,6 barobarga o‘sgan (3.22-jadval).

3.22-jadval.

Kichik korxona va mikrofirmalar soni va aholi jon boshiga real umumiylar daromadlar¹²⁰

Yillar	Kichik korxona va mikrofirmalar soni, ming birlik	Aholi jon boshiga real umumiylar daromadlar, ming so‘m
2011	177,9	2729,9
2012	177,6	3267,8
2013	189,9	3902,7
2014	196,0	4472,0
2015	207,1	5127,5
2016	210,6	5887,9
2017	229,7	6681,4
2018	262,9	7767,0
2019	334,8	9509,6
2020	411,2	10734,3
2021	462,8	13416,8

2011 yilda aholi jon boshiga real umumiylar daromadlar miqdori 2729,9 ming so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2021 yilda 2011 yilga nisbatan 4,9 barobardan yuqori o‘sib, 13416,8 ming so‘mni tashkil etdi.

Keyinchalik aholi jon boshiga real umumiylar daromadlar hajmini natijaviy ko‘rsatkich sifatida ekonometrik modelga kiritib, uni “Y” bilan belgiladik. Funksiyaga ta’sir etuvchi omil sifatida X – mamlakatda faoliyat yuritayotgan kichik

¹²⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Statistika agentligi (stat.uz) ma’lumotlari asosida muallif hisob kitoblari.

korxona va mikrofirmalar soni, mingta qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasining 2011-2021 yillardagi yuqoridagi jadvalda ko‘rsatilgan ma’lumotlar asosida Microsoft Excel dasturida quyidagi ekonometrik model hisoblandi (3.23-jadval).

3.23-jadval

Ekonometrik modelning asosiy parametrlari (a);(b);(c);)¹²¹

<i>Regression statistika</i>	a)
Ko‘p miqdorli R	0,97343
R-kvadrat	0,947566
Norma R-kvadrat	0,94174
Sandart xatolik	814,5389
Kuzatuvlar	11

Yuqoridagidan ko‘rishimiz mumkinki, R bu korrelyasiya koeffiyenti bo‘lib, u omillar o‘rtisidagi bog‘lanish zichligini ko‘rsatadi. Ya’ni, omil ko‘rsatkich - mamlakatda faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, natijaviy ko‘rsatkich sifatida aholi jon boshiga real umumiylar daromadlar hajmi o‘rtasidagi bog‘lanish zichligi boshqa shart-sharoitlar o‘zgarmas bo‘lgan holatda 0,973 ga teng ekan. Bu ko‘rsatkich ushbu omillar o‘rtasida juda kuchli bog‘lanish bor ekanligini ko‘rsatadi.

Dispersion analiz				b)
	<i>df</i>	<i>SS</i>	<i>MS</i>	<i>F</i>
Regressiya	1	1,08E+08	1,08E+08	162,6454
Qoldiq	9	5971263	663473,6	
Jami	10	1,14E+08		

¹²¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Statistika agentligi (stat.uz) ma’lumotlari asosida muallif hisob kitoblari.

c)

	<i>Koeffitsiyentlar</i>	<i>Standart xatolik</i>	<i>t-statistika</i>	<i>Past 95%</i>	<i>Yuqori 95%</i>
Ozod had (a)	-1933,44	718,7713	-2,68992	-3559,41	-307,464
O'zgaruvchi (X)	33,12981	2,597754	12,75325	27,25328	39,00633

Microsoft Excel dasturidagi hisob-kitoblar natijasida quyidagi ekonometrik modelni tuzdik.

$$Y = -1933,44 + 33,12981 \times X$$

$$R = 0,973 \quad D = R^2 = 0,948 \quad F = 162,65 \quad t\text{-}(Styudent mezoni) = 26,03$$

Regression model adekvatligi regressiya tenglamasi parametrlari va chiziqli korrelyasiya koeffitsiyentining ahamiyatliliginini tekshirish orqali amalga oshiriladi. Buning uchun Styudentning t-me'zonidan foydalilanadi.

Yuqorida ta'kidlaginmizdek, t-me'zonning haqiqiy va Styudent jadvalidagi qiymatlarini taqqoslash orqali model adekvatligiga baho beriladi. Model adekvat bo'lishi uchun:

$$t_{haqiqiy} > t_{jadval} \text{ bo'lishi kerak}$$

Styudentning *t*-mezoni hisoblangan (t_{hisob}) va jadval (t_{jadval}) qiymatlarini taqqoslab, N_0 gipoteza qabul qilinadi. Buning uchun *t*-mezonning jadval qiymatini tanlangan ishonchlilik ehtimoli (α) va ozodlik darajasi (d.f. = $n - m - 1$) shartlar asosida topiladi. Bu yerda n – kuzatuvlar soni; m – omillar soni .

1-jadval ma'lumotlariga asosan ishonchlilik ehtimoli $\alpha = 0,05$ va ozodlik darajasi d.f.=11-1-1=9 bo'lganda, *t*-mezoning jadval qiymati $t_{jadval} = 2,2622$ ga teng. Barcha hisoblangan *t*-mezoning qiymatlari jadval qiymatlaridan katta bo'lganligi bois model parametrlari adekvat, deb topiladi.

Modeldan ko'rinish turibdiki, mamlakatda faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar sonining 1000 birlikka o'sishi, aholi jon boshiga real umumiylar daromadlar hajmini 33,12981 ming. so'mga o'sishiga olib kelar ekan.

Endi prognozlashning eng sodda usullaridan biri bo‘lgan trend funksiyasi orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda bandlar soni va faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni o‘sishining funksiyasini yaratishimiz kerak.

Endi prognozlashning eng sodda usullaridan biri bo‘lgan trend funksiyasi orqali mamlakatda faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni o‘sishining funksiyasini yaratishimiz kerak. Bunda trend $y=a_0+b_1 \times t$ funksiyasida o‘zgaruvchilarni yillar qilib olamiz hamda chiziqli funksiya hosil qilamiz. Unga ko‘ra o‘zgaruvchilar yillar (t) hisoblanadi (3.24-jadval).

3.24-jadval

Vaqt omili va faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni o‘rtasida bog‘liqdik

Yillar	t	Kichik korxona va mikrofirmalar soni, ming birlik
2011	1	177,9
2012	2	177,6
2013	3	189,9
2014	4	196,0
2015	5	207,1
2016	6	210,6
2017	7	229,7
2018	8	262,9
2019	9	334,8
2020	10	411,2
2021	11	462,8

3-jadval ma’lumotlari asosida Microsoft Excel dasturida quyidagi ekonometrik model va uning parametrlari aniqlandi (3.25-jadval).

3.25-jadval

Vaqt omili va mamlakatda faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar sonining istiqbolli davr o‘chun o‘sish funksiyasi¹²²

	a ₀	b ₁	Y	R (kor-relyasiya koef-ti)	F (Fisher mezoni)	t-(Styudent mezoni)
Mamlakatda faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, ming birlik	99,101	26,823	$Y=99,101+26,823 \times t$	0,897	37,142	12,197

¹²² Muallif ishlanmasi.

Vaqt omili va mamlakatda faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni o‘rtasidagi bog‘lanish zichligi boshqa shart-sharoitlar o‘zgarmas bo‘lgan holatda 0,897 ga teng ekan. Bu ko‘rsatkich ushbu omillar o‘rtasida kuchli bog‘lanish bor ekanligini ko‘rsatadi. Fisher mezoni va Styudent mezoni ham maqbul ko‘rsatkichlarda ekanligini ko‘rshimiz mumkin.

Modeldan ko‘rinib turibdiki, vaqt omilining bir birlikka oshishi, mamlakatda faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar sonining 26,823 ming birlikka o‘sishiga olib kelar ekan.

Endi -jadvaldagи funksiyalar asosida mamlakatda faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar sonini istiqbolli davr uchun prognoz qilamiz (3.26-jadval).

3.26-jadval

Mamlakatda faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar sonini trend funksiyasi orqali aniqlangan prognoz ko‘rsatkichlari¹²³

Yillar	t	Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, ming birlik (X)
2022	12	420,9728
2023	13	447,7955
2024	14	474,6181
2025	15	501,4408
2026	16	528,2635
2027	17	555,0861
2028	18	581,9088
2029	19	608,7314
2030	20	635,5541

Yuqorida, mamlakatda faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni aholi jon boshiga real umumiy daromadlar hajmiga nisbatan funksiya deb olinib, Microsoft Excel dasturidagi hisob-kitoblar natijasida quyidagi ekonometrik modelni tuzgan edik.

$$Y = -1933,44 + 33,12981 \times X$$

¹²³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Statistika agentligi (stat.uz) ma’lumotlari asosida muallif hisob kitoblari.

Endi yuqorida aniqlangan ma'lumotlar asosida aholi jon boshiga real umumiylar daromadlar hajmining istiqbolli davr uchun qiymatlarini aniqlaymiz (3.27-jadval).

3.27-jadval

Aholi jon boshiga real umumiylar daromadlar hajmining istiqbolli davr uchun prognoz ko'rsatkichlari¹²⁴

Yillar	Mamlakatda faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, ming birlik (X)	Aholi jon boshiga real umumiylar daromadlar hajmi, ming so'm (Y)
2022	421,0	12013,3
2023	447,8	12901,9
2024	474,6	13790,6
2025	501,4	14679,2
2026	528,3	15567,8
2027	555,1	16456,5
2028	581,9	17345,1
2029	608,7	18233,7
2030	635,6	19122,3

Jadvaldan ko'rinish turibdiki, 2030 yilda prognoz qilinayotgan Aholi jon boshiga real umumiylar daromadlar hajmi 19122,3 ming so'mni tashkil qiladi. Agarda bu qiymatni 2021 yildagi qiymat bilan taqqoslasak, Aholi jon boshiga real umumiylar daromadlar hajmi 1,425 barobarga yaqin o'sar ekan. Bizning hisob-kitoblarimiz bo'yicha aholi jon boshiga real umumiylar daromadlar hajmining o'sish sur'ati to'qiz yillikda barqaror yuqori o'sish tendensiyasiga ega bo'ladi. 2030 yilgacha yillik o'rtacha o'sish sur'ati 4,0 ($1,0470 = 1,425$) foizdan yuqori bo'lar ekan.

¹²⁴ Muallif ishlanmasi.

Uchinchi bob bo‘yicha xulosa

- tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda erkin bozor qonunlari asoslanganda uning asosiy e’tibori foydani maksimallashtirishga yo’naltiriladi, ishchi va xizmatchilarni oylik maoshlarini ko‘tarish orqali unumdarlikni o’sishiga erishadi, boshqa ijtimoiy masalalarga daromad va foya mablag‘larining bir qismini yo’naltiradi. Ishlab chiqarishni kengaytirish orqali ishsiz fuqarolarni ish bilan bandligini ta’minlaydi;
- tadbirkorlik sub’ekti bozor dastaklari bilan birga davlatning tartibga solish mexanizmini uyg‘unlashtirgan holda faoliyat yuritganda, u tomonidan ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar narxini belgilashda ijtimoiy muvozanatlashgan narxni shakllantiradi. Talab miqdorini taklifdan ustunligi davrida narx o‘sishini sekinlashtiradi;
- tadbirkorlik sub’ekti o‘z faoliyatini bozor dastaklari va davlatning tartibga solish mexanizmini asosida olib borganda, kapital va ishlab chiqarish omillarining o‘sishini olingan foya va davlat tomonidan ko‘rsatiladigan imtiyoz, subsidiya kabilar hisobidan amalga oshiradi;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning avfzalliklaridan biri yangi bo‘sh ish o‘rinlarini yaratishda nisbatan kam mablag‘ talab etishi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari o‘z faoliyatini tashkil qilish va kengaytirishda, yangi ish o‘rinlarini ochishda o‘zlarining shaxsiy mulklari, binolari, transport vositalari, boshqa resurs va imkoniyatlaridan samarali foydalanishga intiladi;
- davlatning ma’lum funksiyalarini tadbirkorlik sektoriga o‘tkazilishi, biznes uchun imkoniyatlar yaratadi. Mazkur jarayon autsorsing, sertifikatlashtirish va boshqa usullar orqali bir nechta bosqichda kompleks amalga oshiriladi. Natajada tadbirkorlikning yangi turi paydo bo‘ladi, xizmatlar ko‘rsatish tarmoqlarini kengayishi, raqobat xizmatlar foydalanish qulayligi va arzonlashishiga asos bo‘ladi;
- davlat va xususiy sheriklikdan har bir sub’ekt xususiy mulkdorlar (investorlar va tadbirkorlar), davlat ham, aholi ham manfaatdordir. Investorlar o‘zlarining mablag‘ini investitsiya qilib, tegishli foiz olishga erishsa, tadbirkorlar tadbirkorlik faoliyati evaziga foya oladi. Ijtimoiy funksiyalar samarali yechim

topadi yangi ish joylari yaratilib, bandlik masalasida ijobiy o‘zgarishga erishadi, daromadlar hisobiga davlat budgetiga soliq va boshqa majburiy to‘lovlar tushishi ortadi. Ishsizlarning ish o‘rinlariga ega bo‘lishi evaziga jamiyatimizda kambag‘allik qisqaradi va aholining farovonligini oshirish imkoniyati paydo bo‘ladi.

XULOSA

Tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyalarini nazariy asoslarini takomillashtirish yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirishga erishildi:

- tadbirkorlik sub'ekti o'zi faoliyat olib borayotgan jamoa va jamiyat oldida mas'uliyatlidir. Bu esa tadbirkorga o'zi ishlab chiqarayotgan mahsulot yoki faoliyati natijasida erishgan daromad va foydadan ma'lum bir mablag'larni ish haqi, soliq, hayriyalar ko'rinishida o'zi yoki ijtimoiy fondlar yordamida jamiyat ravnaqi va farovonligi uchun sarf etishini taqazo qiladi;
- tadbirkorlik funksiyasi quyidagi ko'rinishda guruhlarinishi mumkin, avvalo iqtisodiy funksiya, u iste'molchilar uchun tovar va xizmatlar ishlab chiqarishni amalga oshiradi; keyingisi innovatsion funksiya, u yangi g'oyalarni shakllantirishga, shu bilan birga maqsadga erishishning yangi vosita, omil hamda texnologiyalarni shakllantiradi; uchinchisi resurs funksiyasi, iqtisodiy resurslar hamda ishlab chiqarish omillarini samarali birlashtirishni amalga oshirish; to'rtinchisi, tashkiliy funksiya, tadbirkorlik korxonani joriy va strategik yo'nalishini belgilaydi va uning muvoffaqiyatli faoliyati uchun javobgar hisoblanadi; beshinchisi, ijtimoiy funksiya, har bir shaxsni tadbirkor bo'la olishi va ish joylarini tashkil etish, yollanma ishchilarning turmush darajasini, ijtimoiy holatini yaxshilash;
- tadbirkorlikni ijtimoiy funksiyasini amaliy natijasi sifatida yangi tadbirkorlar ijtimoiy guruhini shakllantiradi, o'rta mulkdorlar ya'ni, jamiyatda iqtisodiy ta'minlangan insonlar paydo bo'ladi, ishchi va xizmatchilarga maqbul maosh to'lash hamda qulay mehnat sharoitini ta'minlashi natijasida insonlarda, biznesga, tadbirkorlarga nisbatan salbiy munosabatini ijobiy tomonga o'zgartirishga erishadi;
- tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu u jamiyat uchun keltirayotgan nafni o'lchab bo'lmashigidadir. Masalan, ishchilariga ko'rsatayotgan ijtimoiy yordam, sog'lom mehnat qilish muhiti, faoliyat yuritayotgan hududda o'g'irlilik va boshqa turdag'i jinoyatlarni kamayishi, atrof-muhitni tozaligi kabilar;

- mikro va kichik biznesning asosiy e'tibori, manfaati iqtisodiy emas, balki ijtimoiydir. Ya'ni insonlar mikro va kichik tadbirkorlik bilan shug'ullanishning dastlabki bosqichida boyishga emas, balki o'zlarining oilaviy extiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan;
- tadbirkorlik ijtimoiy funksiyasidan kelib chiqgan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish layoqati bor insonlarni yakka tartibdagi tadbirkorlik, kichik biznes, oilaviy tadbirkorlik va tadbirkorlikni boshqa shakllarini tashkil etishga yo'naltirish va rag'batlantirish zarur;
- bandlik masalasini ijobjiy hal etishda tadbirkorlik asosiy yechim ekanligini inobatga olib aholini, tashabbuskor insonlarni, yoshlarni tadbirkorlikka jalg etish mexanizmini shakllantirish muhim hisoblanadi;
- tadbirkorlikni rivojlantirishning "mahallabay" ishlash tizimini joriy etish orqali har bir mahallalarning "o'sish nuqtalari"ni aniqlash asosida anashu yo'nalishda aholini kasb-hunarga o'qitish, bandligini ta'minlash va tadbirkorlikka jalg etish orqali mavjud muammolarni hal etilmoqda;
- kasb-hunarga o'qitish orqali tadbirkorlikka yo'naltirish: mahalla kasb-hunarga o'qitish maskanlarida, "Ishga marhamat" monomarkazlari, professional ta'lim tashkilotlarida, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning o'quv markazlari va bo'linmalarida; "Hunarmand" uyushmasiga a'zo bo'lgan hunarmandlarning "Usta-shogird" muktablarida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi;
- aholi daromadlarini oshirishda tadbirkorlik va mehnat faoliyatiga nisbatan "motivatsiya, ko'nikma va moliviyy ko'mak" tamoyiliga asoslangan mexanizm joriy etish zarur;
- aholining 45-48% o'rta mulkdorlar sinfi zahirasini tashkil qiladi, ularga yordam ko'rsatilishi ularni o'rta mulkdorlar qatorida bo'lishiga imkon beradi aks holda kam ta'minlanganlar qatlamin ko'payishiga sabab bo'ladi. Ularni o'rta mulkdorlar sinfiga o'tishida ijtimoiy zina vazifasini bajaruvchi hisoblangan tadbirkorlik tizimida yangi imtiyoz va yengilliklarni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq;

- mamlakatimizda “Ijtimoiy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi Qonun ishlab chiqilishi dolzARB masalaga ayolanmoqda, bu bilan aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ish o‘rinlari bilan ta’minalash, ijtimoiy tovarlar ishlab chiqarish va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish yoxud boshqa ijtimoiy maqsadlarni ko‘zlagan hamda belgilangan tartibda ijtimoiy korxonalar ryestriga kiritilgan tadbirkorlik sub’ektlari qo‘llab-quvvatlash mexanizmini yanada takomillashtirish imkoniyati yuzaga keladi.

- bozor iqtisodiyotini amal qilishi jarayonida tadbirkorlikni ijtimoiy funksiyasini samarali amal qilishi va tartibga solishda aniq belgilangan vazifalar va yo‘nalishlarga asoslangan tabaqalashgan tizimni shakllantirish zarur;

- tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda erkin bozor qonunlari asoslanganda uning asosiy e’tibori foydani maksimallashtirishga yo’naltiriladi, ishchi va xizmatchilarni oylik maoshlarini ko‘tarish orqali unumdarlikni o’sishiga erishadi, boshqa ijtimoiy masalalarga daromad va foyda mablag‘larining bir qismini yo’naltiradi. Ishlab chiqarishni kengaytirish orqali ishsiz fuqarolarni ish bilan bandligini ta’minalaydi;

- tadbirkorlik sub’ekti bozor dastaklari bilan birga davlatning tartibga solish mexanizmini uyg‘unlashtirgan holda faoliyat yuritganda, u tomonidan ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar narxini belgilashda ijtimoiy muvozanatlashgan narxni shakllantiradi. Talab miqdorini taklifdan ustunligi davrida narx o’sishini sekinlashtiradi;

- tadbirkorlik sub’ekti o‘z faoliyatini bozor dastaklari va davlatning tartibga solish mexanizmini asosida olib borganda, kapital va ishlab chiqarish omillarining o’sishini olingan foyda va davlat tomonidan ko‘rsatiladigan imtiyoz, subsidiya kabilar hisobidan amalga oshiradi;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning avfzalliklaridan biri yangi bo‘sh ish o‘rinlarini yaratishda nisbatan kam mablag‘ talab etishi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari o‘z faoliyatini tashkil qilish va kengaytirishda, yangi ish o‘rinlarini ochishda o‘zlarining shaxsiy mulklari, binolari, transport vositalari, boshqa resurs va imkoniyatlaridan samarali foydalanishga intiladi;

- davlatning ma'lum funksiyalarini tadbirkorlik sektoriga o'tkazilishi, biznes uchun imkoniyatlar yaratadi. Mazkur jarayon autsorsing, sertifikatlashtirish va boshqa usullar orqali bir nechta bosqichda kompleks amalga oshiriladi. Natajada tadbirkorlikning yangi turi paydo bo'ladi, xizmatlar ko'rsatish tarmoqlarini kengayishi, raqobat xizmatlar foydalanish qulayligi va arzonlashishiga asos bo'ladi;
- davlat va xususiy sheriklikdan har bir sub'ekt xususiy mulkdorlar (investorlar va tadbirkorlar), davlat ham, aholi ham manfaatdordir. Investorlar o'zlarining mablag'ini investitsiya qilib, tegishli foiz olishga erishsa, tadbirkorlar tadbirkorlik faoliyati evaziga foyda oladi. Ijtimoiy funksiyalar samarali yechim topadi yangi ish joylari yaratilib, bandlik masalasida ijobiy o'zgarishga erishadi, daromadlar hisobiga davlat budgetiga soliq va boshqa majburiy to'lovlar tushishi ortadi. Ishsizlarning ish o'rinaliga ega bo'lishi evaziga jamiyatimizda kambag'allik qisqaradi va aholining farovonligini oshirish imkoniyati paydo bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOLAR RO‘YXATI

Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar.

1. Ўзбекистон Республикаси Конуни «Тадбиркорлик фаолияти эркинлигининг кафолатлари тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Конунига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш хақида (lex.uz) ЎРҚ-328-сон 02.05.2012 й.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 09.11.2022 yildagi PF-244-son “Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. - www.lex.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 30.09.2022 yildagi PF-228-son. “Tadbirkorlik sub’ektlarining eksport salohiyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. - www.lex.uz.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 22.07.2022 yildagi PQ-329-son. Xotin-qizlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitish tizimini takomillashtirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори “Махаллада тадбиркорликни ривожлантириш, аҳоли бандлигини таъминлаш ва камбағалликни қисқартириш масалалари бўйича ҳоким ёрдамчилари фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-31-сон, 03.12.2021 й.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 28 oktabrdagi PQ-2646-son «Tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida»gi Qarori. – www.lex.uz.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 29 iyuldaggi 216-son qaroriga ilova – «Oilaviy tadbirkorlikni hamda hunarmandchilik faoliyatini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida Nizom”. – www.lex.uz

9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 9 fevraldagи 66-son қарорига 1-ilova. Tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizom. – www.lex.uz.
10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 14.10.2022 yildagi 596-son – “Kasanachilikni tashkil etgan tadbirkorlik sub’ektlarini yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”. – www.lex.uz.
11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 05.09.2022 yildagi 488-son. Respublika hududlarida tadbirkorlikning rivojlanganlik darajasini baholash tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. – www.lex.uz.
12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори “Маҳаллаларда тадбиркорликни янада қўллаб-қувватлаш ва тадбиркорлик субъектлари билан аҳоли ўртасида кооперацияни ривожлантиришнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида” ПҚ-5214-сон 05.08.2021. (lex.uz)
13. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 22 июндаги “Ёшлилар ва хотин-қизларни касб-хунар ва тадбиркорликка ўқитиш дастурларини самарали амалга ошириш ҳамда уларнинг тадбиркорлик фаолияти учун микрокредитлар ажратиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 388-сонли қарори.
14. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 2 февралдаги ПФ-5325-сон “Хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш ва оила институтини мустаҳкамлаш соҳасидаги фаолиятни тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони. <https://www.lex.uz>
15. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й, - № 6., 70-модда
16. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Yillik statistik to‘plam. 2012-2019 yillar. Toshkent, 2020.

17. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida (yangi tahriri). 2012 yil 2 may, O‘RQ-328-son. – www.lex.uz.
18. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining qarori, 24.08.2021 yildagi 1306-IV-son. «Ijtimoiy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni haqida
19. Ш.Мирзиёев. Халқаро хотин-қизлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи- <https://xs.uz/uzkr/25973>
20. Ўзбекистон Республикасининг қонуни “Аҳоли бандлиги тўғрисида”, 20.10.2020 йилдаги ЎРҚ-642-сон.
21. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, “Аҳолини тадбиркорликка жалб қилиш тизимини такомиллаштириш ва тадбиркорликни ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ПҚ-4862-сон, 13.10.2020 й. (lex.uz)
22. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг мамлакатимиз тадбиркорлари билан очик мулоқот шаклидаги учрашувда сўзлаган нутқи (20.08.2021 йил). <https://xs.uz/uzkr/post/>

Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar.

23. Сэй Ж.Б. Трактаты политической экономии. – М.: Экономика. 1985. – 55 с.
24. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. Т.1.– М.: Ось, 1977. – 480 с.;
25. Шумпетер Й. Теория экономического развития. – М.: Прогресс, 1985. –159 с.;
26. Хизрич Р., Питерс М. Предпринимательство или как завести собственное дело и добиться успеха. – М.: Прогресс, 1991. – 223 с.;
27. Лапуста М.Г, Старостин Ю.Л. Малое предпринимательство. М.: Инфра-М, 1997. – С.87.;
28. Макконнелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс. В 2-х т. Т-1. – М., 2003. – 399 с.;
29. Хамидуллин Ф.Ф. Развитие методологии исследования малого бизнеса // Проблемы современной экономики, №3(19), 2007.;

30. Хаит М.М. Развитие малого бизнеса на основе реструктуризации крупных предприятий // Вестник Московского университета, сер. 6. Экономика, №4, 2006. – С.32-43.
31. Абдуллаев Ё. Кичик бизнес ва тадбиркорлик асослари. – Т.: Мехнат, 2010. - 349 б.;
32. Болтабаев М.Р., Қосимова М.С., Эргашходжаева Ш.Ж., Ғойибназаров Б.К., Самадов А.Н., Ходжаев Р. Кичик бизнес ва тадбиркорлик: Ўқув қўлланма. – Т.: Иқтисодиёт, 2010. – 275 б.;
33. Ходжаев Р., Эгамбердиев А. Кичик бизнес ва тадбиркорлик. – Т.: Иқтисодмолия, 2008. – 105 б.
34. Ходиев Б.Ю. Ўзбекистон иқтисодиётида тадбиркорлик ривожланишини эконометрик моделлаштириш. Дис. ... иқт. фан. д-ри. - Т., ТДИУ. 2000. - 338 б.
35. Абдурахмонова М.М. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектлари фаолиятини давлат томонидан қўллаб-қувватлашни такомиллаштириш. Дис. иқт. фан. номз. - Ф., 2012.;
36. Гафуров У.В. Кичик бизнесни давлат томонидан тартибга солишининг иқтисодий механизмларини такомиллаштириш. Дис. ... иқт. фан. докт. - Т., 2017.
37. Чеберко Е.Ф. Основы предпринимательской деятельности. История предпринимательства: учебник и практикум / Люберцы: Юрайт, 2016. – 420. 16-бет.
38. Dees J.G. The meaning of social entrepreneurship [Электронный ресурс]: (original draft: 1998, revised 2001)//Duke University, the Fuqua School of Business. -2001. - Режим доступа: http://www.cseatduke.org/documents/dees_sedef.pdf.
39. Бушуева Е.Н. О социальных и экономических функциях современного предпринимательства. Текст научной статьи по специальности «Экономика и бизнес». <https://cyberleninka.ru/article/n/o-sotsialnyh-i-ekonomiceskikh-funktsiyah-sovremennoogo-predprinimatelstva>
40. Плюхина, А. А. Условия развития социального предпринимательства в России / А. А. Плюхина // Вестник РГГУ. – 2014. – № 21 (143). – С. 114-119.

41. Плюхина, А. А. Развитие системы государственного регулирования и поддержки проектов в сфере социального предпринимательства. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва – 2018
42. Борнштейн, Д. Как изменить мир: Социальное предпринимательство и сила новых идей / пер. с англ. – М.: Альпина Паблишер, 2012. – 499 с.
43. О.Н. Руднева. Организация предпринимательской деятельности в АПК: Краткий курс лекций / Сост.. – Саратов. – 2017. – 118 с.
44. А.В.Толстиков Социальная функция современного государства (cyberleninka.ru).
45. Кабанова Е.Е. Проблемы развития социальной инфраструктуры средних городов в современной России (на примере города Гусь - Хрустальный). Материалы Ивановских чтений. 2015. № 5. С. 29-34.
46. Московская А.А. (ред.) Социальное предпринимательство в России и в мире: практика и исследования. М.: Изд. дом НИУ ВШЭ, 2011.
47. Фонд региональных социальных программ «Наше будущее». [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://www.nb-fund.ru/about-us/media-about-us/utochnite-pozhaluysta.html>
48. Харченко А. А. Социальное предпринимательство в России. Бизнес-образование в экономике знаний: межд.науч.эл.журнал. Иркутск, № 3[11] 2018.
49. Калов З.А., Куршаева Ф.М., Хациева Л.У. Особенности реализации моделей социальной политики. - Современные проблемы науки и образования (сетевое издание) (science-education.ru)
50. Кан Ен Да. Подходы и методы оценки эффективности деятельности предприятия. Economy and Business. - cyberleninka.ru.
51. Harrington Emerson - The Twelve Principles of Efficiency - маълумотлар асосида муаллиф томонидан тайёрланди.
52. Е.И. Андреева, И.Д. Горшкова, А.С. Ковалевская Рекомендации по оценке социально-экономической эффективности социальных программ.

Определения, подходы, практический опыт /- М.: Издательство «Проспект», 2014. - 72 с.

Foydalanilgan boshqa adabiyotlar.

53. Н.А.Голубева Оценка эффективности социально ответственной деятельности предприятия – Оценка эффективности социально ответственной деятельности предприятия (cyberleninka.ru)
54. To‘rabyov I., Berdikulov M. Innovatsiyalar soliq imtiyozlari orqali qo‘llab-quvvatlanishga muhtoj. <https://kun.uz/news/2018/06/30/innovacialar-solik-imtiezlari-orkali-kullab-kuvvatlanisga-mutoz?>
55. “Маҳаллабай” ишлаш тизимини ташкил этиш бўйича Ҳоким ёрдамчилари ўқуви маълумотларидан.
56. Японии Финансирование МСП и предпринимателей 2022: табло ОЭСР | Библиотека ОЭСР ([oecd-ilibrary.org](http://oecd-ilibrary.org/sites/a3891ad8-en/index.html?itemId=/content/component/a3891ad8-en)) маълумот 2016 йил учун берилган.
57. <https://www.oecd-ilibrary.org/sites/a3891ad8-en/index.html?itemId=/content/component/a3891ad8-en>, маълумот 2020 йил учун берилган.
58. <https://ec.europa.eu/eurostat/web/products-eurostat-news/-/edn-20220627>, маълумот 2019 йил учун берилган.
59. <https://www.oberlo.com/statistics/number-of-small-business-in-the-us>, маълумот 2022 йил учун берилган.
60. www.oecd-ilibrary.org/sites/4034a9a8-en/index.html?itemId=/content/component/4034a9a8-en
61. <https://www.oecd-ilibrary.org/sites/10a940b8-en/index.html?itemId=/content/component/10a940b8-en#section-d1e166260>, маълумот 2020 йил учун берилган.
62. Алина Пишняк Средний класс. Кто это? Сколько зарабатывает? И на что тратит деньги? » Элиттрейдер (elitetrader.ru)
63. Средний класс — Википедия (wikipedia.org)
64. «Global Wealth Report 2015» - маълумотлари асосида тузилди.

65. <https://kun.uz/ru/news/2019/05/09/kto-yavlyayetsya-predstavitelem-srednego-klassa-v-uzbekistane>
66. Малый бизнес как фактор формирования среднего класса в России | Статья в журнале «Молодой ученый» (moluch.ru)
67. <https://7universum.com/ru/economy/archive/item/4553>
68. <https://cyberleninka.ru/article/n/mehanizmy-i-instrumenty-regulirovaniya-v-sfere-predprinimatelstva-osnovnye-teoreticheskie-i-prakticheskie-podhody>
69. Понятие, роль и место рыночного механизма (newinspire.ru)
70. https://www.norma.uz/uz/nhh_loyihalari/davlat_hususiy_sherikligi_16_ta_sohada_amalga_oshiriladi?ysclid=latjdr697p815350822